

ANORQULOVA GULNOZA MIRZAXMATOVNA

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI



Kitob quyidagi ko'rsatilgan
muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishlar
miqdori

--	--

и
уни

Искандар

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ANORQULOVA G. M.

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

5111000 - Kasb ta'limi (5150900 – Dizayn (Kostyum)) va boshqa kasbiy
ta'lim yo'nalishlari uchun

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2021

KIRISH

Respublikamizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar, kadrlar tayyorlash sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inida sezilarli darajada o'z aksini topmoqda.

Darhaqiqat, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlardagi bardavomlik, yurtimizdagi tinchlik va xotirjamlik, xalqimiz farovonligining muttasil oshib borishini ta'minlash oldimizda turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu boisdan islohotlarning tub mohiyati teran anglaydigan, bu jarayonlarda bevosita ishtirok etadigan har tomonlama yetuk, zamonaviy va kasbiy bilim sirlarini chuqur egallagan barkamol avlodni tarbiyalash mamlakatimizning kelgusida rivojlanishi va taraqqiyot yo'lidagi asosiy omillardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifvtini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini ishtirokni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, PQ-3775-sonli «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi va 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-sonli «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari mazmunidan kelib chiqqan holda pedagog kadrlarni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion vositalarini qo'llash asosida ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallashlari uchun tegishli sharoitlar yaratish, ularda interfaol ta'lim uslublarini o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalarini ommalashtirishni ta'minlashga oid vazifalari belgilab berilgan.

Yuqoridagi qarorlarning amaldagi ijrosi sifatida respublikamiz o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada takomillashtirishga oid 2019 yil 6 sentyabrda PF-5812 "Professional ta'lim tizimini

UDK 581:632

BBK: 28.0

A 99

Anorqulova Gulnoza Mirzaxmatovna
Ta'lim texnologiyalari. IO'quv qo'llanma/. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021, 228 b.

Mazkur o'quv qo'llanma 5111000 - Kasb ta'limi (5150900 – Dizayn (Kostyum)) va boshqa kasbiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, qo'llanmani tayyorlashda fan dasturi mazmuni to'liq qamrab olingan hamda xorijiy adabiyotlar mazmunidan foydalanilgan. Qo'llanmaning mazmunida Respublika O'rta maxsus kasb-xunar ta'limi tizimini professional ta'lim tizimiga o'tganligi inobatga olingan bo'lib, unda ta'lim jarayonini tashkil etish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash texnologiyasi yoritilgan.

N.A. Muslimov

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazi direktori,
p.f. d.prof.

Z.K.Ismailova

TI va KXMMI Pedagogika, psixologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, p.f.d., prof.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6793-1-3

© Anorqulova G. 2021.
© "Innovatsiya-Ziyo", 2021.



yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni chiqdi.¹

Farmonda professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifalari belgilab berilgan.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi va murabbiylarga bog'liq. Bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi talab etmoqda.

Uzluksiz ta'limning o'rta bo'g'ini hisoblangan endilikda «Professional ta'lim» tizimida ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishi maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga bevosita bog'liqdir. Mazkur o'quv qo'llanma 5111000 - Kasb ta'limi (5150900-Dizayn (kostyum)) va barcha kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr tayyorlash uchun mo'ljallangan bo'lib, unda mazkur yo'nalish o'quv rejasida keltirilgan «Ta'lim texnologiyalari» fani bo'yicha mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar balki barcha O'quv qo'llanmadan nafaqat mazkur yo'nalish talabalari balki barcha oliy ta'limda va professional ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor- o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar ham foydalanishi mumkin.

1-MAVZU: "TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja

1. "Ta'lim texnologiyalari" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. "Ta'lim texnologiyalari" fanining pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida rivojlanish tarixi.
3. Ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy tushunchalar.

"Ta'lim texnologiyalari" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. XXI asr texnologiyalar asri bo'lib, texnologiya barcha sohaga kirib kelgandek ta'lim jarayoniga ham shiddat bilan kirib keldi. Ta'lim olish tizimini texnologiyalashtirish— ob'ektiv jarayon bo'lib, u quyidagilarga bog'liqdir:

- Ilmiy-texnik taraqqiyot,
- Axborotlashtirish
- Jamiyatni texnologiyalashtirish.

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohatlar, ta'lim jarayonini tashkil etishga quyidagi talablarni qo'yimoqda:

- Sifat, ya'ni aniq, ma'lum ta'lim darajasini olish;
- Ommaviy, ya'ni, talab etilayotgan ta'lim darajasiga bir vaqtini o'zida ko'p sonli o'quvchilar erishishlari lozim;
- Samaradorlik, ya'ni, ta'limga sarflanayotgan xarajatlar eng ko'p samara berishi zarur.

Bu vazifalarni hal etish ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishga, ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tatbiq etishga olib kelmoqda.

«Ta'lim texnologiyalari» fanining maqsadi ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarishda eng samarali ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini qo'llash orqali belgilangan vaqtda yuqori samaradorlikka erishish yo'llarini tadqiq etish va amalda qo'llash yo'llarini o'rgatishdir.

«Ta'lim texnologiyalari» fani belgilangan maqsad asosida o'quvchilarni kasbiy tayyorlashning quyidagi vazifalarini hal etadi: bo'lajak mutaxassislarining «Ta'lim texnologiyalari» kursida mutaxassislik bo'yicha bilimlarini kengaytiradi hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollanadi. Ta'lim oluvchilarni milliy mafkura tarbiyasi, o'quvchining kasbiy ta'lim asoslari bo'yicha

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-sonli Farmoni

bilimlarini rivojlantirish, o'qituvchi va o'quvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, kasbiy ta'limda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish vazifasini bajaradi.

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

"Ta'lim texnologiyalari" fanining pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida rivojlanish tarixi. Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari surgan. U ta'limni "texnikaviy" qilishga undagan, ya'ni hamma narsa, nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi, o'quv jarayonini, u "didaktik mashina" deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun: aniq qo'yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish XX asrda paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

Dastlab bu tushuncha 1940 - yillardan 50- yillar o'rtasigacha „Ta'lim texnologiyasi“ deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audio-vizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan.

XX asrning o'rtalarida AQSHda "Pedagogik texnologiya" va "Ta'lim texnologiyasi" atamaları faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llanila boshlagan.

1946-yilda AQSHning Indiana shtatidagi universitetga audiovizual ta'lim kiritilgan (muallif L.K. Larson).

1954-yilda dasturli o'qitish rejasi asoslab berilgan (muallif – professor B.F. Skinner).

1961-yil Janubiy Kaliforniya universitetida o'qitish texnologiyasi bo'limi ochilgan (bo'lim rahbari – D.D. Finn).

1968-yil LOGO dasturlashtirish tili ishlab chiqilgan va ta'lim muassasasida tatbiq etilgan (AQSHdagi Massachusetts texnologik instituti, rahbar – S.Peypert).

1976-yil birinchi shaxsiy kompyuter "Apple" yaratildi (mualliflar-S.Jobs, S.Uoznik).

80 - yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan.

1991-yil. Displeyli sinflarda o'quv maqsadlari uchun maxsus dasturiy vositalardan foydalanilgan.

Yuqorida keltirilgan "Ta'lim texnologiyalari" ni rivojlanishi davrlarida fandagi yangiliklarni ommaga etkazish maqsadida tegishli ilmiy-ommabop jurnallar nashri yo'lga qo'yildi. Masalan: AQSH da 1961 yilda «Pedagogik texnologiya» jurnali, 1971 yilda «Kommunikatsiya va texnologiya» assotsiatsiyasi tashkil etildi va "Audivizualli kommunikatsiya bayoni" nomli jurnallar chop etila boshladi.

Angliyada 1964 yilda «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim» jurnali nashr etila boshladi. 1967 yilda «Pedagogik texnologiya milliy kengashi» tashkil etildi. 1970 yilda «Pedagogik texnologiya» nomli jurnal chop etila boshladi.

Yaponiyada 1965 yilda «Umumyapon pedagogik texnologiya markazi kengashi» tashkil etildi va «Pedagogik texnologiya», «Pedagogik texnologiya tadqiqotlari» bo'yicha jurnallar chop etila boshladi.

Vengriyada 1973 yilda «O'qitish texnologiyasi» nomli davlat markazi tashkil etildi.

Yuqoridagilarga asosan pedagogik texnologiya tushunchasini ikki xil izohlash mumkin: birinchidan, uning o'quv jarayonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalanishi nazarda tutilib "O'qitishdagi texnologiya" deb nomlash mumkin bo'lsa, ikkinchidan, bu tushuncha o'quv jarayonining tashkil etish texnologiyasini bildiradi deb xulosa chiqarish mumkin.

Ta'limga texnologik yondashuv va "Ta'lim texnologiyasi" tushunchasiga qarashlar jamiyatni rivojlanishiga mos ravishda o'zgarib turgan, buni quyidagi tahlillarda ko'rish mumkin.

Ta'limga texnologik yondashuv va "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi ma'nosining uzluksiz o'zgarishi

Davr	Texnologik yondashuvning namoyon bo'lishi	"TT" tushunchasi ma'nosi
XVII asr	XVII asrda Yan Amos Komenskiy, shunday ta'lim mexanizmi, ya'ni "vaqt, narsalar va usullar" mohirona taqsimlansa, uni to'g'ri tuzish va undan to'g'ri foydalanilganda kutilayotgan natijani bersa, ya'ni uni «didaktik mashina» deb nomlab, u ustida izlanish olib borgan.	«Didaktik mashina»
30 - yillar 50-yillarning o'rtasi	30-yilning o'rtasida AQSHning Indiana universitetida o'quvchilarga eshitish va ko'rish (audiovizual) ta'limi bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan, 1954y. - professor B.F. Skinner tomonidan ishlar taqsimoti (mavzu-qadam-xodimlar) bo'yicha o'rgatishning muntazamli texnologiyasini o'zida namoyon etuvchi, dasturlashgan ta'lim modeli (DT) asosladi. Qaytar aloqani nazarda tutuvchi: har bir bajarilgan ishning to'g'riligini tezkor baholash va agarda keyingi qadamga xatolik bo'lsa qaytarish deb ta'kidlagan.	"Ta'limda texnologiyalar" - "...ma'lumotga ega bo'lish sohasida zamonamizning bo'lagi bo'lgan kashfiyotlar, sanoat mahsulotlari va jarayonlarini qo'llash" (M. Klark). Pedagogik maqsadlarda axborotni taqdim etishda eshitish va ko'rish (audiovizual) vositalarini qo'llash.
50-60-yillar o'rtasi	1958y. - N. Krauder bir qator berilgan va javoblarni to'g'riligiga bog'liq ravishda qaytar aloqaga muvofiq javoblarni ko'p tanlash Dasturli ta'lim (DT) kengaytirilgan chizmasini taklif etdi.	"O'rgatuvchi texnologiya" (D. Finn, 1959) - pedagogik maqsadda maxsus yaratilgan eshitish vositalaridan foydalanish va ulardan foydalanish uslubiyoti.
70-80-yillar	Eshitish vositalarining yangi turlari: videomagnitofon, aylanmali kadroproektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalar chiqara boshladi. Ta'lim texnologiyasi muammolari bo'yicha xalqaro anjumanlarda ta'lim texnologiyasiga umumiy mohiyat taklif etildi. TT qo'llanish sohasi - (1) o'qitishning texnik vositalari, (2) ma'lumot olish muammolariga tizimli yondashishi. "Birinchi soha o'qitish vositalarida texnika	"Ta'limiy texnologiya" TT - "ta'lim texnik vositalari yoki kompyuter sohasidagi" izlanishlar emas; bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li bilan, tuzilmaga keltirish hamda yo'l va materiallarni

	yutuqlarini amalga oshirish bilan, ikkinchi soha esa, pedagogik nazariyani rivojlanishi bilan, ularni tashkillashtirishning umumiy nazariyasi birlashtirishi lozim bo'lgan ilovaga bog'liq, ya'ni ta'lim muammolariga tizimli yondashishdir". P.D.Mitchel (1970 y.) TT bo'yicha 102 manbalarni tahlil etishi natijasida TT ma'nosi va pedagog-texnologlar vazifasi asosini shakllantiradi: "Kutilayotgan pedagogik natijalarni olish uchun inson, moddiy va moliyaviy manbalarni maqbul taqsimlash". TT pedagogikada nazariy bilim sohasi deb qabul qilinishi: "TT muammolarining nazariy tadqiqotlarini ishlab chiquvchi oqim, mohir texnologlarning yangi avlodi paydo bo'ldi" (M. Eraut). TT "Ta'lim vositasi"ning sinonimi hisoblanmasdan, u fanlararo xilma-xil tasodiflar yig'indisi, ta'limning barcha jihatlarini bilan bog'liq bo'lgan, qisqa ta'limiy lavhadan to uning barcha harakatlaridagi milliy tizimlari hisoblanadi" - D. Finn, London, 1978 y. 80 - yillarda TT to'g'risida Rossiya olimlarining birinchi nashrlari paydo bo'ldi: "... xorijiy tajribalar hozir bizda yaxshi ma'lum bo'lmay turibdi. Lekin TT eshigimizni taqillatayapti" (Klarin, 1989).	qo'llash yo'li bilan, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayonini eng maqbullashtirish prinsiplarini aniqlash va yo'llarini ishlab chiqish maqsadidagi izlanishdir". (Mejdunarodniy egegodnik po texnologii obrazovaniya i obucheniya - London-Nyu-York, 1978 g. Ta'lim texnologiyalari butun ta'lim berish jarayonini hamda bilimlarni texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usulidir". (YUNESKO, 1986 y.) "Pedagogik texnologiya" - atamasi pedagogika fanida vujudga keldi.
90-yillar	TT muammolarini: V.P. Bepalko, V. Guzeev, V. Klarin, V Monaxov, G. Selevko, S. Saidaxmedov, J. Yo'ldoshev, S. Usmonov, M. Ochilov va boshqalar ishlab chiqdilar.	
XXI asrning 1- o'n yillari	"Pedagogikaning predmeti inson tabiati (bog'liq bo'lgan) va o'quv-tarbiyaviy harakatlarining samarasi o'rtasidagi qonuniyatli munosabatlar hisoblanadi". Bir qancha uslubiyotlardan "tanlash huquqi" o'rniga, ilmiy, tabiatga oid pedagogika berilgan yoki insonni to'g'risidagi aniq bilimlari asosida mavjud sharoitlar uchun harakatlanishning maqbul yo'llarini ongli loyihalashni taklif etadi. Ma'lumki, muammoning bunday berilishida pedagogika "tajribani umumlashtirish" va "omma ijodkorligi" botqog'idan ilmiy izlanish maydoniga va yuqori asosli psixologiya - pedagogika muhandisligiga o'zgaradi. Ushbu matn parchasida TT - berilgan sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llaridir . Berilgan sharoitda maqbullik - texnologiyani hammabop tizimli belgisi.	

“Pedagogika uchun texnologiya ma’nosiga alohida, hech nimaga o’xshamaydiganlar, shuningdek unga texnik takrorlanish ma’nosini o’ylab topishga hech qanday sabab yo’q. Mohiyati bo’yicha mavjudlik va ishlab chiqarishlik, ijtimoiylik, insonshunoslik va texnologiya vazifalarini berilishdek qabul qilish kerak” (A.M.Kushnir, 2004 y.).

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya «O’qitishning texnik vositalari» yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo’llash, shuningdek qo’llanilayotgan usullarni baholash yo’li orqali ta’lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo’llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir.

Barcha ta’lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo’liga o’tkazish, maktab amaliyoti pedagogik jarayonini ixtiyoriy qurish va uni amalga oshirishdan keskin burilishi quyidagilarni anglatadi:

➤ uning har bir qism va bosqichlarining izchil asoslanganligi (ta’lim jarayonini tartiblashtirish - batafsil aniqlangan va asoslangan, ishlarni ma’lum tartibidan tashkil topgan qismlar - muloqot, axborot va boshqaruvning yo’l va vositalarini bo’lish orqali mumkin qadar rasmiyatchilik nuqtai nazaridan rasmiylashtirilgan);

➤ yakuniy natijani haqqoniy tashxis qila olishga yo’naltirilganligini;

➤ ta’lim jarayoniga mavjud sharoit va belgilangan vaqt ichida qo’yilgan ta’limiy maqsad hamda ijobiy natijaga erishishni ta’minlaydigan ishlab chiqarish-texnologik jarayonining mukammal, aniq yo’lga qo’yilgan, izchil, muvofiqlashgan xususiyatini berish;

➤ uning samaradorligi va inson imkoniyatlari (kuch, vaqt) ni maqbullashtirish maqsadi bilan butun ta’lim jarayonini boshqaruvchanligi.

Ta’limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy toifa va tushunchalar

«Ishlab chiqarish texnologiyasi», «Ta’limni texnologiyalashtirish», «Ta’limiy texnologiya», «Ta’lim berish texnologiyasi», «Pedagogik texnologiya» atamalar nimani anglatadi?

«Texnologiya» yunoncha so’zdan kelib chiqqan bo’lib «*techné*» - mahorat, san’at, malaka va «*logos*» - so’z, ta’limot ma’nolarini anglatadi.

“Texnologiya” atamasi pedagogik fani tomonidan ishlab chiqarish sohasidan o’zlashtirilganki, bunda “yuqori asosli psixologiya – pedagogik muhandisligi maydoniga o’zgaradi” (A.M.Kushnir, 2004 y.).

“Ishlab chiqarish texnologiyasi” deganda quyidagi ta’riflarni keltirish mumkin:

• xom-ashyo, material, yarim mahsulotlarni olish, ularni qayta tayyorlash yoki ularga ishlov berish *yo’l va usullarining yig’indisi* (texnologiyani jarayonli-bayonli tomoni);

• yuqorida ko’rsatilgan yo’l va usullarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi, *ilmiy fan*. Texnologiyani ilm sifatidagi vazifasi, moddiy manba va vaqtlar kam sarflashni talab etuvchi samarali va tejankor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda ulardan foydalanishni aniqlash maqsadidagi qonuniyatlarni topish hisoblanadi (ilmiy tomoni);

• *jarayonning o’zi* – topilmani qazib olish harakatlari, ishlov berish, qayta ishlash, transportga tashish, omborga joylash, saqlash, shuningdek ishlab chiqarishni texnik nazorati (jarayonli harakat tomoni);

Pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlar va amaliyotda «pedagogik texnologiya», «ta’limiy texnologiya» va «ta’lim berish texnologiyasi» kabi atamalariga bir qancha ta’riflar berilgan.

Texnologiya — biror ishda, mahoratda, san’atda qo’llaniladigan usullar, yo’llar yig’indisi. (*Izohli lug’at*.)

Texnologiya — ishlov berish, ahvolni o’zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig’indisi. (*V. M. Shepel*.)

Pedagogik texnologiya — o’qitishning, ta’limning shakllari, metodlari, usullari, yo’llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig’indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy - uslubiy vositalaridan iborat. (*B.T. Lixachev*.)

Pedagogik texnologiya — o’qituvchi mahoratiga bog’liq bo’lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o’quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (*V.P. Vespalko*.)

Pedagogik texnologiya — ta’limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti. (*I. P. Volkov*.)

Ta'lim texnologiyasi — didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi. (M. CHoshanov.)

Pedagogik texnologiya — o'quv jarayonining o'quvchilar va o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli (V. M. Monaxov.)

Pedagogik texnologiya bu — ob'ektiv, moddiy jarayon. Agar biz o'quv-tarbiya jarayonidan uning ob'ektiv, moddiy (substansiyalik) jihatini ajrata olsak, shunda biz texnologiyaga, eng kamida, uning tafsilotiga ega bo'lamiz (V. K. D'yachenko).

Pedagogik texnologiya — texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim ko'nikmalarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi (YUNESKO).

Pedagogik texnologiya — pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig'indisini va ularning amal qilish tartibini bildiradi. (M.V. Klarin.)

Pedagogik texnologiya — bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi. (B.L. Farberman.)

Pedagogik texnologiya, bu — so'zsiz rioya qilish eng yuqori natijani kafolatlaydigan ko'rsatmalar emas, balki qonuniyatlar bo'lib, ularning amaliy ahamiyatidan iborat. (V. YU. Pityukov.)

Pedagogik texnologiya — bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir. (Sakomoto.)

O'zbekistonda ta'lim tizimida "Pedagogik texnologiyalar" fan sifatida XX-asrning 90-yillarida pedagogikadan alohida tadqiq etila boshladi. Pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyalari muammolari bilan shug'ullangan o'zbek olimlari bu borada o'z qarashlarini bildirishib, ta'riflar berishgan.

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishishdan iborat bo'lib, uni tatbiq etishni

hisobga olgan holda ta'lim jarayonini ilgaridan loyihalashtirishda namoyon bo'ladi. (U. Nishonaliev.)

Pedagogik texnologiya — bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (o'quvchi)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir. (V. Saydahmedov.)

Pedagogik texnologiya — bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya'ni o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir. (V.G. Ziyomuhamedov.)

Pedagogik texnologiyaning hozirgi kunda shunday turli-tuman ta'riflari mavjudligi natijasida bu masalaning echimini quyidagicha o'ziga xos usulda hal qilish to'g'risida ham taklif bildirilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlardan yondashish mumkin.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida ta'lim-tarbiya jarayonida ko'plab yondashuvlar mavjud. Pedagogik texnologiyalarni xarakteri ana shu yondashuvdan kelib chiqadi. SHunga qaramasdan ko'pgina pedagogik texnologiyalar o'z mazmuni, maqsadi, metodlari va vositalariga ko'ra bir-biriga o'xshash. Pedagogik texnologiyalarni ana shu o'xshash xususiyatlariga qarab ularni bir necha turga ajratish mumkin.

Qo'llanilishiga, qamrov hajmiga (masshtabiga) ko'ra ularni uch guruhga ajratiladi:

1. Umumiy pedagogik texnologiyalar.
2. Xususiy pedagogik texnologiyalar.
3. Modulli kichik universal texnologiyalar

Umumiy pedagogik texnologiyalar o'z ichiga yirik texnologiyalarni, ya'ni butun ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

Masalan: reyting tizimiga o'tish, test texnologiyalariga o'tish shular jumlasiga kiradi.

Xususiy pedagogik texnologiyalar esa ma'lum fan doirasida qo'llanilishi mumkin va qulay bo'lgan texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan: iqtisodiyot fani uchun qulay bo'lgan texnologiyalarni ishlab chiqish.

Modulli kichik universal texnologiyalar biror refleksni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, turli fanlarni o'rganishda ishlatilishi mumkin bo'lgan texnologiyalardir. Masalan: didaktik o'yinlar, fikrlashga o'rgatuvchi texnologiyalar. Ular universal xarakterda bo'lib, ko'p vaqt talab etmaydi. Masalan: didaktik o'yinli texnologiyalar.

Falsafiy dunyoqarash o'z navbatida ta'lim-tarbiya tizimiga yondashuvda ham o'z aksini topadi. Diniy dunyoqarash o'ziga xos ravishda ta'lim-tarbiya jarayonini talqin etadi, idealistik dunyoqarash o'ziga xos ravishda ta'lim-tarbiyaning mazmun mohiyatini ochib beradi. Materialistik dunyoqarash ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishda materialistik nuqtai nazardan yondashadi (U inson shaxsini moddiylik sifatida qabul qilsa, idealistik dunyoqarash insonni jon, tan, ruh kabi qismlarini tan olgan holda yondashadi). Ilmiy dunyoqarash esa ilmiy kashfiyotlarga asoslangan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil etishga qaratiladi. Demak, har bir jamiyatning qabul qilgan dunyoqarashi ana shu jamiyatda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga bevosita ta'sir o'tkazar ekan.

Falsafiy jihatdan texnologiyalar qo'yidagi guruhlariga ajratiladi:

A. Materialistik D. Gumanistik

B. Idealistik E. Erkin

V. Ilmiy J. Majburiy

G. Diniy

Demak, pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda ma'lum bir falsafiy dunyoqarash hukmronlik qiladi va ana shu qarash o'z aksini pedagogik texnologiyalarda topadi.

O'zbekistonda ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan talab 1997 yida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni qabul qilinishi bilan kuchaydi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning maqsadida belgilab qo'yildiki, "Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir".

O'zbekiston Respublikasining 1- Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarida ta'limda keng tasavvur va bilim hosil qilishga qaratigan, quyidagi vazifalarni belgilab beriladi:

- o'quvchilarga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uning kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari va ta'sir oqibatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni innovatsion usullardan foydalangan holda etkazish;

- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga ta'siri, uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'luvchi omillarni o'quvchilarning faol ishtiroki asosida o'rganish;

- mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida erishilgan yutuqlar, ularni ta'minlash manbalari, o'ziga xos jihatlari, muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va jarayonlar dinamikasidagi asosiy tendensiyalarini yorqin fragmentlar hamda slaydlar asosida ko'rsatib berish;

- mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mavjud muammolarni o'rganish va muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning ko'p omilli hamda murakkab jarayon ekanligini, uning ziddiyatli jihatlari anglash, ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni teran tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish;

- mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari, uning turli tarmoq va sohalarini yanada taraqqiy ettirish imkoniyatlari, hududlarning ishga solinmagan ichki salohiyatlari to'g'risida hosil qilingan bilimlarni amaliyotda qo'llash borasida dastlabki o'quv-amaliy ko'nikmalarni hosil qilish;

- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oldini olish, uning ta'sir oqibatlarini bartaraf etishda faol va ongli ravishda ishtirok etish mamlakatimiz har bir fuqarosining burchi ekanligini anglash darajasiga erishish;

- o'quvchilarda mamlakatimiz taraqqiyotida erishilgan yutuqlar mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash, o'quvchilarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish.

Asarda o'quv jarayonini samaradorligini oshirish masalasi

inqiroz sharoitida yanada dolzarbroq tus olishi, inqirozni salbiy oqibatlarini kamaytirish va kelajakda inqirozdan chiqib ketish to'la to'kis bo'lajak mutaxassislarda kasbiy malakalarni shakllanish darajasiga be'vosita bog'liqligi, o'quv jarayonida kasbiy malakalarni shakllantirish uchun pedagogik texnologiyalardan optimal darajada foydalanishga erishish lozimligi ko'rsatib o'tilgan..

Bugungi kunda respublikamiz Prezidenti SH Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan "Innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz", bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi".²

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi va murabbiylarga bog'liq. Bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi talab etmoqda.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ta'lim texnologiyalari fanining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. Ta'lim texnologiyalarining mohiyati nimani anglatadi?
3. Ta'lim texnologiyalari fanining rivojlanish bosqichlarini sanab bering.
4. Ta'limni texnologiyalashtirishga oid davlat siyosati mazmuni nimalardan iborat?

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, –592.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005.
3. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
4. www.pgpu.uz.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, – 592 b.

2-MAVZU. PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONINING TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.


Reja

1. O'zbekistonda kasb ta'limining rivojlanishi tarixi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar.
2. Kasb ta'limi mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari.
3. Kasb ta'limining tashkiliy shakllari.

Respublikamizda kasb ta'limini paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi mazkur tizimning jamiyat rivojlanishiga mos ravishda bir necha bosqichlarga ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- 1924-1940 –yillarda ta'lim tizimi sifatida vatanimiz kasb-hunar ta'limining tarkib topishi va rivojlanishi barqaror bo'lmagan davri;
1941-1959 yillarda safarbarlik davri;
1960-1980 yillar evolyusion rivojlanish davri;
1981-1986-yillar – sakrashsimon o'zgarishlar inqirozoldi davri;
1987-1990-yillar – rivojlanishdagi sifat o'zgarishlar (inqiroz) davri;
1991-1996-yillar inqirozdan asta-sekin chiqish va barqarorlik (moslashish) davri;
1997-2002-yillar – kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga joriy etishning birinchi bosqichi;
2003- 2017 yillar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlanish davri;
2017 -2019 yillar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida inqiroz davri.

Kasb ta'limi asoschilaridan A.S.Batishevning ilmiy tadqiqot ishlarida keltirilgan tahlillar, hamda respublikamiz olimlaridan K.Dj. Mirsaidov, A.Karimov, U.Nishanaliev, Z.K.Ismailova, G.M.Anorqulovalarning ilmiy tadqiqotlarida keltirilgan tahlillarga ko'ra kasb-hunar ta'limi XX asrning 20-yillaridan boshlab respublikada maxsus kurs va kasb maktablarida kasb-hunarga o'rgatish tashkil etilgan, ularda tugallangan bilimlar berish emas, balki ma'lum ish o'rinlarida ishlash uchungina zarur bo'lgan kasbiy faoliyatni bajarishga oid tor doiradagi bilim, ko'nikma va malakalarni berishni maqsad qilib qo'ygan edi.



XX asrning 30- yillarining boshlarida respublikamizda yirik sanoat korxonalari kam bo'lib, kichik ishlab chiqarish kombinatlari tashkil etilib ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi mazkur kombinatlar uchun zarur bo'lgan ishchi mutaxassislarni tayyorlash uchun texnikumlar, zavod fabrika o'quv kurslari, hunar texnika maktablari, o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari va turlicha hunar-texnika bilim yurtlari muntazam tashkil etila boshladi. Lekin kasb-hunar ta'limiga ajratilgan davlat byudjetining miqdori yaxlit holda etarli darajada bo'lmaganligi sababli 1936 yildan boshlab bunday o'quv yurtlari tarmog'i kamaya boshladi.

1937 - 1939-yillarda respublikada sanoat korxonalari tashkil etila boshladi. Tarixiy manbalar tahlili 1940 yilda O'zbekistonda 1445 ta yirik sanoat korxonalari mavjud bo'lganligi haqida guvohlik beradi. Bu sanoat korxonalarida zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalarning amalga joriy etilishi ommaviy ravishda texnik jihatdan savodxon ishchi kadrlar tayyorlash zaruratini kun tartibiga qo'ydi. Ana shunday malakali kadrlar tayyorlash vazifasi 1940-yilda tashkil etilgan davlat mehnat zahiralarini tizimiga yuklatildi. Davlat mehnat zahiralarini tizimida asosan quyidagi uch turdagi: hunarmandchilik o'quv yurtlari, temir yo'l o'quv yurtlari va fabrika-zavod o'quvchilar maktablarini o'ziga qamrab oldi.

1941-yilda boshlangan ikkinchi jahon urushi kasb-hunar ta'limi tizimiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymadi. Mamlakatdagi urush holati barcha ishchilarni frontga safarbar etish bilan bir vaqtda sanoatni to'liq harbiy qurol - aslaha ishlab chiqarishga o'tkazishni talab etdi. SHu bois nisbatan talab ortdi. SHuning uchun yangi ishchi mutaxassislar tayyorlashga talab ortdi. Urushdan so'nggi yillarda o'quv yurtlari tashkil etish bilan bir qatorda, vaqtinchali fabrika-zavod o'quvchilar maktablari tashkil etildi. Uruhdan so'nggi yillarda xalq xo'jaligini tiklash uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga kirishildi. Demak, bu davrda mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish sharoitida mehnat qiluvchi murakkab kasblar sohibi bo'lgan malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati kelib chiqdi.

Urushdan keyingi 1947-1959 yillarda respublikada tiklanish davri bo'lib kasb-hunar ta'limi tizimida qisqa muddatda kasbga tayyorlash uchun 3 oylik, 6 oylik, 1 yillik o'quv kurslari tashkil etildi. Bu o'quv kurslarida asosan traktorchi, haydovchi, svarkachi, tokar, slesar, ip yigiruvchi kabi kasblarga tayyorlandi.

1960-1980-yillar kasb-hunar ta'limining evolyusion rivojlanish davrida kasb-hunar o'quv yurtlar tarmog'i bevosita va nisbatan barqaror ortib borgani to'g'risida.

1961-1964-yillar davomida respublikadagi barcha mehnat zahiralarini o'quv yurtlari yagona shahar va qishloq hunar-texnika bilim yurtlariga aylantirilib, ularning har biri ma'lum sohalar bo'yicha ixtisoslashtirilib, malakali ishchilar tayyorlashga kirishildi.

1970-yillarning oxiridan boshlab ommaviy ravishda o'rta ma'lumotli ishchilar tayyorlashga o'tildi. Kasb-hunar ta'limi bu davrda respublika xalq xo'jaligining barcha sohalariga talab etilgan ixtisosliklar bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlab bera oldi. Uning me'yoriy, moddiy-texnik, o'quv-uslubiy bazasi kengaytirildi va mustahkamlandi.

1981-1986 yillar sakrashsimon o'zgarishlar inqiroz oldi davrini o'ziga qamrab olgan bosqich hisoblanadi. 80-yillarning birinchi yarmidan boshlab respublika kasb-hunar ta'limi rivojlanishida kadrlar tayyorlash miqdori bilan ijtimoiy va xalq xo'jalik talablari orasida mos kelmaslik holatlari, ya'ni ziddiyatlar ko'zga tashlana boshladi.

1987-1990-yillarni o'ziga qamrab olgan inqiroz davri. Bundan oldingi bosqichdagi salbiy holatlar yanada aniq kuchayib borib, hunar-texnika ta'limi tizimi haddan tashqari obro'sizlandi. Natijada umumta'lim maktablarida o'qishni xoxlamagan va o'zlashtirmaydigan o'quvchilarni hunar-texnika talimi tizimiga ommaviy ravishda majburan yuborilishi odat tusiga aylandi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin 1991-1996-yillarni o'ziga qamrab olgan moslashuvchanlik davri bo'lib, 90-yillarning boshlarida hunar-texnika ta'limi tizimining ko'plab miqdor ko'rsatkichlarining kamayishi sekinlasha bordi. Demak, bu tanglik davri bosib o'tilganligidan guvohlik berar edi, 1992-yilga kelib sekin-asta tayyorlangan mutaxassis kadrlar va o'quv yurtlari soni ham barqarorlasha boshladi. 1993-yilga kelib hunar-texnika ta'limiga qabul qilishda ortish ko'rsatkichlari qayd etildi.

1996-yildan boshlab hunar-texnika bilim yurtlarining moliyalashtirish asosan joylarning byudjetiga o'tkazildi. Yuqorida zikr etilgan tadbirlar ma'lum ma'noda hunar-texnika ta'limining barqarorlashishiga imkon berib, uning imkoniyatlarini saqlab qoldi. Lekin barcha muammolari echimini topa olmadi.

Bu muammolarning echimini topish maqsadida 1997-yil 29 avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilingan bo'lib, ular vatanimiz kasb-hunar ta'limini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga imkon berdi. 1997-yildan 2017 yilgacha bo'lgan davr ichida o'qish muddati uch yil bo'lgan yangi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi yaratildi. Bu tizim akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'ziga qamrab olib, ixtiyoriy majburiy ta'lim turi deb ataldi. Kasb-hunar kollejlari 300 dan ortiq ixtisoslik bo'yicha 800 ga yaqin kasblarga tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Lekin bu tizim ham tezlikda rivojlanayotgan jamiyatning talablariga javob bermay qoldi. Ommaviy kichik mutaxassislarni tayyorlanishi ish joylarining etishmasligi, tayyorlanayotgan kichik mutaxassislarni talabga javob bermasligi tizimni inqirozga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni³ asosida **2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi** ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda "... ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

Mazkur masalani amaldagi vazifalarini belgilashda oliy ta'limni rivojlantirishga oid O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909 sonli Qarori qabul qilindi. Qarorda 2017-2021 yillarda oliy ta'limni kompleks rivojlantirish dasturini joriy etish bo'yicha 9 ta banddan iborat chora-tadbirlar belgilab berilgan.

2019 yil 6 sentyabrda qabul qilingan "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812 sonli Prezident farmonida professional ta'lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi" (MSKO) darajalari bilan

³ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlariga to'sqinlik qilayotganligi e'trof etilgan.⁴

Shuningdek professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o'rinlarda — Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etilsin"-deb ko'rsatilgan.

Shuningdek farmonda quyidagilar ko'rsatilgan:

-tizimda mos ravishda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etiladi;

Kasb-hunar maktablarida:

kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi;

ta'lim olayotgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida oylik stipendiya hamda uch mahal ovqat bilan ta'minlanadi. Bunda, kasb-hunar maktablari o'quvchilarini uch mahal ovqat bilan ta'minlash yoki mazkur ovqat pullarini ularga to'lab berish huquqiga ega;

joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

Kollejlarda:

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son li Farmoni

kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, «Hayot davomida ta'lim olish» prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari tegishli vazirlik, idoralarning byudjetdan tashqari mablag'lari, o'quvchilarni davlat buyurtmasi va to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

Texnikumlarda:

kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3 yoki 4-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, «Hayot davomida ta'lim olish» prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan shakllantirilgan guruhlarda kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo'lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

o'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi;

joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari tegishli vazirlik, idoralarning byudjetdan tashqari mablag'lari, o'quvchilarni davlat buyurtmasi va to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi⁵.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son li Farmoni

kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, «Hayot davomida ta'lim olish» prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari tegishli vazirlik, idoralarning byudjetdan tashqari mablag'lari, o'quvchilarni davlat buyurtmasi va to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

Texnikumlarda:

kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3 yoki 4-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, «Hayot davomida ta'lim olish» prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan shakllantirilgan guruhlarda kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo'lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

o'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi;

joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari tegishli vazirlik, idoralarning byudjetdan tashqari mablag'lari, o'quvchilarni davlat buyurtmasi va to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi⁵.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son li Farmoni

3. PF-5812 Prezident farmonida kasbiy ta'lim tizimida qanday ta'lim shakllari bo'lishi ko'zda tutulgan?

4. Kasb-hunar maktabining maqsad va vazifasi nimadan iborat bo'ladi?

5. Ta'limi mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari nimalardan iborat?

6. Kasbiy ta'limda qanday tashkiliy shakllari mavjud?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-sonli farmoni

2. Tolipov O.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.

3. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.

3-MAVZU. PROFESSIONAL TA'LIMDA TA'LIMNING INTERFAOL STRATEGIYALARI VA MUAMMOLI TA'LIM

Reja

1. An'anaviy ta'lim mazmun mohiyati (AT). An'anaviy sinfdars texnologiyasining farqlanish belgilari.
2. Interfaol ta'lim metodlari haqida tushuncha.
3. Muammoli ta'lim va uning o'ziga xos xususiyatlari.

An'anaviy o'qitish tushunchasi pedagogika adabiyotlarida yangi o'qitish usullariga ko'p yillar davomida zid qo'yilgan. Bunda an'anaviy o'qitishning odatdagi tavsifi quyidagi asosiy alomatlar bilan tavsiflanadi:

– yangi materialning deyarli hammasi o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon qilinadi;

– darslik, asosan, mustaqil ish uchun qo'llaniladi;

– auditoriya mashg'ulotlari paytida darsliklar ayrim hollarda pedagog tushuntirishlaridan o'quvchilar diqqatini bo'zmaslik maqsadida qo'llanilmaydi: ko'pincha, darslikdan uyda ham foydalanilmaydi, uning o'rnini dars paytida to'zilgan konspekt bosadi;

– bilimlarni tekshirish, asosan, mashg'ulot vaqtining sezilarli qismini egallaydigan shaxsiy og'zaki so'rovlar hamda o'zoq muddatlarda o'tkaziladigan nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi. Oxirgi yillarda ob'ektiv testlar ham keng tarqaldi;

– mashg'ulotlar paytida aksariyat hollarda ishning frontal usuli qo'llanadi, mustaqil ishning nisbiy miqdori juda kam.

Bunday o'qitish tizimining eng jiddiy kamchiligi – o'quvchilarning mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqadigan uning salbiy oqibati. Ayrim o'quvchilarning faollik darajasi juda past.

Tushuntiruvchi–tasviriy informatsion retseptiv usulning mohiyati uning quyidagi alomatlari bilan tavsiflanadi:

– bilimlar o'quvchilarga "tayyor" holda taqdim etiladi;

– o'qituvchi turli yo'llar bilan bu bilimlar qabul qilinishini tashqil qiladi;

– o'quvchilar bilimlarni qabul qiladilar va ularning ma'nosini anglaydilar, o'z xotiralarida saqlab qoladilar.

Bilimlarni qabul qilish paytida informatsiyaning turli manbalari (so'z, ko'rgazmalilik va boshqalar) qo'llanadi, bayon mantiqi ham induktiv, ham deduktiv yo'l bilan rivojlanishi mumkin.

Pedagogning boshqaruv faoliyati, ko'pincha, faqat bilimlarni qabul qilishni tashkil qilish bilan cheklanadi va olingan bilimlardan foydalanish mohiyati va ko'nikmalari doim ham shakllantirilmaydi.

Masalan, agar pedagog tashkil qilgan bilim olish faoliyati faqat **tayyor bilimlarni eslab** qolish va keyinchalik ularni xatosiz, ayrim hollarda tushunmasdan ham, tiklashga olib kelsa, bu aqliy faollikning past darajasi hisoblanadi va unga muvofiq o'qitishning reproduktiv usuli mavjud.

Ta'limning reproduktiv usulida quyidagi alomatlar ajralib turadi:

- o'qituvchi bilimlarni "tayyor" holda, faqat bayon qilish bilan cheklanmasdan, ularni tushuntiradi;

- o'quvchilar bilimlarni tushunib o'zlashtiradilar. O'zlashtirishning mezonini olingan bilimlarni to'g'ri tiklash (reproduksiya)dir;

- o'zlashtirishning mustahkamligi informatsiyani ko'p marta takrorlash orqali ta'minlanadi.

Shunday qilib, o'qitishning reproduktiv turi o'quvchiga madaniy-tarixiy qadriyatlarini, an'analarni ta'limning tayyor mazmuni orqali o'zlashtirishga qaratilgan. Bugun ham o'quv dasturlari, darslik va metodik qo'llanmalarining ko'pchiligi o'rganilayotgan fan usullari orqali haqiqatni o'zlashtirishga emas, balki fan bo'yicha informatsiyani o'zlashtirishga qaratilgan.

Mana shu kamchiliklarga qaramasdan tushuntiruv-ko'rgazmali usul kam kuch sarflab, bilim va ko'nikmalarning kattagina hajmini o'zlashtirish imkonini beradi. Bilimlar mustahkamligi ularni ko'p marta qaytarish imkonining mavjudligi tufayli yuqori bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda reproduktiv o'qitish ikkinchi darajali deb qaralmoqda. Lekin aksariyat odamlar aynan reproduktiv mehnat bilan shug'ullanishadi, aks holda jamiyat o'z-o'zini eng zarur narsalar bilan ta'minlay olmas edi. O'qitishda tarbiyalanuvchilarning reproduktiv faoliyati asosiy o'rinni egallashi lozim, faqat shu shart bajarilganda zaruriy bilimlarni o'zlashtirish va bu orqali ijodga zamin yaratish mumkin.

Shunday qilib, namuna bo'yicha faoliyat usulini tiklash va takrorlash reproduktiv usulning asosiy alomatlaridandir. Pedagog og'zaki va yozma nutqdan foydalanadi, o'rganuvchilar esa tayyor namuna bo'yicha topshiriqlarni bajaradilar.

Hozirgi oliy ta'limda qo'llanilayotgan o'qitishning asosiy tashqiliy-uslubiy reproduktiv shakli amalda o'ylash, fikr yuritish jarayonlari rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va bo'lajak mutaxassisda o'z-o'ziga va tanlagan kasbiy faoliyatiga to'liq va keng qarashlar tizimi shakllanishini ta'minlamaydi.

Barcha turdagi maktablarga qo'yiladigan eng muhim talab va ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy sharti - ijodiy shaxs sifatlarini rivojlantirish. Ijodiy faoliyatning asosiy turlari tahlili shuni ko'rsatadiki, uni muntazam ravishda amalga oshirish orqali insonda o'zgaruvchan sharoitlarda o'zini yo'qotmaslik, muammoni aniq ko'rish va uning yangiligidan ko'rqmay, fikr yuritish, ixtirochilik, sezgirlik kabi sifatlar shakllanadi. Bunday sifatlar hozir ham talab katta, keyinchalik esa ehtiyoj bundan ham oshib boradi. SHu maqsadda zamonaviy o'quv jarayonida reproduktiv usul bilan bir qatorda produktiv va qidiruv-ijodiy usullarni ham qo'llash kerak.

Ta'limga produktiv va izlanuvchan yondashuv

O'zlashtirishning produktiv darajasi o'zlashtirilgan bilimlarning namunaviy masalalarini echish uchun mustaqil ravishda o'zgartirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu tayyor namuna yoki qoida emas, balki o'quvchi o'zi to'zgan algoritm bo'yicha bajarilgan harakat. Odatda, bu natijani oldindan ko'rishda faraz qilish mumkin bo'lgan aniq masala shartlariga moslashtirilgan ma'lum qoidalar birikuvidir. Bu o'quvchining o'zlashtirgan ma'lumotini amaliy sohada ma'lum masalalarni echish uchun qo'llay olishi va yangi sub'ektiv ma'lumotni olishi bilan tavsiflanadi.

Produktiv usul quyidagi afzalliklarga ega:

- mantiqiy fikr yuritishga, muammolarni ilmiy, ijodiy echishga o'rgatadi;
- zaruriy bilimlarni mustaqil ijodiy izlanishga o'rgatadi;
- uchragan qiyinchiliklarni bartaraf etishga o'rgatadi;
- o'quv materialini isbotliroq qiladi;
- o'quv materialini chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirishga yordam beradi;
- bilimlar ishonchga aylanishiga ko'maqlashadi;

- o'qishga nisbatan ijobiy hislarni hosil qiladi;
- bilimga qiziqishni shakllantiradi va rivojlantiradi;
- ijodiy shaxsni shakllantiradi.

Lekin produktiv usullarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun o'qituvchining pedagogik malakasi yuqoriroq bo'lishi lozim. Muammoviy mashg'ulotni o'tkazish uchun ham, uni tayyorlash uchun ham ko'proq pedagogik mehnat talab qilinadi.

Izlanuvchan yondashuvning maqsadi o'quvchilarda muammoni hal etish, yangi tajribani mustaqil o'zlashtirish, ta'sir etishning yangi yo'llarini yaratish qobiliyatlarini, shaxsiy idrokni rivojlantirishdan iboratdir.

Produktiv usullarga nisbatan reproduktiv usullarning ko'proq qo'llanishi ijodiy shaxsga bo'lgan talablarni pasaytiradi, shuningdek, o'quv masalalari o'quvchilarga kelajakni loyihalashga ko'maklashish o'miga o'tmishni o'rganishga undaydi.

Mutaxassis kundalik faoliyatida ko'p narsalarni kimdir erishgan darajada, ya'ni tayyor stereotiplar (andozalar) bo'yicha bajaradi. Lekin stereotiplardan (andozalardan) farqlanadigan holatlar mavjud bo'lib qolsa, u yangi echimlarni qabul qilib hayotga tatbiq etishga majbur.

Mutaxassisning mahorati xotirasi asosida ma'lum retseptlar bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan davrlarga qarab emas, balki ko'p uchramaydigan bo'lsada, yangi echimlarni izlagan paytlar bo'yicha aniqlanadi. Aynan mana shu kam uchraydigan hollar sodir bo'lgan muammolardan chiqib ketish uchun hodisalar va voqealar mohiyatini chuqur tushunish va nazariy bilimlar talab qilinadi.

Demak, mutaxassisning asosiy vazifasi - xotirasidan mavjud echimlarni izlab topa olish, bo'lar yo'qligida esa optimal qarorlarni qabul qilish va hayotga tatbiq etishdir.

Mutaxassis sifatini belgilaydigan asosiy masala - echimni topa olishdir va aynan shu faoliyat uning rivojlanishini ta'minlaydi.

Hozirgi ayrim tanqidchilar o'quvchilar zamonaviy ilmiy bilimning dinamik tavsifini aks ettirmaydigan tayyor va o'zgarmas shaklda oladigan ta'lim mazmuniga qarshi chiqmoqdalar.

Odatda, odam bilishni istagan, unga ehtiyoji bo'lgan narsalarni muvaffaqiyatli o'zlashtiradi va xotirada saqlab qoladi. Ma'lumot berish asosida tuzilgan o'quv jarayoni esa bu ehtiyojni ta'minlamaydi. Natijada tez yoddan chiqish, qiziqishni yo'qotish, mustaqil, ijodiy

faoliyat ko'rsatish uchun qobiliyatlarni etarli darajada rivojlantirmaslik kabi holatlar ro'y beradi, shuningdek, o'z faoliyatiga passiv munosabatni tarbiyalaydi.

O'quv jarayoniga texnologik yondashish yuqoridagi kamchiliklaridan holi bo'lib, o'quv maqsadlarining aniq belgilanishi, yakuniy natijalarini kafolatlanishi, o'quv jarayonining takrorlanuvchanligini ta'minlashi va tezkor qaytaruvchi aloqaning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Texnologik yondashuvda o'quvchi dars jarayonida faol qatnashadi.

Metod (usul)-yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "Metodos"- biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi.

Ta'lim berish usuli, ta'limiy maqsadni amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi. Usullar: ushbu ta'lim berish davridan chiqqanda ta'lim oluvchi bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo'lgan ko'zlanayotgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Usullarning tanlashni asosiy qoidasi → turlicha emas ta'lim berish maqsadiga mos kelishi

Usullarga qo'yiladigan asosiy talab → natija beradigan, faqat bittasini qo'llash.

Usulning asosiy natijaviyligining mezonlari → belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va tejamlorligi.

Ta'lim texnologiyasini loyihalashda usulni ongli tanlash, ularni har birining imkoniyatlarini ko'ra bilish kerak

→ Usulni qo'llashdan so'ng natijalar qaysi sohalarda: Bilimlar sohasidami? Ko'nikmalardami? Malakalardami? Yoki ko'rsatmada ko'p bo'ladi.

→ Keyingi savol ta'lim berishning bajariladigan ishlar tartibiga taalluqli: "O'quvchilarning faolligi (tashabbus) qanday bo'lishi kerak?"

Ta'lim usullarining natijaviyligini qaysi mezonlar aniqlaydi?

Yaxshi yoki yomon usullar mavjud emas. Usulning natijaviyligini bajarilgan yoki bajarilmagan vazifa bo'yicha xulosa chiqarish mumkin.

Qanday qilib, keng tarqalgan usullar, jumladan aqliy hujum yoki guruhli munozarani natijaviyligini o'quv mashg'ulotida echiladigan topshiriqlar bilan bog'liqsiz, yoki aniq amaliy vaziyatni tahlil qilish va echish (keys-stadi) usulini natijaviyligini, ushbu usul qo'llanilayotgan o'quv mashg'ulotining maqsad va vazifalaridan uzilishda oldindan baholash mumkin.

Tajribalarning ko'rsatishicha, usulning **asosiy natijaviylik mezonlari** quyidagilar:

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va iqtisodiyligi;
- uni qo'llashda soddalilik va osonlik;
- nafaqat eng yaxshi natijalarni ta'minlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchliligini ta'minlay olishi.

Faol ta'lim berish usuli - ta'lim oluvchilarning bilim faoliyatlarini rag'batlantiruvchi usuldur. U yoki boshqa muammoni yechish to'g'risidagi fikrlarni erkin almashinuvini nazarda tutuvchi suhbat asosida quriladi.

Eng ko'p tarqalgan va xususiyatga ega bo'lgan ta'lim usullari quyidagilar hisoblanadi: *suhbat, bahs, o'yin, keys-stadi, loyihalar usuli, muammoli usul, aqliy hujum* va boshqalar hisoblanadi.

Interfaol (Interactive) - suhbatli. **Interfaol ta'lim berish** - suhbatli ta'lim berish, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi va kompyuterning o'zaro harakati amalga oshiriladi.

Interfaollik ta'lim berish sohasida umuman yangi hodisa-bunga binoan ta'lim beruvchi:

- 1) o'qituvchi, boshqa o'quvchilar, ma'muriyat bilan faqat shaxsiy uchrashuv yo'li bilan emas, balki ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari bilan faol o'zaro harakat qilishi mumkin;
- 2) multimediali ob'ektlarni tahlil etish jarayonida ularning mazmuni, shakli, o'lchovi va rangini o'zgaruvchan boshqarish, ularni har tomondan ko'rib chiqish, shunga o'xshash boshqa harakatlarni bajarishni, eng ko'p ko'rgazmalilikka erishishda to'xtatish va xoxlagan joyida yana ishga tushirishi mumkin.

Interfaollik daraja qancha yuqori bo'lsa, ta'lim berish jarayoni shuncha natijali bo'ladi.

Pedagogikada ta'lim usullarini tasniflashga (tartiblashtirish, bir guruhga birlashtirish) turli yondashishlar yuzaga keldi. Ular tizimlashtirishni turli asoslarida tuzilgan.

Ta'lim usullarini ta'limiy maqsadlarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi (o'rgatish) va ta'lim oluvchini (o'rganish) hamkoriy faoliyatini yo'li sifatida ko'rsatish ular xususiyati va o'quv faoliyatini natijalari bo'yicha quyidagicha guruhlashtirish imkonini beradi:

1 - guruh: tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilimlarni 1 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

2 - guruh: esda qolganlarni tasvirlovchi o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 2 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

3 - guruh: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 3 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

4 - guruh: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4 - darajada bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar.

Muammoli ta'lim. Muammoli ta'lim XX asrning 20-yillarida Amerikalik olim J.Dyui va uning shogirdi V.X.Kilpatrik tomonidan taklif etilgan. Bu texnologiya ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyatlar qo'yilishi va o'quvchilarning ushbu muammoni hal etish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga asoslanadi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi quyidagi usullar vositasida muammoli vaziyatlar hosil qiladi:

- o'qituvchi o'quvchilarga ziddiyatni ko'rsatib, ularning uni hal etish yo'lini topishga undaydi;
- amaliy faoliyatdagi qarama-qarshiliklar bilan to'qnashtiradi;
- bir mavzu bo'yicha turli qarashlarni bayon etadi;
- sinfda o'quvchilarga hodisalarni turli nuqtai-nazardan qarab chiqishni taklif etadi (masalan, yurist, moliyachi, o'qituvchi ko'zi bilan qarash va h.k.);
- o'quvchilarni taqqoslashga, umumlashtirishga, vaziyatdan xulosa chiqarishga, dalillarini solishtirishga undaydi;

- o'quvchilar oldiga aniq savollar qo'yib, ularni umumlashtirishga, asoslashga, aniqlashtirishga, mantiqiy fikrlashga chaqiradi;

- muammoli nazariy va amaliy topshiriqlar beradi;

- muammoli masalalarni (masalan, etarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotli yoki savol noaniq qo'yilgan, bir-biriga zid berilgan yoki oldindan xatoga yo'l qo'yilgan yoki echilishga chekli vaqt qo'yilgan masalalar). Muammoli texnologiyani amaliyotda qo'llash uchun quyidagilar kerak:

1. Eng dolzarb muammolarni tanlash.
2. Turli o'quv ishlarida muammoli ta'lim xususiyatlarini aniqlash.
3. Muammoli ta'limning eng samarali tizimini yaratish.
4. O'qituvchining o'quvchilar taqiqot ishini tashkil etishdagi mahorati.
5. Muammolarni hal etishdan kutilayotgan natijalarning amaliy, nazariy, bilim olishga oid ahamiyati (masalan, tadqiqot natijalari asosida turli tashkilotlarga hisobot yozish, gazeta, jurnallarda chiqish qilish va h.k.).

Axborot texnologiyalari davrida muammolarni hal etish uchun sinf, maktabdagi o'quvchilarning hamkorligidan tashqari turli maktab, shahar va mamlakatlar o'quvchilarning hamkorligini amalga oshirish mumkin. Bunda muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy usuli – o'quv telekommunikatsion loyihalar usulidir. Endilikda muammolarni hal etish uchun o'quvchilarni mahalliy kutubxona va oddiy axborot vositalaridagi materiallardan foydalanishini o'rganiga, ularni internet tizimi orqali muammoni hal etishga dunyoning boshqa joylaridagi materiallarda foydalanishga o'rgatamiz.

Mashg'ulotlarni muammoli tariqa olib borish o'quvchilar faoliyatini oshiradi va ularni darsga ongli ishtirok etishga undaydi. Muammoli dars o'quvchi tomonidan muammoli vaziyat o'tkazish, laboratoriya ishlarini bajarish, masalalar echish orqali amalga oshiriladi va o'quvchilar ishtirokida muammo oydinlashtirib boshladi. Muhokama etiladigan muammo o'quvchilar bilimiga mos bo'lmog'i, unga erishish uchun o'quvchilarda qiziqish uyg'otmog'i lozim.

Muammoli darsni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

1. O'quvchi o'zi muammoni qo'yib, o'zi masala echishni ko'rsatib beradi.

2. O'qituvchi muammoli vaziyatni yuzaga keltirib o'quvchilar ishtirokida muammoni hal etadi.

3. Muammo faqat o'quvchilar tomonidan (laboratoriya ishlari, masala echish, kuzatish, tajriba orqali) echiladi.

4. O'quvchilarga muammoni qo'yishni va uni echishni taklif etish.

Muammo qo'yishga misollar keltiramiz:

1. Arximed qonuniga doir muammoni qo'yish. Nima uchun temir parchasini suvga tashlasak u cho'kadi? Ayni paytda temirdan yasalgan ulkan kemalar dengizda suzib yuradi? Ushbu muammoni hal etish uchun o'quvchi Arximed kuchi tabiatini tushuntirishdan boshlaydi. Jismlarning suvda suzish sharti, ya'ni Arximed kuchining og'irlik kuchidan katta bo'lishi orqali izohlanadi.

Muammoli o'qitish - bu takomillashgan o'qitish texnologiyasidir.

Hozirgi oliy maktabdagi samarali o'qitish texnologiyasi – bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'qitish jarayonida o'quvchining mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

Hozirgi pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli ta'rif va tavsiflari bor. Bizningcha, nisbatan to'liq va aniq ta'rif M.I.Maxmudov tomonidan berilgan bo'lib, unda muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalari va o'quvchilarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlari (muammoli vaziyat, bilishga bo'lgan qiziqish va talab...) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda ob'ektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil – muammolilikka tayanadi.

O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat, kutilmagan xayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'la bermasligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi mashaqqat talab qilgan ob'ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Shunday qilib, muammoli vaziyat mohiyati shuki, u o'quvchi tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- o'quvchiga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun o'quvchiga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatdan chiqq olish hamma vaqt muammoni, ya'ni nima noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va echimini anglash bilan bog'langan.

Muammoli vaziyatning fikriy tahlil qiladigan bo'lsak, u avvalombor o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U o'quvchini

intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o'rinda izchillik yorqin ko'rinadi: avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (o'quvchilar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo o'quvchiga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin o'quvchilar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki echilish yo'lini izlashga tushadi.

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

- yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning qo'yilishi;

• o'quvchilarda noma'lumni topish yo'lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasi bo'lishi.

O'quv muammosini echish jarayonida o'quvchilar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning echilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qo'yish hamda gipotezani asoslashdir.

O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari, ma'lum va noma'lumning o'zaro munosabati xarakteri bilimga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, muammoli o'qitishning zaruriy sharti o'quvchilarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi.

O'quvchilarning muammoli o'qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda o'quvchilar mashg'ulotda muammoni ifodalab berishdan iborat bo'ladi, ya'ni bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishi mohiyatini (ya'ni ushbu damda unga nima ma'lum bo'lsa) so'z bilan ifodalab beradi, so'ngra muammoning echilish usullarini qidiradi va bunda turli tahminlarni olg'a suradi, o'quvchilar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini

gipoteza sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi, izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so'ng tugallanadi.

Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: muammoli vaziyat – o'quv muammosi – o'quv muammosini echish uchun izlanish – muammoning echilishi.

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon o'quvchilarga tayyor haqiqatni (yechimni) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

Muammoli o'qitish bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, atrof-muhitga o'zining faol munosabatini belgilab olishda o'quvchilar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina o'quvchilar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarni shakllantirish, qo'lga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq etishga intiladi.

Ayrim hollarda o'qituvchi o'quvchilarda nafaqat qiziqish uyg'otishi kerak, balki o'quv muammosini o'zi hal qilib qo'ymasligi va boshqa hollarda o'quvchilarning o'quv muammosini echishdagi mustaqil ishlariga rahbarlik qilish lozim, natijada o'quvchilarda bilimlarga mustaqil erishish qobiliyati shakllanadi hamda gipoteza qo'yish va uni isbotlash orqali yangi aqliy harakat usullarini topadi, bilimlarni bir muammodan ikkinchisiga ko'chirish ko'nikmasini hosil qiladi, diqqat va tasavvurlari rivojlanadi. O'quvchilar muammoli o'qitish jarayonida muammoli vaziyatda o'quv materiallarini idrok qilish orqali bilim va aqliy harakat usullarini o'zlashtirar ekan, o'rganilganlarni mustaqil tahlil qilar ekan, gipotezalar qo'yish va ularni isbotlash orqali o'quv muammolarini shakllantirar va echar ekan, unda o'quvchilarning intellektual faolligi ta'minlanadi.

Shunday qilib, muammoli o'qitishning vazifasi o'quvchilar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatlari usullarini samarali o'zlashtirishga hamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda

olgan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini hosil qilish, bilish mustaqilligi o'quv va tarbiya muammolarini hal qilishdir.

O'quv jarayonining amaliy tahlili muammosi o'qitishning o'ziga xosligini belgilash imkoniyatini ochadi. Muammoli o'qitishning mohiyati ta'lim oluvchining o'zlashtirishi lozim bo'lgan axborotlarni o'qituvchi tomonidan maxsus tashkil qilishidan iboratdir.

Muammoli o'qitishni tashkil etishning birinchi sharti o'quv axborotlarining takomillashib borishi tizimidir.

Muammoli o'qitishning ikkinchi shartida muammoli o'qitish amalga oshiriladi va unda axborotning o'quv vazifasiga o'tkazilishi vaqtida uni echish usulini tanlash imkoniyati ko'zda tutiladi.

Muammoli o'qitishning uchinchi sharti ta'lim oluvchining sub'ektiv mavqei, ularning bilish maqsadlarini anglab etishi va qaror qabul qilishi, masalani hal qilish va natijani qo'lga kiritish uchun o'zlarining ixtiyorida bo'lgan vositalarni baholay bilishidir.

Muammoli o'qitishga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi unda qo'llanadigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda: ijodiy, qisman-ijodiy yoki evristik, axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish asosiy metodlar hisoblanadi.

Ijodiy metod ta'lim oluvchining ijodiy mustaqilligini to'la amalga oshiradi. Unda o'quvchi o'qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtda o'zlari ham o'quv muammosini shakllantiradi, o'zlari mustaqil gipotezani echishga harakat qiladilar, izlanishni amalga oshiradi va provard natijaga erishadilar. Shu tariqa ijodiy metodi qo'llash bilan o'quvchilar faoliyati olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi. O'qituvchi faqat o'quvchilarning ilmiy izlanishlariga umumiy rahbarlik qiladi, vazifalar esa ularning mustaqil o'quv-bilish xatti-harakatlarining to'la davriyligini ko'zda tutadi: yo tahlilgacha axborotlar yig'iladi yoki echilishiga qadar o'quv muammosi qo'yiladi hamda echimlar tekshirib ko'riladi va yangi bilimlar joriy qilinadi.

Ijodiy metoddan o'rganilayotgan kursning umumiy asoslarini qamrab olgan eng muhim mavzularni o'tishda foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa boshqa barcha materiallarning tobora ongli o'zlashtirilishiga olib kelishi lozim. Shuningdek, bunday metodda mashg'ulot o'tkazish uchun o'qituvchi tanlangan bo'lim yoki mavzu

o'quvchilarning idrok qilishlariga qulay bo'lishini nazarda tutishi lozim bo'ladi.

Ijodiy metod ta'lim oluvchidagi uzoq vaqtni va maxsus sharoit yaratilishini talab qiladi.

O'quvchilarning ijodiy ishlari shakliy jihatdan rang-barangdir. Ular ma'ruza matnini tayyorlash va amaliyga tayyorgarlik ko'rish, u yoki bu masalaning nazariy holatini (adabiyotlar bilan birma-bir ishlash, hujjatlarni arxivda o'rganish) o'rganish, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar tayyorlash va boshqalardir.

Qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo'laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo'llanadi va unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini echishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda o'quvchilar bunda o'quv mummosining qo'yilishida, gipotezani taxmin qilish va isbotlashda faol qatnashdilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy unsurlarini o'zida qamrab oladi. Bunda o'qitishning qidiruv (izlanish) suhbat, o'quvchilarning javoblari va to'ldirishlariga qo'shimcha qilgan holda o'qituvchining bayoni, faktlarni kuzatish va umumlashtirish usullari qo'llanadi. Bu hollarda o'quvchilarning reproduktiv va qidiruv (izlanish) faoliyatining muvofiqligiga muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o'quv muammosining mustaqil hal qilinishidan to' ulardan aksariyati echilgunga qadar kuchli o'zgarib turishi mumkin.

Mashg'ulotlarda ijodiy suhbatni qo'llash maqsadga muvofiq topiladi. O'quvchilar bunday suhbat jarayonida o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan bilimlari, ijodiy faoliyati tajribasiga asoslangan holda o'qituvchi rahbarligida muammoni izlaydi va mustaqil ravishda uning echimini topadi. O'quvchilar o'z tashabbuslari bilan savollarga javob beradilar yoki o'z chiqishlarida turli mulohazalarni bildiradilar, muammoning echilishidagi o'z variantlarini ilgari suradilar, hodisalar o'rtasidagi rang-barang aloqalarni qayd qiladilar, bahslashadilar, boshqalarning fikriga tanqidiy munosabat bildiradilar. Bu jarayonda o'qituvchining o'quvchilarga yordam berish darajasi ularning mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ijodiy suhbatga tayyorlashda o'qituvchining unga o'ta mas'uliyat bilan yondoshishi talab qilinadi. O'qituvchi bunday suhbatga oldindan jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim: avvaldan shunday savollar o'ylab topishi kerakki, ular o'quvchining u yoki bu hodisaning mohiyatini

o'ylashga majbur etsin, suhbat yo'nalishi va gipotezaning ehtimol ko'rilgan variantlari va uning echilish yo'llarini bashorat qila olsin. O'qituvchi o'quvchilarning umuman muammoni echish uchun etarli darajada tayyorgarlik ko'rib kelmasligini ham ko'zda tutishi va bunday vaqtda sodda va murakkablashtirib boruvchi qo'shimcha savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, bunday savollar orqali o'quvchilar ijodiy hal qilishi shart bo'lgan vazifalarni qismlarga ajratish ham zarur bo'ladi, ya'ni muammo kichik muammolarga bo'linadi va muammoli vazifa echiladi. O'qituvchi bunday vaziyatda vazminligini saqlashi, o'quvchilarga tezroq yordam berish, kamchiligini tuzatish va yanglish fikr bildirganlarga tanbeh berishga shoshilmasligi, balki qo'shimcha savollar bilan o'zlarining xatosini anglashga va to'g'ri qaror qabul qilishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy suhbat davomida kamroq tayyorgarlik ko'rgan, jonli fikr olishuvlarda, shuningdek, indamaslikni xush ko'radigan o'quvchilarga alohida ahamiyat berish lozim. Bunday o'quvchilarning xulqlarini ko'zda tutgan holda ulardan ham «nido chiqishi»ga erishish maqsadida ular uchun ham avvaldan savollar tayyorlab qo'yish ma'qul bo'ladi.

Ijodiy xarakterdagi suhbat o'quv-tadqiqot ishlarining zaruriy bosqichi hisoblanadi. Unda o'quvchilardan o'zida tadqiqot ishlari unsurlari mavjud bo'lgan qisman-ijodiy faoliyatning bajarilishini talab qiladigan muammoli xarakterdagi mantiqiy masalalar diqqatni jalb qiladi.

Materialni muammoli bayon qilish. Bunda ijod o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va tobora faollashtirib boriladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishda uning echilishini o'zi ta'minlaydi. Bunda o'qituvchi ziddiyatlarni ta'kidlaydi, uni barchaga eshittirib muhokama qiladi, o'z mulohazalarini bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida asoslaydi. O'qituvchi bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshira olsa, o'quvchilar uning fikrlari borishiga diqqat bilan qo'shilib boradi, muammolarning echilish oqimiga qo'shilib ketadi, birga fikr yuritadi, birga hayajonlanadi, shu tariqa mashg'ulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchining bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish yo'li bilan boshqaradi va shu orqali auditoriyadagi o'rganilayotgan materiallar bo'yicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi va o'quvchilarni o'ylab fikr yuritishga majbur

qiladi. O'qituvchi tushunilmagan savolni hal qilishidan oldinoq o'quvchilar o'zlaricha o'z javoblarini tayyorlab qo'yadilar va uni ma'lum muddat o'tgach o'qituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Materialni muammoli bayon qilish axborotni bayon qilishdan tubdan farq qiladi, chunki unda u yoki bu hodisaning belgilari, xossalari, tushunchalari, qoidalari shunchaki tasvirlab beriladi, tayyor xulosalar bayon qilinadi.

O'quv axborotlarining muammoli bayoni metodidan foydalanishning boshqa varianti fan taraqqiyoti tarixidagi u yoki bu qonunning olimlar tomonidan kashf etilishi yo'lini yoritib berish bo'lishi ham mumkin.

O'quv jarayonida keng tarqalgan metodlardan biri – shartli ravishda o'quv axborotlarining bayonini muammoli boshlash deb nomlanadigan metoddir. Materialni muammoli bayon qilish metodidan bu metod muammoli vaziyat faqat materialni bayon qilish boshidagina yaratilishi bilangina farqlanadi. Keyinchalik material axborot usulida bayon qilinadi. Albatta, bu metod yuqorida o'quvchining ijodiy izlanish faoliyati, ayniqsa, ijodiy metodida ko'ringan ko'nikmalarni hosil qilishga imkoniyat bermaydi, lekin o'quvchilarning mashg'ulot ibtidosida olgan ilxomlari barcha materialni faol idrok qilishga, unga yuqori qiziqish uyg'otishga bevosita turtki beradi. Yuqoridagi barcha metodlar orasida bu metod o'zining oddiyligi bilan ajralib turadi.

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi ehtimol ko'ringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: o'quv materialiga o'quvchilar diqqatini jalb qilish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, o'quvchilarning bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellektual zo'riqish mashaqqatlariga olib kelish, o'quvchilar tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va ko'nikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bo'lgan talablarini qondira olmasligini ko'rsata bilish, o'quvchilarga o'quv muammolarini tahlil qilishga, uning echilishidagi eng ratsional yo'llarni aniqlashda yordam berish kerak.

O'quv jarayonidagi muammoli vaziyatning bir necha tiplari farqlanadi:

1. O'quvchilar qo'yilgan vazifaning echilish usulini bilmaydilar, muammoli savolga javob berolmaydilar.

2. O'quvchilar avval olgan bilimlarini yangi sharoitda, holatda foydalanish zaruriyatiga duch keladilar.

3. Vazifaning nazariy jihatdan echilishi mumkin bo'lgan yo'li va tanlangan usulning amaliy jihatdan qo'llash qiyinligi orasida ziddiyat yuz beradi.

4. Vazifaning bajarilishida natijaga amaliy erishish va o'quvchilarda uni nazariy jihatdan asoslashga bilim etishmasligi o'rtasida ziddiyat yuz beradi.

Adabiyotlarda muammoli vaziyat yaratishning quyidagi ko'p uchraydigan usullari qayd qilinadi:

- hodisalar, o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini tushuntirish uchun muammoli vazifalar qo'yish;

- olingan bilimlarning amaliy tatbiqi usullarini topish uchun muammoli vazifa qo'yish;

- o'quvchilarni hodisalar va faktlar orasidagi ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni tushuntirib berishlariga undash;

- ilmiy tushunchalari va hayotiy tasavvurlari orasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradigan fakt va hodisalarni tahlil qilishga undash;

- o'quvchilarni fakt, hodisa, xatti-harakatlar, xulosalarni chog'ishtirish, qiyos qilishga undash;

- o'quvchilarni go'yo tushunib bo'lmaydigan xarakterdagi va fan tarixida ilmiy muammoning qo'yilishiga sabab bo'lgan faktlar bilan tanishtirish.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari uning boshqa variantlariga chek qo'ymaydi. Har bir o'qituvchi o'zining amaliy faoliyatida o'quv materiallari bilan ijodiy ishlash jarayonida uni tashkil qilishning turli imkoniyatlarini qidirishi va topishi mumkin.

O'quvchilarning fikrlari tobora qiyomiga eta borib, muammoli vaziyat ularda ma'lum hissiy hozirlikni vujudga keltiradi, mustaqil amalga oshirilgan bilish jarayonidan, kashfiyotlardan qoniqish hosil qiladi. Hayratga tushish, tushkunlik yoki shodlik hissiyotlari muammoli vaziyatni to'g'ri tashkil qilish belgilari bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, yuqori ko'tarinkilik bilimlarni samarali o'zlashtirish, haqiqatni qidirish va unga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Muammoning murakkabligi, o'quvchilarning bilim saviyasi va malakasi, ularning ijodiy faoliyati ko'nikmalari, didaktik maqsadga

yo'nalganligiga qarab muammoli o'qitishda o'quvchi va o'qituvchi o'zaro munosabatlarining turli variantlari bo'lishi mumkin, ya'ni muammolilikning turli sathlari amalda bo'lishi mumkin.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan muammolilikning uch xil darajasi haqida fikr yuritiladi:

Birinchi darajada o'qituvchi o'zi muammoni qo'yadi, uni shakllantiradi va o'quvchilarni mustaqil ravishda uning echilish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

Ikkinchi darajada o'qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, o'quvchilar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va echadilar.

Uchinchi daraja – oliy daraja bo'lib, unda o'qituvchi shunday qoidani ko'zda tutadi: muayyan muammoni ko'rsatib bermaydi, balki unga o'quvchilarni «ro'baro'» qiladi hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo'naltiradi, ularni boshqaradi va natijani baholaydi. O'quvchilar esa muammoni mustaqil anglaydilar, uni shakllantiradilar, uning echilish usullarini tadqiq qiladilar.

O'quv muammosining qo'yilish jarayonini osonlashtirish uchun muayyan tartibga rioya qilish lozim bo'ladi. Yechilish lozim bo'lgan hamda yangi tushunchalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan avvalgi o'zlashtirilgan bilimlar doirasini faollashtirmasdan turib, muammoni qo'yib bo'lmaydi. Muammoli vazifalarni tashkil qilishdan oldin o'quvchilarning sabab-oqibat aloqalarini o'rnata olish usullarini egallaganligiga ishonch hosil qilish, o'quvchilarning muammoli vaziyatni tahlil qila olish darajasini o'rganish shartdir. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilar e'tiboriga faqat ular uchun qulay bo'lgan muammolarni qo'ymasligi ham mumkindir. Shu bilan birgalikda muammoning echilishi uni to'g'ri qo'ya bilishga ko'p jihatdan bog'liq ekanligini unutmazlik zarur.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'qitish jarayoni faqat «muammoli» yoki «nomuammoli» metodlar yordamidagina amalga oshmaydi, balki uning samarali borishi uchun xilma xil metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi mashg'ulotning maqsadi, o'quv materiallarining mazmunini to'plash, auditoriyada qatnashgan o'quvchilarning xarakteri, ularning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ularni tinglash hamda birini ikkinchisi bilan bog'lashni amalga oshiradi. Shundagina o'quv jarayonining yuqori samaradorligi ta'minlanadi. Shuningdek, muammoli o'qitishning samaradorligi ko'p

jihatlardan o'quvchilarning ijodiy faoliyatga, muammoni ifodalash va echishga bo'lgan tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi. Ularni ijodiy faoliyatga jalb qilishda muammoli boshlash bayonidan asta-sekin tadqiqot ishlarigacha o'tish, muammoli o'qitishning barcha metodlari zanjirida asta-sekin oddiydan murakkabga o'tish tavsiya etiladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda o'quvchilarning ijodiy faoliyati reproduktiv, qayta ishlab chiqish metodlarini shakllantirmasdan avval amalda bo'la olmasligi ta'kidlanadi. Agar o'rganilayotgan kursning (bo'lim, mavzuning) mohiyatini, ulardan foydalanishning zarur metodik materiallari va qoidalarini o'quvchilar bilmasa va anglamasa, o'qituvchi ularning ijodiy faoliyatini tashkil eta olmaydi.

Demak, muammoli o'qitish etarli darajada samarali bo'lishi uchun u yaxlit o'quv-tarbiya jarayonining uzviy qismi bo'lishi kerak.

Muammoli leksiyalar o'tkazish jarayonida o'quvchilarda ijodiy faoliyatga zarur bo'lgan motivlar, qimmatli yo'l-yo'riqlar va yo'llanmalarning shakllanganligi muhim o'rin egallaydi.

Ta'kidlash joizki, o'quv faoliyati motivlarining doirasi juda ko'p motivlar yig'indisi bo'lsa-da, ulardan ikki guruhi belgilovchi hisoblanadi.

Birinchi guruhga maxsus motivlar taalluqli. Ular o'quvchilar tomonidan barcha hayotiy ehtiyojlarni chuqur anglash, mutaxassis bo'lib etishishi uchun bilimlarni egallashning ijtimoiy zarurligini tushunishni qamrab oladi. Bu guruh motivlarini o'qituvchi kursning amaliy xarakteri va kasbiy yo'nalganligini namoyish qilish orqali o'quvchilarning tushunchalarini amalda qo'llash orqali kuchaytirish mumkin.

Ikkinchi guruh motivlari o'quv fanlari va bilishga bo'lgan qiziqish bilan bog'langan. Bu guruh motivlari mohiyatini o'qituvchi o'quvchilardagi o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishni bilish to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish orqali kuchaytirish mumkin. Buning uchun leksiya jarayonida xatti-harakatlarning namunaviy usullari, tushunchalar tizimining mantiqiy usullari, aniqlanmalar, xislatlar va boshqa isbotlovchi qurilmalarining «tushunchalar asosida xulosalar» xatti-xarakatlari shakllanishining didaktik qimmatini belgilovchi o'quv materialiga urg'u beriladi.

O'quvchilarda yuqorida bayon qilingan malakalarni shakllantirish uchun leksiyani o'tkazish uchun shunday tayyorgarlik

ko'rish ko'zda tutilishi kerakki, ular tayyor bilimlarni chaqqonlik bilan harakat usullariga aylantira olsin. Bu didaktik maqsadga erishish uchun o'quvchilarning echimlarni qanday shakllantirishlariga, tushunchalar echimining qanday usullari borligiga, u yoki bu ifoda qaysi talablar asosida qoniqtirilayotganiga, dastlabki omil, argumentlar, xulosalarga diqqatni jalb qilish lozim.

O'qitishning bu metodini leksiya o'qishning axborot – tasviriy yondashuvdan qisman ijodiy va ijodiy metodga o'tish orqali amalga oshirish mumkin, ular o'quvchilarda leksiyaning turli bosqichlarida va sharoitlarida muayyan bilish mashaqqatlarini tug'diradiki, ular o'qitish jarayonida avval shakllangan bilim va ko'nikmalarni joriy etish hamda qayta ishlash asosida muvaffaqiyatli hal qilinadi.

O'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash tizimida o'qituvchining leksiya jarayonida ularga e'tibor qaratish, o'quv-bilish faoliyatiga mos ko'rsatmalarni bera olishi muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda leksiyada o'quv fani mazmunining umumiy-ta'limiy qimmatini isbotlash bilan birga uning shaxs intellekti, dunyoqarashi, bilimlarni tasniflash va qo'llash usullari, ulardan tejamlil foydalanish hamda to'g'ri baholay olish tarbiyasiga ta'sir etishni ham isbotlash lozim bo'ladi.

Shuningdek, bunday tajribasi (amaliyot), egallangan bilimlar, fikrlarni (hukmlarni) qurish usullarining haqiqiylikini tasdiqlashga qaratilganligi ta'kidlanishi lozim. O'quv mashg'ulotlarining bunday borishi o'quvchilarda ilmiy-nazariy tadqiqot va tajribasi o'tkazish malakasini shakllantiradi, bu bilan ular ilmiy ijod kengligiga, ishchanlik mulqotiga chiqadi, tadqiqotning bosqichlarini rejalashtiradi, uning maqsad va vazifalarini ifodalaydi, metodika ishlab chiqadi.

Muammoli o'qitishning talablar darajasidagi sifatini ta'minlash, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida amaliylar o'tkazish mumkin.

Ma'lumki, bunday amaliy o'tkazishning dastlabki maqsadi ma'ruza yoki axborotni jamoa bo'lib muhokama qilishdir. Amaliyning samaradorligi albatta o'quvchilarni unga tayyorlash sifatiga bog'lik. Ayniqsa, ma'ruza va axborot tayyorlayotgan o'quvchilar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni amaliyga tayyorlash bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Birinci bosqichda o'qituvchi o'quvchining amaliy mavzusini aniqlab beradi. Mavzuni tanlash va bo'lg'usi ma'ruza yoki axborotni tayyorlashda ularga nisbatan shunchaki o'qituvchi, o'quvchi deb qaramaslik kerak, balki ularni Amaliyda muhokama qilinadigan mavzuning ahamiyatini, dolzarbligini fikrlashga, o'quv fanini keyinchalik muvaffaqiyatli egallash uchun uni chuqur o'rganishi lozimligini anglashga, bo'lg'usi kasbiy faoliyatining hozirgi ijtimoiy, ilmiy muammolarini rejalashtira olish darajasiga olib kelish zarur. Bunda vaqtni tejash, tashkiliy ishlarni etishni jadallashtirish uchun o'quvchilarga mavzu bo'yicha adabiyotlarni, imkoni boricha, mavzulari, paragriflari va sahifalarini ko'rsatgan holda tavsiya etish lozim. O'quvchilarni ma'ruza va axborotlarga tayyorlashning birinci bosqichida uning mavzusi bo'yicha referatning batafsil rejasini tuzish vazifasi yuklanadi.

Ikkinchi bosqichda o'quvchilarni ma'ruza qilishga tayyorlashda o'qituvchi u bilan birga referat rejasini muhokama qiladi, uning ayrim o'rinlarini tuzatadi. Bu o'z navbatida dastlabki fikrlarni tezlikda tuzatish, aniqlik kiritish, to'ldirish imkonini beradi va u provard natijada bo'lg'usi ma'ruzaning sifatini oshiradi.

Uchinchi bosqichda o'qituvchi o'quvchi tayyorlab kelgan referatning mazmuni bilan tanishadi. Zaruriyat tug'ilganda, unga savollar qo'yish, o'quvchi esa bu suhbatdan so'ng tegishli tuzatishlar qilish lozim bo'ladi. Shuningdek, shunday savollarni ham berish kerakki, o'quvchi bu savollarga o'z chiqishida javob bersin. Ayni o'rinda o'quvchining amaliyda ma'ruza qilish uslubi ham muhokama qilingani ma'kul.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, faqat ma'ruza bilan qatnashadigan o'quvchilar bilan ishlab, boshqa o'quvchilar nazardan chetda qolmasin, balki guruhdagi barcha o'quvchilar oldindan muhokama qilinadigan mavzular bilan tanish bo'lishi, amaliy mavzusi bilan aloqador leksiya va qo'shimcha materiallar mazmuni ustida ishlagan bo'lishi, mavzuga muvofiq ravishda olinayotgan bilimlarni nazorat qilishga va mavzuni muhokama qilishga tayyor bo'lishlari lozim. Bunday amaliy mashg'uloti odatda muhokama qilinadigan mavzuning mohiyati va dolzarbligini leksiya materialini bilan bog'lashni eslatish bilan boshlanadi. Shundan so'ng o'quvchilar o'rganilayotgan

masalani muhokama qilishga faollashtiriladi, bilimlarini namoyish qila olishi aniqlanadi. Bu ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: yo qisqacha javoblar talab qiluvchi va oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar bo'yicha suhbat shaklida yoki tuzatish (korreksiya) test savollari asosida nazorat qilish orqali. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu har ikkala bilimlarni yuzaga chiqarish usuli tezkor usul bo'lib, amaliyning ushbu bosqichini o'tkazishning muhim samarali sharti hisoblanadi. O'quvchilar bilimlarini yuzaga chiqarish jarayonida ularning egallagan bilimi keyingi Amaliylarda va muhokamalarda qatnashishlari uchun etarli ekanligi aniqlanadi. O'quvchilarda muhokamadan so'ng ham bilimlar etarli bo'lmasa, o'qituvchining bayoni orqali yoki o'quvchi bilan individual suhbat shaklida tushuntiriladi. Ulardan qay biri samara bersa, shunidan foydalanilgani ma'qul, keyingi variant nisbatan samarali bo'lishi mumkin.

Bilimlar yuzaga chiqarilgan va ayrim tuzatishlar qilingandan so'ng o'quvchilarning ma'ruza va axborotlar bilan chiqishlari tashkil etiladi. O'qituvchi o'quvchining materialni mantiqiy bayon qila olishini, uni bayon qilish usulini, o'quvchilarning unga bo'lgan e'tiborini kuzatib boradi. Ma'ruzaning mazmunini bayon qilish yoki muhokamaning borish jarayoni o'quvchilarni zeriktirib qo'yganda yoki, aksincha, undagi ayrim masalalarga qiziqish kuchli bo'lganda hamda uni muhokama qilish zaruriyati tug'ilganda, hurmatini saqlagan holda ma'ruzachini biroz to'xtatib, Amaliyni jamoa muxokamasiga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruzani guruh bo'lib muhokama qilish pedagogik aspektda Amaliyning eng ahamiyatli qismi hisoblanadi, binobarin, Amaliyda o'quvchilar jonli bilish faoliyatiga jalb qilinadilar. O'qituvchi avvalo ma'ruza va axborot mazmunini muhokama qilishga o'tar ekan, bu mazmun qanchalik o'quvchilar darajasida ekanligini baholay olishi lozim. Ma'ruza mazmunining tushunilishi ma'ruzachiga shu Amaliy qatnashchilarining bergan savollari va o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savollarga (o'qituvchi odatda ularning o'zlari savol bermagan taqdirda yoki ularning savollari mavzu mazmunining bir tomonigagina aloqador bo'lganda o'quvchilarga savol bilan murojaat qiladi) javob berishlari chog'ida baholanadi.

Ma'ruza mazmuni bo'yicha beriladigan savollarni ikki guruhga ajratish mumkin: mazmunni oydinlashtiradigan savollar va mazmunni

rivojlantirishga qaratilgan savollar. Mazmunni oydinlashtiradigan savollarga javoblar ma'ruza bayonidagi ayrim o'rinlarni takrorlashni talab qiladi, mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollar esa ma'ruzani yanada to'ldirishni talab qiladi. O'qituvchi avvalo birinchi guruh savollarni tashkil etadi, undan so'ng ikkinchi guruh savollarga jamoa bo'lib javob qidiradi. Mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollarni muhokama qilish ko'pincha o'quvchilarda turli, muqobil javoblarni ham yuzaga keltiradi. Bunday javoblarning bo'lishi xilma-xil nuktai nazarlarning to'qnashuviga sabab bo'ladi va u amaliyning munozaraga aylanishiga olib keladi. Amaliyni munozara shaklida tashkil etish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanadi. Munozara shaklida amaliy o'tkazish o'quvchining fikrlash va muloqot qobiliyatlarining shakllanishi uchun tezkor omil sifatida katta ahamiyatga molikdir.

Amaliydagi munozara quyidagilarni ko'zda tutadi:

- Amaliy jarayonida qo'yilgan savollarga javob berishda o'quvchilarning erkin fikr bildirish va asoslay olishlarini ta'minlash;
- taalluqli javoblarning boshqa o'quvchilar tomonidan tushunilishini ham ta'minlash;
- nuqtai nazarlarga tanqidiy mulohazalar bildirishni tashkil etish, ularni oydinlashtirish, to'ldirish, o'zgartirish;
- oydinlashtirilgan, to'ldirilgan, o'zgartirilgan fikrlarning tushunilishini ta'minlash;
- qo'yilgan savollarga yakdil isbotlar asosida javoblar berishga ko'nikma hosil qilish.

Munozarani shu jarayonda qo'yilgan savollarga berilgan javoblardan iborat xulosalarni shakllantirish va shunday muammolarni belgilash orqali yakunlash kerakki, ular keyingi amaliylar yoki o'quvchilarning mustaqil ishlarida hal qilinadigan bo'lsin.

Har bir ma'ruza muhokamasi uning asosiy qoidalari va muhokama (munozara) natijalarini qayd qilgan holda qisqacha umumlashtirish bilan yakunlanishi lozim. Amaliy mavzusining mazmunini xulosalash, ma'ruzachilar va amaliy qatnashchilarining tayyorgarlik darajasini, ularning amaliy davomidagi faolligini baholash, amaliy samaradorligining umumiy bahosi va keyingi amaliy mashg'ulotiga maqsad qo'yish bilan tugallanadi.

Shunday qilib, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliylar quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Amaliy mavzusining dolzarbligini asoslovchi o'qituvchining kirish suhbatini.

2. Amaliy mavzusi mazmunini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni yuzaga chiqarish.

3. Tayyorlangan ma'ruzasi bo'yicha o'quvchilarning chiqishlarini tashkil etish va ularning ko'targan masalalarini amaliy qatnashchilarining tushunib olishlarini ta'minlash.

4. Amaliyga qo'yilgan o'quvchilar ma'ruzalarining muhokamasini tashkil etish.

5. Amaliyning yakunlash.

O'quvchilarning o'z faoliyatlarini tashkil etishni shakllantirish va rivojlantirishga esa bilimlarni egallash, maqsad va vazifalarni qo'yish malakasini hosil qilish, o'z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni ko'zda tutgan amaliylar katta yordam beradi, bunday malakalarni shakllantirish, odatda, o'quv ishlari mazmunini tashkil etuvchi materiallar, leksiya, ilmiy va o'quv-metodik adabiyotlarni konspekt qilish, ma'ruza va referatlarni yozish, o'quv va ilmiy axborotlar mazmunini tushunish va eslab qolish asosida amalga oshiriladi.

Bu tipdagi amaliyga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi o'quvchilar mutolaa qiladigan materiallar asosida bajariladigan ishlarning tamoyillarini, o'ziga xosligini, metodikasini o'rganadi, ishlarning bajarilish muvaffaqiyatlari (natijalari)ni baholash me'yorlarini to'raligicha yoki ayrim qismlari bo'yicha belgilab chiqadi va provard natijada talablar darajasiga etkazadi.

O'z faoliyatlarini tashkil etish malakalarini shakllantirishda o'quvchilar quyidagi izchillikdagi bloklar harakatlarini bajarishi lozim bo'ladi:

- berilgan o'quv materiallari asosida muayyan o'quv ishlari turlarini bajarish, konspektlashtirish, referat yozish;
- bajarilgan ishlar natijalarini namunaga qiyos qilish va faoliyat natijalarini muvaffaqiyat me'yorlariga ko'ra baholash;
- bu turdagi ishlarni samarali bajarish metodikasi bilan tanishish;
- tanlangan metodikaga mosligini aniqlash orqali bajarilgan ishlardan foydalanish usullarini tahlil qilish va baholash;
- o'z faoliyatiga baho bergan holda ishlarni samarali bajarish metodikasini oydinlashtirish va yangi material asosida ishning bajarilish rejasini tuzish;

• belgilangan reja asosida ishlarni bajarish, yuz beradigan qiyinchiliklarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va uning oldini olish usullarini qidirib topish (o'qituvchining yordamida);

• faoliyatning muvaffaqiyat me'yorlari asosida bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish va baholash;

• o'z ishlarni takomillashtirish bo'yicha vazifa qo'yish.

Amaliyning bu turiga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilar o'qituvchining topshirig'iga ko'ra o'quv ishlarni u qadar katta bo'lmagan konkret material tarzidagi muayyan turini (masalan, konspektlashtirish) mustaqil bajaradilar va uning natijasini Amaliy sifatida tavsiya etadilar.

O'qituvchi amaliyning boshlar ekan, o'quvchilarni uning maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi va ular tomonidan bajarilgan vazifalarni tekshiradi. So'ng o'qituvchi o'quvchilarga oldindan tayyorlab qo'ygan vazifalarni bajarish namunalarini ko'rsatadi va o'quvchilar bajarilgan ish natijalari bilan qiyoslashni tashkil etadi. O'quvchilar o'z ishlarni namunaga qiyoslash orqali bevosita ular orasidagi farqlarning mavjudligiga ishonch hosil qiladi va o'z malakalarini takomillashtirish zarurligini anglab oladilar. Bajarilgan ishlar natijalarini baholashga aniqlik kiritish maqsadida o'quvchilarning namunaga javob berish me'yorlarini anglashiga erishish lozim. O'quvchilar bajarilgan ish natijalari belgilangan me'yorlar tizimiga mosligiga qarab baholanishga ishonch hosil qilishlari kerak. O'quvchilar tavsiya etilgan me'yorlardan foydalangan holda o'qituvchi rahbarligida avvalgiga nisbatan yana ham jiddiyroq ravishda bajarilgan ish natijalarini baholaydilar. Shu tariqa o'quvchilarda o'z faoliyati natijalarini nazorat qilish va baholay olish malakasi poydevori yaratiladi. Bunda o'quvchilarga o'z o'quv (faqat o'quv bo'lmasligi ham mumkin) ishlarining natijalarini yalpi va qismma-qism me'yorlar tizimiga mos ravishda nazorat qilish mumkin va lozim ekanligini tushunishlari ta'minlanishi kerak. Bu o'z navbatida o'tkazilgan ishlar natijalarining qay darajada namunaga mos yoki mos emasligini va o'z faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilab olish imkoniyatini beradi.

O'qituvchi o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishlarni baholab bo'lgach, ularni muayyan ishlarni samarali bajarish metodikasi bilan tanishtiradi. Bu metodikaning har biri kutilgan natijalarni olish nuktai nazardan zarur bo'lgan, asoslangan xatti-harakatlar izchilligini

tavsiflashni taqozo qiladi. Shu metodika tarkibiga kirgan har bir xatti-harakatning bajarilish sifatini baholashga asos bo'ladigan me'yorlari beriladi.

Ishni bajarish metodikasi bilimlariga ega bo'lgan o'quvchilar o'qituvchining topshirig'iga binoan ularning izchilligini, avval amalga oshirilgan xatti-harakatlarini tahlil qiladilar va uning ishlab chiqilgan metodikaga muvofiqligini aniqlaydilar. Natijada har bir o'quvchi o'z faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida zarur bo'lgan xatti-harakatlarni belgilab oladilar.

Shundan so'ng o'quvchilarga amaliy avvalgidagi, lekin boshqa mazmundagi o'quv ishlari topshirig'i beriladi. O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, o'qituvchi bajarilgan bir necha ishlar namunasidan olingan natijalarni guruhda muhokama qilishni tashkil etadi. Muhokamada amaliy avvalida taklif etilgan baholar me'yoridan foydalaniladi. Har bir o'quvchi ishidagi kuchli va kuchsiz o'rinlarni qayd qilgan hamda shu me'yorlarni qo'llagan holda o'zi qo'lga kiritgan natijalarni baholaydi.

Amaliy mashg'uloti unga yakun yasash bilan tugaydi. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishlar natijasini baholabu ishda muvaffaqiyatli qatnashganlarni alohida ta'kidlab o'tadi, shuningdek, ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yganlarni ham qayd qiladi va ishlash usullarini kelgusida takomillashtirish, ya'ni keyingi mashg'ulotlarda qanday vazifalar qo'yilishini belgilab beradi.

Umuman, amaliyda o'quvchilarning o'z faoliyatlarini tashkil etish malakalarini jonlantirish quyidagi bosqichlarni ko'zda tutadi:

1. Amaliyning maqsad va vazifalarini shakllantirish;
2. O'quvchilarning dastlab bajargan ishlari natijalarini o'zlari baholashlari va tahlil qilishlarini tashkil etish;
3. Ishni bajarish metodikasi bilan tanishtirish;
4. O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki ishlarning bajarilish usullari tahlilini tashkil etish;
5. Yangi mazmundagi ishning rejasini tuzishni tashkil etish;
6. Belgilangan reja asosida ishning bajarilishini tashkil etish;
7. Bajarilgan ish natijalarini tahlil qilish va baholashni tashkil etish;
8. Mashg'ulotga yakun yasash.

Ta'kidlash joizki, ko'rib chiqilgan amaliy tiplari o'quvchilarni muammoli o'qitishga tayyorlash uchun zarur bo'lgan va bir qancha

pedagogik vazifalarni bajarishga qaratilgan mashg'ulotlar tizimini bildiradi. Bunday o'qitish bevosita muammoli tipdagi amaliylarda amalga oshirilishi mumkin.

Amaliy mashg'ulotining mavzusi zudlik bilan hal qilinishi mumkin bo'lmagan muammo shaklida berilishi mumkin. Fikrlash usullarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi quyidagi masalalarni qamrab olgan va jiddiy o'ylangan sseniysini ishlab chiqadi:

- o'quvchilarning muammoni echishda qatnashishi uchun etarli bo'lgan bilimlarini yuzaga chiqarish qobiliyatini hamda bilimlarni yuzaga chiqarish uchun zarur bo'lgan vazifalarni tavsiflash;
- o'quvchilardagi bilimlarni yuzaga chiqarish asosida muammoga va muammoni ifodalashga kirishishi;
- muammoni to'g'ri hal qilishning so'nggi xulosasi (qarori) - natijasini shakllantirish;
- masalani to'laligicha echishni ta'minlaydigan muammoni shakllantirish;
- muammo tarkibidagi muammolarga javoblardan iborat oraliq xulosalarni shakllantirish;
- muammo takibidagi muammolarning echilishida to'g'ri javoblarni ta'minlovchi muammo savollarini shakllantirish.

Muammoli savollar tizimini ishlab chiqishda o'quvchilarni o'ylashga majbur qilish hamda ularning javoblari ehtimoli nazarda tutiladi. Shu bilan bog'liq ravishda mashg'ulot sseniysi mashg'ulotning biror (ehtimol ko'rilgan) variantini aks ettirishi lozim bo'ladi, uning realligi esa o'qituvchining o'quvchilardagi boshlang'ich fikrlash qobiliyati darajasi haqidagi qay darajada bilimga ega bo'lishiga bog'liq. Shu bilan birga, hatto yaxshi ishlab chiqilgan ssenariy bo'lsa-da, amaliyning borishida avval o'ylangan rejadani chetga chiqishlar bo'ladi, chunki o'quvchilarning individual xislatlari, bilimlarining darajasi va kengligi har xil bo'ladi, shu tufayli o'qituvchi amaliyni samarali o'tkazishi uchun temaga muvofiq material mazmunini o'zi yuksak darajada egallagan bo'lishi shart.

Amaliy mashg'ulotining avvalida o'qituvchi tayyorlab kelgan savollari yoki vazifalaridan foydalangan holda o'quvchilarda amaliyda qatnashish uchun etarli bo'lgan bilimlarni yuzaga chiqaradi.

Bilimlarni yuzaga chiqarish bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliylardagi usullar asosida amalga oshiriladi.

So'ng yuzaga chiqarilgan bilimlar asosida o'qituvchi mashg'ulotda hal qilinadigan muammoni o'quvchilarga bildiradi va uni ifodalab beradi.

Avval boshdanoq qo'yilgan muammoning o'quvchilar tomonidan qabul qilinishini ta'minlash uchun muammoni qo'yishda uni echish uchun urinib ko'rishni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu bilan o'qituvchi kutilayotgan echimni o'quvchilar bilan tahlil qiladi, ularda ko'ringan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Muammoni echishdagi dastlabki urinish natijasida o'quvchilar uni engilgina echish mumkin emasligini aniqlaydilar. Bunda muammoli vaziyat o'quvchilar uchun muammoni echish usullarining keyingi izlanishini avj oldirish zarurligining ichki ruxiy asoslanishi bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi muammoni echish usullarini izlashni tashkil etishga o'tar ekan, avvalo birinchi muammoni ifoda qiladi, so'ng muammoli savollarni qo'yadi va javoblarni muhokama qilib, o'quvchilarning bu muammoni echish usulini izlashga, ya'ni birinchi oraliq xulosani qidirishga undaydi. So'ngra shu tahlitda yaxlitligicha muammoni echish va xotima xulosalarni ifodalash bilan tugallanishi lozim bo'lgan keyingi muammolarning echilish usulini izlashni tashkil etadi.

O'qituvchi muammoni qo'yishda uning mazmunini oydinlashtiruvchi muammoli savollarni berishdan oldin muammoni to'laligicha echishga urinish tashkil etilganidek, o'quvchilarning muammo qismlarini echishga urinishlarini tashkil etishi mumkin. Bu urinish muammoni echishda ikkinchi mashaqqatni vujudga keltiradi, uning o'quvchilar tomonidan anglab etilishi muammoning echilish usulini qidirishda faol ishtirok etishining qo'shimcha motivi bo'lishiga olib keladi.

Amaliy mashg'ulotining eng muhim bosqichi uning o'zagi bo'lgan muammoli savolga javob qidirishni tashkil etish hisoblanadi.

O'qituvchi muammoli savol qo'yib, unga javob olishi bilan oq to'g'ri va noto'g'ri javoblarni baholamasligi, balki o'quvchilardan savollarga har tomonlama keng javob talab qilishi kerak. Agar o'quvchi kutilgan muayyan javobni tayinli asoslay olmasa, bu javobga xayrixox bo'lgan boshqa o'quvchilarni ham aniqlab, ularga birgalikda shu javobni asoslashni taklif etadi. Agar o'quvchilar u yoki bu savolga turli javoblar taklif etsalar, o'qituvchi o'quvchilarning javoblarni qiyoslashga qaratilgan fikrlashga urintirishi lozim bo'ladi. Bunday fikrlash ishi murakkab bo'lib, u barcha bildirilgan nuqtai nazarlarni

tushunish, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, to'g'ri javobni qidirish maqsadida tanqidlarni hisobga olgan holda turli karashlarni o'zaro nisbatlashni ko'zda tutadi.

Shunday qilib, muammoli savolga javob topishni qidirishni tashkil etish o'zida muntazam qo'yilgan qadamlar modulini birlashtirdi. Ular quyidagilar:

- muammoli savolni qo'yish;
- qo'yilgan savollarga javob topish va asoslash bo'yicha o'quvchilarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;
- javoblarning tanqidiy tahlilini tashkil etish, ularning kuchli va kuchsiz jihatlarini aniklash;
- kelishilgan mavqei (pozitsiya)ni ishlab chiqish – eng to'g'ri javobni konstruksiyalash maqsadida javoblarni o'zaro qiyos qilishni tashkil etish;
- keyingi muammoli savolni qo'yishga o'tish.

O'qituvchi tashkil etgan bunday mujassamlangan harakatlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning tafakkurlarida rivojlanish yuz beradi.

O'quvchilarga muammoli savollar qo'yishda muammoli savollarning uzluksizligini, ularning bajargan ijodiy ish natijalari bilan aloqasini ta'minlash zarur.

Umuman, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga bag'ishlangan quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv muammosini echish bo'yicha ijodiy faoliyatda faol ishtirok etish uchun zarur bo'lgan bilimlarni yuzaga chiqarish;
2. Muammoga kirishish va uni ifodalash;
3. O'quvchilarning avval egallangan bilimlari negizida muammoni echishga urinishni tashkil etish;
4. Muammoni echish bo'yicha o'quvchilarning keng ijodiy faoliyatini tashkil etish (muammoni va muammoli savolni qo'yish, muammoli savolga javob topishni tashkil etish, oraliq va yakuniy xulosalarni ifodalash);
5. Mashg'ulotga yakun yasash.

Muammoli o'qitish sharoitidagi o'quv jarayonining mustahkam asosi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga muntazam tayyorlash, shaxsiy fazilat sifatida ulardagi baholanadigan mustaqillikni shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Bu o'qitishdagi mustaqil ishning alohida muhim ahamiyati, uni o'quv yurti pedagogik tizimi markaziga

qo'yilishining qonuniyligi, uning o'z tizimi bo'lishi zaruriyatini tashkil etish demakdir. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, bu masala hanuzgacha amaliyotda to'la hal qilingan emas.

Amaliy mashg'ulotlar bir necha bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda bilimlar nazorat qilinadiki, ularning mavjudligi mashg'ulotlarda ishlab chiqiladigan vazifalarning echilish metodikasini tushunishga yordam beradi. O'qituvchi bilimlar o'zlashtirilishining nazoratini o'tkazib bo'lgach, o'quvchilarni muayyan toifadagi vazifalarni echish metodikasi bilan tanishtiradi. Bu jarayonda o'qituvchi metodika tarkibiga kiradigan barcha harakatlarni o'quvchilarga tushuntirishi lozim. O'rganilgan metodikaga muvofiq ravishda barcha harakatlarni amaliy egallashni tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilarga individual topshiriqlar beradi. Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni o'z vaqtida engish maqsadida o'qituvchi o'quvchilarga yo'l-yo'riqlar beradi. Bunda o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchining o'z topshirig'ini ongli ravishda bajarishini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Topshiriqni bajarish yakunlangach, o'qituvchi uning borishini va o'quvchilar ishlari natijalarini tahlil qiladi, guruh bilan birgalikda tipik qiyinchiliklarni muhokama qiladi, ularni engish usullarini ko'rsatib beradi, shakllangan malakalarni kelgusida takomillashtirish bo'yicha vazifalar qo'yadi.

SHunday qilib, algoritmik tipdagi amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish quyidagi bosqichlarni ko'zda tutadi:

1. Muayyan toifadagi vazifalarni echish metodikasini tushunib olishga yordam beradigan bilimlar o'zlashtirilishini nazorat qilish;
2. O'zlashtirilish ob'ekti bo'lgan vazifalarning echilish metodikasi bilan tanishish;
3. Konkret vazifa materiallari asosida o'rganilgan metodikaga muvofiq ravishda o'quvchilarning individual faoliyatni tashkil etish;
4. Tipik qiyinchiliklar va ularni engish yo'llarini guruh bo'lib muhokama qilishni tashkil etishning o'quvchilar tomonidan bajarilishining borishi va natijalarini tahlil qilish, kelgusida egallanishi mumkin bo'lgan malakalarni takomillashtirish bo'yicha vazifa qo'yish.

Muammoli tipdagi amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Muayyan toifadagi vazifalarning echilish metodikasini ishlab chikish uchun zarur bo'lgan bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilish;

2. Yechilish metodikasini ishlab chiqishni ko'zda tutgan yangi vazifalarni qo'yish;

3. Qo'yilgan vazifaning echilish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan o'quvchilarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;

4. O'quvchilar ishlarining natijalarini tahlil qilish, metodikani ishlab chiqish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni guruh bo'lib muhokama qilish, uning sabablari va uni engish usullarini aniqlash.

Amaliy vazifa va muammolarni echishdagi o'quvchilarning umumiy faoliyatini tashkil etishning samarali shakli tadbirkorlik o'yinlaridir. Ma'lumki, tadbirkorlik o'yinlari o'quvchilarning kollektiv faoliyatini tashkil etishni bildiradiki, bu jarayonda uning bo'lg'usi kasbiy faoliyatining ashyoviy va ijtimoiy mazmuni yaratiladi.

Tadbirkorlik o'yinlarining pedagogik samaradorligi natijasi ko'p jihatlardan o'yinning ssenariysini ishlab chiqish uning tayyorlanish sifati bilan belgilanadi. Tadbirkorlik o'yinlari o'quvchini amaliy tayyorlashning pedagogik vazifalari tizimini echishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bularga birinchi navbatda: real kasbiy faoliyat sharoitida qo'llanadigan amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish; amaliy vaziyatlar va shunga mos harakat usullarini ishlab chiqishni tahlil qiladigan fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish; guruh (jamo) faoliyatida faol ishtirok etishini ta'minlaydigan qobiliyatlarni shakllantirish taalluqlidir.

O'yinning mazmuni va tuzilmasi shunday shakllanishi va shunday tuzilishi kerakki, shunga mos malaka va qobiliyatlar har bir ishtirokchida butun o'yin davomida shakllansin. O'yinning pedagogik vazifalari ssenariyda aniq aks etishi shart.

O'quv vaziyatini modellashtirish bo'yicha tadbirkorlik o'yinlarini tayyorlashda murakkab amaliy vazifalarni (muammolarni) echishga qaratilgan kasbiy faoliyat mazmuni tanlanadi. Bunda mos vazifalarni tahlil qilib chiqish, uni echishda ishtirok etadigan rahbarlar va ijrochilarni, ularning vazifalari, o'zaro munosabatlari tartibi, vazifani samarali echishning ibtidosi, bosqichlari va me'yorlari, unga kerak bo'ladigan texnik vositalar, me'yoriy, ehtiyoj (spravochnik), metodik va boshqa manbalarni aniqlash zarur.

O'quv jarayonini takomillashtirish metodlari muammoli o'qitish jarayonida samaradorligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ulardan o'quvchi ijodiy shaxsni – bo'lg'usi mutaxassisni shakllantirish nuqtai nazardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday o'qitishda o'quvchilarning bilish mustaqilligini shakllantirish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega, chunki u o'quvchilarda bilimga bo'lgan barqaror qiziqishning shakllanganligini, tashabbus va mustaqil faoliyatning muntazamligini, muayyan aqliy harakatlar va aqliy sifatlar tizimini ko'zda tutadi.

Demak, muammoli o'qitish bu o'qitishning pedagogik texnologiyasi bo'lib, o'zining mazmuni va tuzilmasi bo'yicha o'qituvchi va o'quvchining ijodiy jarayonlarini sintezlaydi.

Muammoli o'qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o'quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko'chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Ijodiy o'quv faoliyati muammoli o'qitishning asosiy qoidasini saqlagan holda – ma'lum darajada harakatlarga erkinlik berish va bu harakatlarni bilish jarayonining butun tuzilmasi tizimida tartibga tushirish bilan boshqariladi.

Muammoli o'qitishdan foydalangan holdagina o'quvchilarda o'quv muammolari va kasbiy vazifalarini echishda ilmiy tekshirish jihatdan yondashuvni tarbiyalash, mustaqil bilish malakasi va metodlarini shakllantirish mumkin. Muammoli o'qitishni qo'llash, bilishni tushunishni shakllantirishga yordam beradi, pedagogik ijod va kasbiy mahoratni rivojlantirishga psixologik va kasbiy tayyorligini shakllantiradi.

Muammoli o'qitish o'quv axborotlarining maxsus tuzilmasini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Muammoli leksiya texnologiyasi savollar, gipotezalar tizimi, uning echimi, nazorat va tuzatuvlarni amalga oshirish tizimi orqali mazmunni muntazam ochib borishni ko'zda tutadi.

Muammoli vaziyatni yaratish uchun o'quvchilarga ikki nazariy qoida taklif etiladi: bu xalq ta'limini bashorat qilish va xalq ta'limi maqsadi. Ularga bu muammolardan birini tanlash yoki muammoli vaziyat aniqlab berishi lozim bo'lgan o'zlarining yangi nazariy qoidani tuzish taklif etiladi.

Keyingi bosqichda tanlangan vazifani muhokama qilish tashkil etiladi, uning hal qilinish jarayoni kuzatiladi, axborotlar tahlil qilinadi, tanlangan echimning to'g'riligi tekshirib ko'riladi. Undan so'ng yangi nazariy nuqtai nazarni tuzishga o'tiladi.

Muammoli ma'ruza o'quvchilarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishini taqozo qiladi. U ilmiy tafakkur uslubini rivojlantiradi. Muammoli vazifalar o'zida operatsion-protsessual tarkiblarni birlashtiradi. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o'rganilayotgan ilmiy muammolarni nazariy jihatdan fikrlashga diqqatni jalb qiladi. Muammoli ma'ruza davomida o'quvchilarda mavjud bo'lgan bilimlardan foydalaniladi, ularni yangi axborotlar bilan bog'liq ravishda yangilanishini amalga oshiradi.

Shunday qilib, muammoli o'qitish o'quv jarayonini tashkil etishning shunday shakliki, unda o'qituvchi boshchiligida muammoli vaziyat va bu vaziyatning echilishidagi o'quvchilarning samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi.

Muammoli o'qitishni tashkil etish natijasida o'quvchilarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. An'anaviy ta'lim deganda qanday ta'lim turlarini tushunasiz?
2. Noan'anaviy ta'lim turlariga nimalar kiradi?
3. Faol ta'lim va interfaol ta'limning bir biridan farqi nimada?
4. Muammoli ta'lim deganda qanday ta'lim tushuniladi?
5. Muammoli vaziyat deganda qanday vaziyatni tushunasiz?
6. Muammoli o'qitishda qanday ta'lim shakllaridan foydalanish mumkin?

Adabiyotlar

1. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
3. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011. – 275 b.
4. www.tdpu.uz.

4-MAVZU. O'QUVCHI FAOLLIGINI JADALLASHTIRISH ASOSIDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Reja

1. O'quvchi faolligini jadallashtirish maqsad va vazifalari.
2. O'yinli texnologiyalar.
3. Ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish.

O'quvchi faolligini jadallashtirish maqsad va vazifalari

O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida o'quvchi va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo'ladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- pedagogik jarayonda shaxsga yo'naltirilganlik asosidagi pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);
- o'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.SHatalov texnologiyasi);
- o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning o'qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);
- o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Granitskaya, V.D.SHadrikov texnologiyasi);
- o'qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bepalko).

Pedagogik jarayonda shaxsga yo'naltirilganlik asosidagi pedagogik texnologiya negizida insonparvarlik falsafasi, psixologiyasi va pedagogikasi yotadi.

Bu texnologiya shaxsga tayanadi. U o'zini namoyon qilishga, yangi tajribalarni idrok qilishga maqsad sari intilgan, ongli, mas'uliyatli shaxsdir.

Pedagogik jarayonda shaxsga yo'naltirilganlik asosidagi pedagogik texnologiya xar tomonlama rivojlangan shaxs-fuqaroning shakllanishi, ijodiy qobiliyatini namoyon qilish, ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bevosita bog'langan intellektual rivojlanishga qaratilgan.

Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga choraladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov,

L.N.Tolstoy, J.J. Russo, YA.Korchak, K.Rodgers, E.Bern, S.T.SHatskiy, V.A.Suxomlinskiy va boshqalardir.

Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;
- dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;
- tarbiya konsepsiyasi;
- atrof-muhitni ta'lim-tariyaga moslash;

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi. SHalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. U o'zining tajribasial maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika o'qitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdi.

Sh.A. Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug'dirmoq;
- bolaning qalbi va yuragini ulug'lamoq;
- boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;
- keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug'dirmoq;
- ideal tarbiya – bu o'z-o'zini tarbiyalamoq.

Sh.A. Amonashvili o'zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

- insonparvarlik;
- shaxsiy yondashuv;
- muloqot mahorati;
- oila pedagogikasining qo'shimcha imkoniyati;
- o'quv faoliyati.

O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi

Bu texnologiyani Viktor Fedorovich Shatalov ishlab chiqdi va hayotga joriy qildi. U o'qitishning an'anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko'rsatib berdi.

V.F. Shatalovning maqsad-mo'ljali:

- bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- har qanday individual xususiyatlarga ega bo'lgan barcha bolalarni o'qitish;

- o'qitishni tezlashtirish.

Tamoyillar:

- ko'p marta takrorlash, majburiy bosqichma-bosqich nazorat, qiyinchilikning yuqori darajasi, katta bloklarda o'rganish, faoliyatning dinamik qolipi, xatti-harakatning tayanchi, mo'ljaldagi asosini qo'llash;

- shaxsni ko'zda tutish asosida yondashuv;
- insonparvarlik;
- zo'rlab o'qitmaslik;
- o'quv vaziyatlarining konfliktsizligi, har bir o'quvchining muvaffaqiyatlaridan boxabarlik, tuzatish (yo'lga solish), o'sish, yutuqlarga istiqbolni ochish;

- o'qitish va tarbiyani bog'lash.

V.F. SHatalov metodining o'ziga xosligi:

- materiallar katta hajmda kiritiladi;
- materiallar bloklar bo'yicha joylashtiriladi;
- o'quv materiali tayanch sxema – konspekt ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

V.F.Shatalov tayanch (tayanish) deganda bola harakatlarining taxminiy asosini, ichki fikrlash faoliyatining tashqi tashkil qilinish usulini tushunadi.

Tayanch signal o'zaro uzviy bog'lovchi ramzlar (ishora, so'z, sxema, rasm va h.o) bo'lib, qandaydir ma'noli mohiyatni almashtiradi.

Tayanch konspekt - o'quv materiallari o'zaro bog'langan usullarining butun qismlari sifatida faktlar, tushunchalar, g'oyalar tizimi o'rnida qo'llana oladigan ko'rgazmali konstruksiyalardan iborat qisqacha shartli konspekt ko'rinishidagi tayanch signallar sistemasidir.

V.F.Shatalovning xizmatlari shundaki, u mashg'ulotlarda etarli darajada va barchaning faolligini ta'minlovchi o'quv faoliyati tizimini ishlab chiqdi. V.F.SHatalovning o'quv jarayoni texnologik sxemasi tablitsada ko'rsatilgan.

V.F.Shatalov metodikasi 4 bosqichdan iborat bo'lib, ular bir qancha usul va metodik echimlarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariyani sinfda o'rganish: taxtada oddiy tushuntirish (bo'r, ko'rgazmali qurol, O'TV bilan); bo'yalgan plakat – tayanch konspekt bo'yicha qayta tushuntirish; plakat bo'yicha qisqacha bayon qilish; o'quvchilarning o'z konspektlari ustida individual ishlashlari, konspekt bloklari bo'yicha keng mustahkamlash.

2. Uydagi mustaqil ishlar: tayanch konspekt+darslik+ota-onalar yordami. O'quvchilarga uqtirish: konspektidan foydalangan holda o'qituvchining tushuntirganlarini esla, berilgan materialni kitobdan o'qi; o'qiganlarini konspekt bilan qiyosla; konspekt yordamida darslik materiallarini so'zlab ber (kodlashtirish-dekodlashtirish); konspektni so'zlab berish uchun tayanch sifatida yodda saqla; konspektni qayta ishlab chiqqish va namunaga qiyosla.

3. Birinchi takrorlash - konspektni o'zlashtirishni har tomonlama keng nazorat qilish: barcha o'quvchilar konspektni xotirasida qayta ishlab chiqadilar, o'qituvchi ularni peshma-pesh tekshirib boradi; bir vaqtning o'zida «asta» va magnitafon orqali so'rab boradi; yozma ishdan so'ng og'zaki so'rash boshlanadi.

4. Tayanch konspektni og'zaki so'zlab olish - o'zlashtirishdagi tashqi nutq (og'zaki) faoliyatining eng muhim bosqichi, u turli savol-javoblar jarayonida yuz beradi.

5. Ikkinchi takrorlash-umumlashtirish va bir tizimga keltirish (tartibga tushirish): o'zaro nazorat darslari; oldindan sinov savollari ro'yxatini nashr qilish; tayyorlash; barcha turdagi nazoratlardan foydalanish (taxtada, astagina, yozma va b.); o'zaro so'rash va o'zaro yordam; o'yinli unsurlar (jamoalar bellashuvi, rebusni topishi va b.).

Nazorat, baholash. V.F. Shatalov o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich nazorat qilishning bosh muammosini hal qildi. Doimiy tashqi nazoratni o'zini-o'zi nazorat qilish va o'z-o'zini baholash bilan bog'lash, har birini bosqichma-bosqich nazorat qilish, kuchi etadigan darajada talab qilish, doimo tuzatishning imkoniyati mavjudligi, natijalar oshkorligi, ikki bahoning yo'qligi, past bahodan qo'rqishning yo'qligi.

Nazorat shakllari: tayanch konspekt bo'yicha yozma ish, mustaqil ishlar, baland ovozda so'rash, magnitafonda, juftlikda o'zaro nazorat, guruhdagi o'zaro nazorat, uy nazorati, o'z-o'zini baholash.

O'quvchi tomonidan olingan har bir baho bilimlarni maxsus ochilgan ko'zguga qo'yib boriladi. U go'yo o'quvchiga xizmat qiladigan ro'yxat vazifasini bajaradi, baholar esa ijobiy shifrlangan tavsifnoma ahamiyatiga ega bo'ladi. Bunday tavsifnomani e'lon qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tavsifnomaning eng muhim tomoni shundaki, o'quvchi xohlagan vaqtida har qanday bahoni nisbatan yuqori bahoga o'zgartirishi mumkin. Ochiq imkoniyat tamoyilining mohiyati ham shunda. Har bir baho, - deb ta'kidlaydi

V.F. Shatalov, avvalambor o'quvchida ijobiy e'tiborni qo'zg'atadigan vosita, turtki bo'lib xizmat qilishi lozim. Ikki baho salbiy hislarga sabab bo'ladi, o'qituvchi va fan bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi. SHatalov bunday konfliktli vaziyatlarni bartaraf qiladi.

Metodik usullar (pedagogik mikrounsurlar) tirkamasiga: uchirma takrorlash, releli (almashma) nazorat ishlar, desant metodi, zanjir metodi, vazifalar ichida «cho'milmoq», kitobdagi xatolarni topmoq, varaqchalarda misol-masala echish, tanlov asosida misol-masala echish, 4 qo'lda echish, tajriba darslari, «miyaga» niqtash, quyidan yuqoriga qarab echish, aytib berganni rag'batlantirish, ochiq fikrlar darsi, oltinchi ball, ijodiy konspekt, tezaytish, keskinlikni yumshatish usullari (musiqa, yorug'lik, tanaffus va b.) va b.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulq shaklidir.

L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida tariflaydi.

A.N. Leontev o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilar, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;

- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xoxishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar badihaga (improvizatsiyaga) boy, faol xarakterga – «ijod maydoni»ga ega bo'ladi.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) – ijro sohasi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llanadi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal echimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar «o'yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi.

Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi.

Pedagogik o'yinlar asosida o'quvchilarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K. Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi:

- didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;

- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilingan.

Oliy maktab amaliyotida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi.

Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan.

Tadbirkorlik o'yinlarini mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N. Leontev, P.Ya. Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o'yinlari bilish va o'qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarida gurkirab rivojlandi. Tadbirkorlik o'yinlariga taqlidiy (imitatsion) o'yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo'ldi. Taqlidiy o'yinlarga o'z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o'yinlar asos bo'lgan.

A.A. Verbitskiy tadbirkorlik o'yinlariga o'qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o'yinlarida mashq qilish faoliyati va bo'lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun'iy va tabiiy tizim sifatida o'zaro nisbatlanadi. SHu tufayli tadbirkorlik o'yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya'ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitatsiya) va aloqa yordamida beriladi.

A.A. Verbitskiy oliy o'quv yurtining vazifasini bunday o'qitishda, ya'ni o'quvchini bir etakchi faoliyat tipi (uquv)dan boshqa (kasbiy) tipga faoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo'naltirilgan (o'zlashtirilgan) holda o'tkazishni ta'minlash deb biladi.

Tadbirkorlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materiali mazmunining izchilligi;

- o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;

- o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;

- o'yinning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligi yi g'indisi;

- o'yinni olib boruvchi o'qituvchining o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan o'quvchilarning o'z xatti- harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o'tishini ta'minlashi.

A.S. va G.F. Arbenevlar tadqiqotlarida tadbirkorlik o'yini mutaxassisning evristik tafakkurini rivojlantirishning samarali metodlaridan biri sifatida baholanadi.

A.Tyukov fikricha, har qanday o'yin qay tarzda loyihalashtirilishidan qat'i nazar ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- kasbiy doira imitatsiyasi yaxlitligi. O'yin imitatsiyasiga taalluqli bo'lgan tuzilma va jarayonlar asosiy voqelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo'lishi lozim;

- mustaqil tashkil etishga yo'nalganligi;

- o'qitishning muammoliligi;

- metodologik, psixologik va texnik jihatdan ta'minlanganligi.

Tashkiliy o'yin aslida tobora takomillashib boruvchi o'qitishni ta'minlashi kerak. SHu maqsadda unda faoliyat rivojlanishining to'liq davriyligi imitatsiyasi amalga oshiriladi, ya'ni qandaydir vaziyat echimiga bo'lgan yondashuvdan topilgan echimning umumlashtirilgan bahosi o'tiladi.

A.A. Tyukov o'yin davriyligining quyidagi bosqichlarni qayd qiladi:

- vaziyatni va muammolashtirishni tahlil qilish asnosida o'yining asosiy syujet mavzusi bo'yicha o'yin ishtirokchisining sermahsul mustaqil ijodiy ishi.

- amaliy guruhlarining ish natijalarini umumiy tanqidiy muhokama qilish;

- o'yin jarayoni va ishtirokchilar xatti-harakatlarini reflektiv tahlil qilish;

- echimni tashkil etish bosqichi.

YA.S. Ginzburg va N.M. Koryak o'yinning quyidagi sotsial-psixologik xususiyatlarini farqlaydi:

- guruh xarakteri;

- yaratuvchilik, shartlilik;

- ramziylik, utilitar bo'lmaslik xarakteri;

- belgisizlik (mavhumlik), tarqaluvchanlik xususiyati

Tadbirkorlik o'yinini tayyorlashning sotsial-psixologik muammolariga quyidagilar kiradi:

- ishtirokchilarni tanlash;

- rollarni taqsimlash;

- o'yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;

- ijtimoiy psixologiya bo'yicha umumnazariy bilimlarni egallash;

- nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish;

- shaxsiy tayyorgarlik.

1. Olloyorov tadbirkorlik o'yinlariga o'quv ishlarini tashkil etishning bir shakli sifatida qaraydi. U o'yinlar o'quv jarayonida o'z o'rniga ega va o'quv jarayonining asosiy vazifalari, mohiyati va tuzilmasi hamda o'rganilayotgan fanning didaktik tabiatiga bog'liq bo'lgan aniq belgilangan didaktik funksiyalarni bajarishini ta'kidlaydi.

Tadbirkorlik o'yinlarining didaktik funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilarda aqliy faoliyat usullarining shakllanishi;

- bilimlarni mustahkamlash va qo'llash;

- o'quv jarayonida bo'lg'usi mutaxassisning faoliyati faqat o'rganish emas, balki uni bajarishga qaratilgan didaktik qoidalar ishlab chiqishdan iborat bo'lishi;

- o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatining bo'lg'usi kasbiy faoliyati xarakteri va tuzilmasiga maksimal darajada yaqinlashib berishi.

Tadbirkorlik o'yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1. O'quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig'i shaklida qo'yish:

- bo'lg'usi tadbirkorlik o'yinining maqsadini aniqlab olish;

- muammoli vaziyatni anglab etish;

- o'quvchilarga navbatdagi tadbirkorlik o'yini haqida dastlabki ma'lumotlar berish;

2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan avval egallangan bilimlardan foydalanish:

- o'quvchilarning o'qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;

• bajarilishi lozim bo'lgan ish to'g'risida o'quvchilarga yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish;

• olingan bilim, o'zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va ishlash metodlarini umumlashtirish;

• o'z-o'zini nazorat qilish;

3. Tadbirkorlik o'yinlari shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

4. Navbatdagi ishni rejalashtirish:

• ularga avval ma'lum bo'lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash;

• avval egallangan bilimlar asosida tushuntirish ishini olib borish va o'z ijodi uchun zarur bo'lgan yangi metodlarni qidirish;

• rejalashtirishni mustaqil nazorat qilish.

5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallarni) o'rganish va tahlil qilish bo'yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o'yinlaridagi o'z mavqeini aniqlash.

6. O'zlaridagi bor bilim, malaka va ko'nikmalar asosida reja bo'yicha ishlarni bajarish:

• yangi bilim va malakalarni hosil qilish;

• o'z xatti-harakatlari va ularning natijalarini muntazam nazorat qilish.

• qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish;

• belgilangan rejalarni (reja oldi ishlari va rejadani tashqari) takomillashtirish;

• yakuniy natijalarni tekshirib ko'rish va tahlil qilish.

7. O'quvchilar faoliyatini, ularning bilimi, malakasi, ko'nikmalarini nazorat qilish va joriy yo'l-yo'riqlar berish.

8. O'quvchilarning tadbirkorlik o'yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko'rish.

9. O'quvchilarga tadbirkorlik o'yinlarini o'tkazish va unda qatnashish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish, ularni rol o'ynash bo'yicha taqsim qilish, zarurat tug'ilganda har biriga qo'shimcha yo'l-yo'riqlar berish.

10. Oldindan ishlab chiqilgan ssenariy bo'yicha o'quvchilarning tadbirkorlik o'yinlari.

11. O'yin ishtirokchilariga joriy yo'l-yo'riqlar berish.

12. O'yin ishtirokchilarining o'yin davomida o'zi o'ynagan rollariga baho berishi, o'z-o'zini nazorat qilishi.

13. Tadbirkorlik o'yini natijalarini muhokama qilish va o'quvchining o'quv-o'yin faoliyatiga baho berish.

Shunday qilib, tadbirkorlik o'yinlari materiallarni yangi bilimlarni egallash, o'tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni echishda foydalaniladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. O'quvchi faoliyatini faollashtirish deganda nimani tushunasiz?

2. O'qitishni jadallashtirish texnologiyalariga qanday ta'lim texnologiyalar kiradi?

3. O'quvchi faoliyatini jadallashtirish texnologiyalariga kim asos solgan?

4. Sh. Amanashvili va V.F. Shatalov texnologiyalarining bir biridan farqi nimada?

5. O'yinli texnologiyalar deganda qanday ta'lim texnologiyalarini tushunasiz?

6. Ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan qanday o'yinli texnologiyalari turlari mavjud?

7. Ishchanli o'yin texnologiyasidan rolli o'yin texnologiyasining farqi nimada?

Adabiyotlar

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011. – 275 b.

2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.

3. Anorqulova G.M. Parpiyev O.T. Kasb-hunar ta'limida o'yinli texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. 2007. - 48

4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiriy asoslari – T.: 2006. – 260 b.

5. Ro'zieva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

6. www.tdpu.uz.

5-MAVZU: TA'LIMNING SHAXSGA VA FANGA YO'NALTIRILGAN TEXNOLOGIYALARI

REJA

1. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarning mohiyati.
2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari.
3. Fanga yo'naltirilgan texnologiyalarning

Globalashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga etkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr ta'lim oluvchilar, shu jumladan o'quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Endi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning nima uchun bugungi kunda dolzarb bo'lib borayotganligi, nima uchun mazkur texnologiyalar ta'limning hozirgi kuni, kelajagi bo'lib qolganligi hamda ularning mohiyati haqida qisqacha to'xtalamiz.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim

Bu ta'lim o'qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim hamda tarbiya jarayonini to'laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat

Bu turdagi ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy


fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Pedagog ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilardan iborat:

- har bir talabani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
 - talabani hurmat qilishi;
 - talabaning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
 - talabaning xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
 - har bir talabaga nisbatan tolerant munosabatda bo'lishi;
 - talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
 - har bir talaba o'quv fanlari asoslarini etarlicha o'zlashtira olishi uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi;
 - talabalarining mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
 - talabalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
 - ta'lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o'tkazmaligi;
 - alohida talabaning kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmasligi;
 - bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik;
- ta'lim
- jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
 - aniqlangan sabablar asosida talabaning sha'ni, g'ururiga ziyon
 - etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira

- olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- ta'lim jarayonida har bir talaba uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish;
- har bir talabaga ta'lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;
- talabning qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;
- talabning shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi;
- pedagog sifatida har bir talabning hurmati va ishonchini qozona olishi zarur

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabani ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turdagi ta'lim talabalarni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Talabalar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yonashishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali echimni topish ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayni vaqtda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning quyidagi turlari farqlanmoqda (2.-rasm):




2-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy

O'z-o'zidan ko'rinadiki, an'anaviy o'qitish texnologiyasi o'z tabiatiga ko'ra ta'lim muassasalari oldiga jamiyatimiz tomonidan qo'yilgan talablarga butunlay javob bermaydi.

Bundan farqli o'laroq shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda o'quvchi ta'limning milliy modeli mohiyatiga ko'ra pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchiga nisbatan munosabat ko'rsatilgan rasmning o'ng tomonida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari keltirilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu erda ko'rsatilgan o'qitish texnologiyalaridan, jumladan ishbilarmon (amaliy pedagogik) o'yinlari, muammoli ta'lim, dasturlashtirilgan ta'lim va boshqalardan ilgari ham ta'lim jarayoniga qo'llaganmiz. Ammo, ta'limning milliy modelida shaxsga asosiy, hal qiluvchi o'rin berilgandan so'ng bu texnologiyalarning har birini shaxsning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish bo'yicha ahamiyati yanada oshdi. Ayni paytda hozirgi kunda axborotning hajmi, xilma-xilligi, uni egallashga moyilligi va vositalarining etariligi, samarali individual va mustaqil o'qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilganligi munosabati bilan pedagogning o'quvchiga bo'lgan munosabati jihatidan uning «Sardor»likdan, uning sherigiga, hamkoriga aylanmoqda.



3-rasm. O'qitish texnologiyalari blok sxemasi

Zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon – o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Fanga yonaltirilgan texnologiyalar. Fan bo'yicha faoliyatli yondoshuvi ta'limning fanlar tizimida modul metodikasini qo'llashni nazarda tutadi. Bunday o'qitish texnologiyasini oliy ta'lim tizimida, akademik litseylarda va kasbiy ta'limda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Fan bo'yicha faoliyatli yondoshuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- o'quv fanining fundamental tushunchalari - muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi.
- o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgan.

Odatda modul 3-6 soatli ma'ruzaviy mashg'ulotlar va shu bilan bog'liq bo'lgan amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi.

Fanning tushunturuv apparati qat'iy tizimli (ko'p qirrali) tahlil asosida, eng samarali modul tuziladi. Bu esa fundamental iboralar guruhini ajratish, materialni mantiqan va kompakt shtrixlash imkonini beradi. Modul-mustaqil tarkibiy birlik bo'lgani uchun, ba'zi hollarda, alohida talabalarga fanni to'laligicha emas, balki fakatgina bir kator modullarni tinglash imkonini beradi. Bu esa iqtidorli talabalarning individual va mustaqil ishlarini optimal rejalash imkoniyatini tug'diradi.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali, o'qitishni tabaqalash mumkin. Ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi.

- o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
 - o'qitishni individuallashtirish;
 - o'quv materialini mustaqil egallash uchun shart-sharoit yaratish;
 - o'qitishni jadallashtirish; fanni samarali o'zlashtirishga erishish.
- Shunday qilib, modulli o'qitishda talabalarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zarur shart-sharoitlar yaratiladi. O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:
- o'quv muassasini moddiy-texnik bazasini darajasi;
 - o'qituvchilarning malakaviy tayyorgarligi;
 - talabalarning tayyorgarlik darajasi;
 - ko'zlangan natijalarni baholash;
 - didaktik materiallarni ishlab chiqish;
 - olingan natijalarni tahlili va modullarni optimallashtirish.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:
- ishchi o'quv rejani chuqur tahlili asosida o'zaro chambarchas bog'liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya'ni butun o'quv rejasi alohida makromodullar to'plami sifatida qaraladi.

Ko'pehlik hollarda quyidagi uchta turdagi mikromodullar tuzilishi mumkin:

- a) gumanitar fanlarni o'z ichiga oladigan;
- b) iqtisodiy fanlarni o'z ichiga oladigan;
- c) umumta'lim, umumpolitexnik, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'z ichiga oladigan fanlar.

Har qaysi makromodulning mutaxassisni shakllantirishda o'z maqsadi va vazifalari bo'ladi.

Ma'lum makromodulning o'rganish maqsadi, unga kiradigan fanlarning o'qish maqsadiga ham o'tadi.

Har qaysi makromodulning o'rganish mazmuni va hajmi esa standartlarda aks ettirilgan.

Har bir fan o'rganila boshlanganda uni o'rganish maqsadi talabalarga etkazilishi lozim.

Har qanday makromodulda o'rganiladigan fanlarning ketma-ketligi va uni o'rganilish muddatlari aniq o'rnatiladi. Ya'ni, o'qitishning uzluksizligini ta'minlash lozim.

O'quv soatlari hajmi katta bo'lmagan (xaftada 1-2 ayrim hollarda 3 soatli auditoriya mashg'ulotlari) fanlar, blok fanlar ro'yxatiga kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi va ular semestrning birinchi yoki ikkinchi yarmida o'tilishi aniqlanadi.

Makromodullar vertikal yaqin o'zaro bog'liqliklarni hisobga olgan holda tuziladi, ammo ularni o'rganilish muddatlarini o'rnatishda makromodullar orasidagi gorizontaal bog'liqliklar hisobga olinishi lozim.

O'quv materialini takrorlanishini oldini olish maqsadida makromodulga kiruvchi fanlarning o'quv dasturlarini o'zaro bog'liqligini ta'minlash kerak. Fanning ishchi, o'quv dasturlari alohida mavzularini modulda guruhlashi hisobidan kqaytadan ko'rib chiqiladi. Har qaysi modul uchun nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan maqsadlar tuzilishi zarur.

Modul o'z ichiga 2-3 ma'ruza va shu ma'ruzalar bilan bog'liq amaliy darslar va laboratoriya ishlarini qamrab olishi mumkin. Har qaysi modul uchun quyidagi materiallar tayyorlanadi: talabalarni bilimni nazorat qilish uchun testlar; individual ishlar uchun topshiriqlar; mustaqil ishlar uchun topshiriqlar; o'quv uslubiy tarqatma materiallar; o'quv -ilmiy adabiyotlar ro'yxati; ishchi – o'quv dastur.

Har bir modul test sinovlari bilan tugallanishi lozim: Joriy modul uchun bu o'tilgan materialni nazorati bo'lsa, keyingi modul uchun esa bu kirish

(boshlang'ich) nazorati bo'ladi. Har qaysi modul uchun tarqatma va ta'sirli materiallar to'plami tuziladi va ular talabaga mashg'ulotdan oldin beriladi.

Modul, tavsiya qilinadigan ko'rgazma materiallar va adabiyotlar to'plami bilan ta'minlanadi, har bir talaba materiallarni o'zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o'tadi. Iqtidorli talabalar boshqalarga bog'liq bo'lmasdan test sinovlardan o'tishlari mumkin.

Pedagogning vazifasi axborotni nazoratchidan boshlab, maslahatchi muvofiqlashtiruvchigacha o'zgarishi mumkin. Oxirgisi, ya'ni pedagogning maslahatchi – muvofiqlashtiruvchi vazifasi, o'qitish-o'rganuvchi modullar asosida amalga oshirilganda, namoyon bo'ladi.

O'rgatuvchi modul:

- o'qitishning muayyan modul birligi bo'yicha mazmuni, talabaning o'quv harakatlarini boshqarish tizimi, muayyan mazmun bo'yicha bilimlar nazorati tizimi va uslubiy ishlanmalar mazmunidan iboratdir.

O'rgatuvchi modullarni ishlab chiqish juda murakkab jarayondir, u ko'p vaqt sarfini va ko'p sonli uslubiy tajribalarni umumlashtirishni talab etadi. Ammo ularni amaliyotda qo'llash, o'qitishni yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Modulli o'qitish, fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan axborotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qitilishini taqoza etadi. Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Modulning amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuziladi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldiradi. Talabalar amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ma'ruzalar matnini tayyorlashda, strukturalash va tizimlash usullarini qo'llab, materiallarni blok sxema, rasmlar bloki ko'rinishida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda materialni o'zlashtirishni samaradorligi oshadi, chunki:

- modulning pirovard maqsadi tushunib etiladi.
- o'quv materialining elementlari orasidagi bog'lanishlar va o'tishlar yaqqol ko'rsatiladi;
- asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi;
- o'quv materialining (modulning) butun hajmi talabaning ko'z oldida yaqqol gavdalanadi.

Modul, tizimida o'quv materialining mazmunini strukturalashda eng avvalo axborotni siqish vazifasi ko'zlanadi. Bilimlarni to'la, foydalanish uchun qulay holda taqdim etilishiga harakat qilish lozim. O'quv informatsiyasi bir vaqtning o'zida 4 xil - rasmi, sonli, simvulli va og'zaki ko'rinishda uzatilganda eng mustahkam o'zlashtirishga erishiladi.

Modulli ta'lim uslubiyoti bu holat asos bo'lib xizmat qiladi. Har qaysi modul bo'yicha rasmlar bloklarida simvulli alomatlarni (savollar qo'yilishi tarzida) joylashtirish, savollarni rasm tarzida tasvir etish, formulalar, jadvallar, grafiklar va uslubiy ko'rsatmalarni taqdim etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Rasmlar bloki, sxemalar bloki va boshqa sur'atli (kurgazmali) materiallar talabalar usun tarqatma material vazifasini ham bajaradilar. Shu bilan bir qatorda har bir fan, jumladan modul uchun atamalarning izohli lug'ati tuzilishi maqul bo'ladi. Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash lozim:- miyalar hujumi, muammoli dialoglarda evristik suhbatlar, o'quv o'yinlar va hokazo.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:

- fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayoni barcha turlarning uslubiy jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- talabalar bilimni muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;
- talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra, tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);
- informatsiyani «siqib» berish natijasida, o'qitishni jadallashtirish, auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni optimallashtirish.

Buning natijasida, talaba etarli bilimlarga ham, ko'nikmaga ham uquvga ham ega bo'ladi.

Shunday qilib, modulli o'qitishdan foydalanib yuqori malakali mutaxassisni tayyorlash quyidagilar asosida ta'minlanadi:

- o'qitishning uzluksizligi (bunda fanlarni o'zlashtirish samaradorligi oshadi);
- o'qitishni jadallashtirish buning natijasida axborotning ko'p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o'zlashtiriladi;
- o'qitishni individuallashtirish (talaba o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olish imkoniga ega bo'ladi).

Mustahkamlash uchun savollar

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari mohiyatiga nimalar kiradi?
2. Ta'limning avtoritar uslubiga nimalar kiradi?
3. Ta'lim jarayonini boshqarishning necha xil uslublari bor?
4. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning qanaqa turlari mavjud?
5. Fanga yo'naltirilgan texnologiyalarning mohiyati nimada?
6. Modulli o'qitish deganda nimani tushunasiz?
7. O'rgatuvchi modul deganda nimani tushunasiz?
8. Mikromodullar tarkibisha nimalar kiradi?

Adabiyotlar

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
3. Anorqulova G.M. Parpiyev O.T. Kasb-hunar ta'limida o'yinli texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. 2007. - 48
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
5. Ro'zieva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
6. www.tdpu.uz.

6-MAVZU. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH VA SAMARALI BOSHQARISH ASOSIDA TEXNOLOGIYALAR

Reja:

1. O'quv jarayonini tashkil etish xususiyati/
2. O'quv jarayonini boshqarish usullari.
3. O'quv jarayonini samarali boshqarishda ta'limda texnologik yondashish.

Ta'lim jarayoni– bu insonning maqsadli ravishda ma'lum bir sohaga oid bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish uchun tizimli tashkil etilgan jarayondir. Ta'lim jarayonining asosiy elementlaridan biri bu o'qitish jarayonidir.

O'qitishning mohiyati bu ma'lum jamiyatning ijtimoiy munosabatlarda, jamoat ongining rivojlanishi, ishlab chiqarish va undagi mehnat unumdorligini rivojlanishi natijasida, kattalar tomonidan yig'ilgan hayotiy tajribalarni ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, tashkillashtirilgan holda kelgusi avlodga etkazish jarayonidir

O'qitishning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- insonlarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- insonning dunyoqarashini shakllantirish;
- shaxsning rivojlanishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- kasbga yo'naltirish;
- uzluksiz ta'limni davom ettirishga tayyorlash;
- shaxsning har tomonlama rivojlantirilishi ta'minlash.

Ta'lim jarayonini tashkil etuvchi komponentlari



4-rasm. Ta'lim jarayonini tashkil etuvchilar

Darsni rejalashtirish - kutilayotgan o'quv natijalariga erishish maqsadida o'quv jarayoniga tayyorgarlik ko'rish: ta'lim metodlarini tanlash, tarqatma materiallar va o'quv-didaktik vositalar tayyorlash.

Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish. Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, shaxs xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi klassifikatsiyaga bo'linadi.

Tashkil etish va boshqarish jihatidan pedagogik texnologiyalarni qo'yidagi turlarini ajratish mumkin:

1. Sust boshqariluvchi (o'quvchilar faoliyati boshqarilmaydi, stixiyalilik ustun turadi).
2. Siklli tekshirish - o'z-o'zini va o'zaro tekshirish ustun turadi.
3. Frontal (yalpi),
4. Yo'naltirilgan (individual),
5. Verbal - o'qituvchi ishtirokida,
6. Avtomatlashgan - texnik vositalardan foydalangan holda.

Ushbu boshqarish turlarining kombinatsiyalashuvi natijasida qo'yidagi didaktik tizim texnologiyalari vujudga keladi:

- an'anaviy leksion ta'lim tizimi (boshqarish sust, frontal, verbal)
- audivizual texnik vositalar yordamida ta'limni tashkil etish (boshqarish sust, frontal, avtomatlashtirilgan).
- konsultatsiya texnologiyasi (sust, yo'naltirilgan, verbal)
- kichik guruhlar texnologiyasi (siklli, frontal, verbal, differensial)
- kompyuter ta'limi (siklli, yo'naltirilgan, verbal) - individual ta'lim.
- repetitor tizimi (siklli, yo'naltirilgan, verbal) - individual ta'lim.
- dasturlashtirilgan ta'lim (siklli, yo'naltirilgan, avtomatlashtirilgan-programmalar asosida).
- differensial ta'lim (siklli aktiv boshqariluvchi, yo'naltirilgan, verbal).
- muammoli ta'lim (siklli, yo'naltirilgan, o'quvchi shaxsi aktiv).

Amaliyotda bu ta'lim texnologiyalari kombinatsiyalashgan holda qo'llaniladi. Ta'lim texnologiyalari darsning maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Shaxs xususiyatlarini rivojlantirishiga qarab qo'yidagi texnologiyalar ajratiladi:

1. Operatsion texnologiyalar - fikrlash malakasini fikrlash refleksini rivojlantiruvchi texnologiyalar hisoblanadi. Ular har xil fikrlash turlarini shakllantirishga moslashgan bo'ladi.
2. Estetik - axloqiy xislatlarni shakllantirishga qaratilgan texnologiyalar
3. Boshqaruvchilik xususiyatini rivojlantiruvchi texnologiyalar.
4. Evristik - ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi texnologiyalar, o'quvchilardan ijodiy yondashib masalaning echimini topishni talab etadi.
5. Amaliy texnologiyalar - amaliy xatti-harakatlarni shakllantiruvchi texnologiyalar.

Munosabat turlari va ilmiy tajribani o'rganish bo'yicha klassifikatsiyalash. Pedagogik jarayonni tashkil etishda o'quvchining va o'qituvchining munosabati ham turlicha bo'lishi mumkin. Bu munosabatni qo'yidagi turlarini ajratish mumkin:

1. **Avtoritar texnologiyalar.** O'qituvchi asosiy sub'ekt boshqaruvchi, talab qiluvchi, etaklovchi sifatida maydonga chiqadi. O'quvchi shaxsi esa tobe bulib, barcha talablarni bajarishi kerak. Bunda o'quvchining qiziqishlari va ehtiyojlari ta'limni tashkil etish jarayonida e'tiborga olinmaydi. U bajaruvchi sifatida maydonga chiqadi.

2. **Didaktik markazlashgan texnologiya.** Bu texnologiya markazida ta'lim jarayoni turadi va ta'lim jarayoni tarbiyadan ustun qo'yiladi. Aynan didaktik vosita yordamida shaxsni shakllantirish maqsad qilib qo'yiladi. Bunda o'qituvchi etaklovchi sifatida maydonga chiqadi. Ikki tomon ham (o'qituvchi va o'quvchi) bir xil pozitsiyani egallaydi. Asosiy maqsad ta'lim olish va tomonlar hamkorlikda ish olib boradilar.

3. **Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar.** Ta'lim tizimining markazida o'quvchi shaxsi turadi. O'quvchining rivojlanishiga sog'lom psixologik muhitni tashkil qilish, nizo va inqirozlardan asrash, tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirish, qobiliyatini o'stirishga qaratilgan. Bu yo'nalishni to'rt guruhga bo'lish mumkin:

a) **Insoniy texnologiyalar** (Gumanno-lichnostyu texnologii). Bu texnologiya o'zining insoniyligi bilan, psixoterapevtik yo'nalishi bilan ajralib turadi. Ushbu texnologiyaning mazmuni o'quvchi shaxsini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va o'quvchini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. O'quvchiga nisbatan hurmat va mehr bilan qarash va majburiylikdan voz kechishdan iboratdir.

b) **Hamkorlik texnologiyasi.** Bu texnologiya demokratiya, hamkorlik, tenglik kabi g'oyalar asosida qurilgan. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatlar sub'ekt - sub'ekt sifatida qaraladi. Birgalikda ta'lim jarayoni tashkil etiladi va birgalikda ijod etiladi.

v) **Erkin tarbiya texnologiyasi.** O'quvchiga tanlash, mustaqillik erkinligi beriladi. O'quvchi o'zi tanlagan vosita va mazmuni to'liq qabul qiladi, hamda bu faoliyatni xoxish bilan bajaradi. Ichki extiyoj bilan uyg'unlik hosil bo'ladi.

g) **Ezoterik texnologiya.** Ezoterik bilimlar (ongdan tashqari) qonuniyatlarni o'rganish orqali haqiqatga yaqinlashish nazarda tutiladi.

Ilmiy tajribani o'rganish bo'yicha: Geshtalt texnologiya, Bixevioristik rivojlantiruvchi kabi texnologiyalarni ajratish mumkin. Bixevioristik texnologiya - (E. Torondayk, D. Uotson, V.S. Dinner

va boshqalar) bu nazariyaning umumiy ko'rinishi quyidagicha: Stimul-reaksiya-mustahkamlash. Stimul - qo'zg'atuvchi, reaksiya - faoliyat, mustahkamlash - baholash va rag'batlantirish. Ular o'zlashtirish mexanizmi mana shu ko'rinishda vujudga keladi degan fikrni oldinga tashlaydi. Bunda o'quvchining munosabati va hissiyotlari hisobga olinmaydi va o'quvchining onglilik masalasiga kam e'tibor qaratiladi.

Geshtalt texnologiya - (M. Vetmeymer, G. Myuller, V.Keler) o'quvchining qabul qilishiga, idrok qilish refleksini o'rganishga asoslangan, yangi mavzuni o'zlashtirish yorqin fragmentlardan va yakuniy fikrlardan tashkil topish nazarda tutiladi. Idrok va diqqatga qaratilgan texnologiyalardir. O'quvchining qabul qilish xususiyatlarini va diqqatning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zlashtirish jarayonini tashkil etish zarur ekanligini ta'kidlaydi va shu asosda o'zlashtirish texnologiyalarini yaratadi.

3. Rivojlantiruvchi texnologiya. V.V. Davidov, D. B. Elkonin g'oyasi.

Asosiy mazmuni - nazariyaning amaliyotdan ustunligi va mazmuniy umumlashtirishlardan foydalanish, mantiqiy bog'liqliklar va guruhlash sistemalashtirishdir. Umumiydan yakkaga qarab harakatlanish. Mavjud bilimlardan yangi bilimlarga qarab harakat qilish, ya'ni bor bo'lgan assotsiatsiyalar asosida yangi assotsiatsiyalarni vujudga keltirishni nazarda tutadi. O'quvchining tushunishi oson bo'lgan bilimlardan uzoqroq va murakkabroq bilimlarga qarab xarakatlanishni tavsiya etadilar (oblast blijayshego razvitiya). Soddadan murakkabga qarab izchil rivojlanish o'zaro bog'liqliklarga amal qilish talab etiladi.

4. Suggestiv texnologiya. Emotsional, yorqin taasurot, ishontirish, qiziqtirishga yunaltirilgan. Talaffuz, mimika, gipnoz, avtoritetdan foydalanish kabilarga asoslanadi. His-tuyg'ularni uyg'otishga qaratilgan. O'zlashtirish jarayonida insonning nafaqat ongi, balki his-tuyg'ulari ham ishtirok etishini va o'zlashtirish jarayonida hissiyotlarni uyg'otish bilimlarning faqat ong bilan emas, balki qalb bilan ham anglab etishiga yordam berishini ta'kidlaydilar. Faqat ong bilan qabul qilingan bilimlar quruq va yuzaki bo'ladi degan fikrlar asosida o'zlarining o'zlashtirish texnologiyalarini yaratadilar. Ular har bir yangi mavzuni o'zlashtirishda obrazlardan foydalanish,

hissiyotlarni uyg'otish va har bir o'quvchi ana shu hislarni sezishini ta'minlashga e'tibor beradilar.

O'quvchilar kontingentiga ko'ra quyidagi texnologiyalarni ajratish mumkin:

- yalpi, an'anaviy texnologiyasi (o'rta o'quvchiga moslashgan),
- chuqurlashtirilgan texnologiya (ba'zi predmetlarni chuqurlashtirilgan dastur asosida o'qituvchi litsey, gimnaziya, kollej).
- kompensatsiyali o'qitish texnologiyalari (pedagogik korreksiya, ya'ni kamchiliklarni yo'qotishga qaratilgan texnologiyalar).
- viktimologik texnologiyalar (surdo, orto, tiflo, oligofrenika).
- tarbiyasi og'ir bolalar, yoki iqtidorli bolalar bilan ishlash texnologiyalari.

An'anaviy ta'lim tizimini modernizatsiyalash asosan quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

1. Pedagogik munosabatlarni gumanlashtirish va demokratlashtirish
2. O'quvchilar faoliyatini aktivlashtirish, intensivatsiyalash.
3. Ta'lim tizimini tashkil qilish va boshqarishning samarasini oshirish.
4. Ta'lim metodikalarini takomillashtirish.
5. Xalq pedagogikasidan samarali foydalanish.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ta'lim jarayonini tashkil etuvchi komponentlariga nimalar kiradi?
2. Ta'lim jarayonini qanday boshqaruv uslublari msavjud?
3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari mohiyatiga nimalar kiradi?
4. Shaxs xususiyatlarini rivojlantirishiga qarab texnologiyalar qanday ajratiladi?
5. Munosabat turlariga texnologiyalar qanday ajratiladi?
6. Ezoterik texnologiya qanday texnologiya ?
7. Rivojlantiruvchi texnologiya qanday texnologiya ?
8. Suggestiv texnologiya qanday texnologiya ?

Adabiyotlar

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
3. Anorqulova G.M. Parpiyev O.T. Kasb-hunar ta'limida o'yinli texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. 2007. – 48
4. Рашидов Х., Хабиб Х., Елдашева Г., Закиров А. Касбий педагогика. Ўқув қўлланма. Т. -2007 й. -182 б
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
6. Ro'zieva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
7. www.tdpu.uz.

7-MAVZU: TA'LIM VOSITALARI TA'LIM - TEKNOLOGIYASINING TARKIBI

Reja


1. Ta'lim vositalari: tushuncha va mazmuni.
2. Ta'lim vositalari turlari va klassifikatsiyasi
3. Ta'lim vositalarini tanlash tamoyillari

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim vositalari – o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchi vositalardir.

Ta'lim vositalari foydalanilishi jihatidan quyidagi 3 qismga ajratish mumkin:

- ta'lim beruvchi uchun;
- ta'lim oluvchi uchun;
- dars o'tkazish uchun.



5-rasm. Ta'lim vositalari turlari.

Ta'lim beruvchi uchun vositalar: o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, dars rejasi, ma'ruza matni.

Ta'lim oluvchi uchun vositalar: darsliklar, o'quv qo'llanma, jadvallar, yo'l - yo'riqli xaritalar, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va hokazolar.

Dars o'tkazish uchun vositalar: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar, real vositalar.

Ba'zi hollarda ta'lim oluvchi uchun mo'ljallangan ta'lim vositasi ta'lim beruvchi uchun ham, dars o'tkazish uchun ham talab etiladi. Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to'ldirishi kerak. Bundan tashqari ta'lim vositalarining xususiyatlariga ko'ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar. Quyidagi chizmada (6-rasm) ta'lim vositalarining turlari keltirilgan.

Ta'lim vositalari 6 turga bo'linadi:

- matnli vositalar;
- tasvirli vositalar;
- audiovizual vositalar;
- yordamchi (jihoz) vositalar;
- modelli vositalar;
- haqiqiy vositalar.

Matnli vositalar ma'lumot olish va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun

- o'quv dasturlari
- maxsus adabiyot (darslik)
- ma'ruza matnlari
- tarqatma materiallar
- imtihon va nazorat varaqalari

Tasvirli vositalar umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun

- fotosuratlar
- eskiz, chizma, sxemalar
- tasvirlar, jadvallar, simvollar
- plakatlar

Audiovizual vositalar jarayonlar va ishlash mexanizmlari to'g'risida tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga keltirish uchun

- videofilmlar
- kompakt disklar
- audiokassetalar
- PowerPoint materiallari
- elektron darsliklar

Yordamchi (jihozli) vositalar tasvir va matnni yozish va saqlash uchun

- doskalar (bo'r doska, oq doska, magnit doskasi)
- «Pinbord» doskasi
- videoproektor, videoproektor ekrani
- kodoskop
- kompyuter
- flipchart
- audiomagnitafon, videomagnitafon
- televizor

Modelli vositalar o'rganilayotgan ob'ektning modeli orqali u haqda tasavvur hosil qilish uchun

- modellar
- maketlar
- trenajerlar
- mulyajlar

Haqiqiy vositalar o'rganilayotgan ob'ektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish uchun

- asbob-uskunalar
- stanoklar
- yarim tayyor va tayyor mahsulotlar
- xom-ashyolar

Nazariy darslarda ta'lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, misol uchun darsliklar va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalanadilar.

Amaliy mashg'ulotlarda ular ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskiz, chizmalar, asbob-uskunalaridan foydalanadilar.

Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va vazifalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Yordamchi vositalar buning aksi o'laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi.

Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproektor kabilardir.

Ish sohasiga tegishli real narsalar, ya'ni mahsulotlar, asboblari va boshqalar dars paytida didaktik funksiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ta'lim vositalaridan foydalanishda ularni muayyan maqsad, mo'ljallangan guruh, maxsus soha va metodlarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari ta'lim beruvchi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak.

Texnik vositalardan foydalanayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim.

Kasbiy ta'limda o'qitishning didaktik vositalar majmuasi va klassifikatsiyasi. Pedagogik tajribalar taxlili shuni ko'rsatadiki o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, jadallashtirish faqat ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'qitishning har xil usullari va shakllari bilan bog'liqqina bo'lib qolmay, balki kasbiy ta'lim fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan o'qitishning didaktik vositalari bilan o'quv muassasasining qanchalik ta'minlanganligiga bilan ham bog'liq muammodir.

Oxirgi yillarda, o'quv muassasalari har xil texnikaviy o'qitish vositalari bilan jhozlanmoqda.

Ular uchun xilma-xil ekranli tovushli apparatlar, diagrafoproektorlar, televizion qurilmalar, videomagnitofonlar, elektron hisoblash qurilmalari, bilimlarni nazorat qilish uchun dasturlashtirilgan qurilmalar, trenajyorlar, kompyuterlar media apparaturalar va boshqalar ishlab chiqilmoqda.

Ammo, lekin o'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakasini shakllantirish va o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'zlashtirishlar o'quv muassasasidagi o'qitishning didaktik vositalari majmuasi soni, turiga bog'liq bo'lmay balki ularni ishlatish metodikasiga ko'p jihatdan bog'liqligi amaliyotda tasdiqlangan.

Chunki dasturdagi mavzularni o'zlashtirish qanchalik ushbu mavzu uchun zarur bo'lgan o'qitish vositalarining imkoniyatlarini, funksiyalarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanishga bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi o'qitish vositalarining imkoniyatlarini yaxshi bilishi zarur.

O'quv jarayoni uchun ishlab chiqilayotgan, tayyorlanayotgan va qo'llanilayotgan o'qitish vositalarining holatining tahlili va ilmiy tadqiqot ishlar natijasi ko'rsatadiki. ayniqsa maxsus fanlarni o'qitish, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish samaradorligi hamda o'quvchilarning kasbiy bilimi, ko'nikmasi va malakasining shakllanishi ma'lum darajada oshadi, agarda didaktik vositalarining o'qitish jarayonidagi o'rni ahamiyati aniq belgilansa, qo'llanilsa va ular o'qitish maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakli va usullari bilan muvofiqlashtirilsa.

Shu bilan birga o'quv muassasalaridagi o'qituvchilar, ishlab chiqarish ustalari bilan qilingan suhbatlar ko'rsatadiki, ulariing ko'pchiligi o'qitish vositalari tanlash va qo'llashda ma'lum darajada qiynalishadi, yoki bo'lmasa o'quv muassasasidagi bor hozirgi zamon vositalardan foydalanishga harakat qilishmaydi. Natijada o'quv jarayon samaradorligi oshmaydi.

Shuning uchun ham hozirgi vaqtda o'qitishning didaktik vositalar majmuasini o'quv jarayoniga qo'llashning pedagogik asoslarini ishlab chiqish va dars jarayonida o'z o'rnida qo'llash muammosini hal etish dolzarb masalalardandir.

Ma'lumki, ta'lim mazmuni, o'quvchi va o'qituvchining faoliyati ta'lim jarayonini asoslovchi elementlari hisoblanadi. Bularning o'zaro bog'liqligi ta'lim jarayonini tashkil etadi.

O'qituvchi dars jarayonida an'anaviy va noan'anaviy o'qitish metodlaridan foydalanishi bilan birga bu metodlarga qanday o'qitish vositalarini qo'llashni yaxshi bilishi kerak va o'rnida foydalanishi zarur. Bular esa o'z navbatida qo'shimcha vaqtni sarf etishni taqozo etadi.

O'qitishning didaktik vositalari nima? Didaktik vositalar-o'quv muassasasining material - texnik ta'minlanishining tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning ta'limiy bilish, o'rganish, ilg'ash faoliyatini boshqarish. barkamol rivojlantirish, tarbiyalash uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonida foydalaniladigan materiallar tizimidir.

Didaktik vositalar o'quv ma'lumotini (axborotli) uzatish uchun, o'qitish jarayonini boshqarish, nazorat qilish hamda ta'lim mazmunini o'rgatuvchi va o'rganuvchi faoliyatida muhim o'ringa ega bo'lib, ularni o'z o'rnida ishlatishni talab qiladi.

Didaktik vositalarni ta'lim jaraenida asosli qo'llash uchun avvalambor ularning turlarni, funksional imkoniyatlarini bilish kerak. Shuning uchun ham har bitta o'qitish vositasining funksional (xizmat vazifasi) nimadan iborat ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lmoq kerak.

Demak buning uchun har bitta o'qitish vositasining turini uning bajarish vazifasini va qaerda qo'llash yoki undan foydalanish jadvalini tuzish maqsadga muvofiqdir.

O'qitish vositasi turi	O'qitish vositasining xizmat (ish) vazifasi	Undan foydalanish sohasi
<i>Kinoproektor (o'quv kinofilmi)</i>	Har xil axborotlarni dinamik uzatish va ovoz orqali berish, jarayonlarining tashqi ko'rinishi ifoda etib qolmagan holda uning mohiyatini ham yoritib beradi, ishlab chiqarish haqida umumiy tushunchalarni hosil qildiradi.	Har xil jarayon va xodisalarni dinamikzda ko'rsatish, murakkab mashina va mexanizmlar tuzilishini, ishlashini o'rganish, ilg'or usullarni ko'rsatish va h.k.

O'qitish vositalari klassifikatsiyasi. O'qitish vositalari moddiy va ideal ob'ektlarga bo'linib, ular ta'lim jarayonida axborotlarni beruvchi, etkazuvchi uzatuvchi sifatida qo'llaniladi ve o'quvchi hamda o'qituvchining (pedagogning) faoliyat quroli sifatida foydalaniladi.

O'qitish vositalari xilma - xil bo'lib, uning asosiga qo'yilgan belgilariga qarab quydagicha tasniflanishi mumkin;

Ob'ektlar tarkibi bo'yicha moddiy (xona, jihozlar, mebel, kompyuterlar, dars jadvali hamda ideal (bekami - ko'st) -sonli modellar, xayoliy tajribalar, obrazli ko'rinish, olam modeli va boshqalar);

Manba ko'rinishi bo'yicha - sun'iy (priborlar, rasmlar, darsliklar) va tabiiy (natural ob'ektlar, preparatlar, gebariyalar);

Murakkabligi bo'yicha - oddiy (namunalari, modellar, xaritalar) va murakkab (videomagnitafonlar, kompyuterlar seti);

Foydalanishi bo'yicha dinamikli (video) va statistik (kodopozitivlar);

Tuzulish xususiyatiga qarab - tekis (kartalar), xajmli, (Maketlar), aralash (er modeli), virtualli (multimediya dasturlari);

Ta'sir etishi xarakteriga qarab - vizual (ko'rinishli) -diagrammalar demonstratsiya priborlari, audioalbom, magnitafoliar, radio) ovozli ko'rinishli (televizorlar, videofilmlar);

Axborotlarni tashishi yoki berishi bo'yicha - qog'ozli (darsliklar kartotekalar), magnit optimli (filmlar), elektronli (kompyuter dasturlari), lazerli (SD - ROM);

Ta'lim mazmuni bo'yicha - dars darajasidagi o'qitish vositalari (matnlar va boshqalar) fan darajasidagi (darsliklar) o'qitish jarayoni darajasida (o'quv kabinetlari);

Texnologik taraqqiyotga nisbatan bo'yicha-an'anaviy (ko'rgazmali qo'llanmalar muzeylar, kutubxonalar), hozirgi davrda ko'plab ishlatiladigan (axborot vositalari, o'qitishning multimediya o'qitish vositalari, kompyuterlar) va kelajakli (vab - saytlar, lokal va global kompyuterlar setlari. ta'limning- bo'lingan tizimlari).

Ma'lumki, o'quv muassasining o'quv-material bazasi uning material-fazoviy muhitidan (maydon va o'quv mashg'ulotlarini o'qitishni o'tkazish xonalari, rahbariyat xonalari ho'jalik va boshqa xonalar) va o'quv muassasining material-texnik ta'minlanganligidan iborat.

Material-texnik ta'minot o'z navbatida uchta tarkibiy qismdan iborat:

- didaktik vositalar;

-o'quv jihozlari (oborudovaniya); rahbariyat-ho'jalik maishiy jihozlari-orgtexnikalar.

Bu yerda bizni asosan didaktik vositalar qiziqtiradi.

O'quv jihozlariga qo'shimcha vositalar kiradi, ya'ni: o'quv mebellar, doskalar, ko'rsatkichlar, ko'rgazmali qurollar uchun moslamalar, pardalar, boshqarish pultrlari va boshqalar.

Bular o'quv jarayonida to'g'ridan to'g'ri qatnashmaydi, ammo zarur.

Didaktik vositalar yordamida o'qitish maqsadlariga erishiladi. Shuning uchun ular o'qitish vositalari va tarbiyalash vositalari bo'lib hisoblanadi, chunki didaktikada o'qitish va tarbiya birgalikda amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda didaktik vositalar klassifikatsiyasi o'qitish klassifikatsiyasiga asoslangan.

1. O'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar;

2. O'quv-uslubiy adabiyotlar;

3. O'quv-ishlab chiqarish va laboratoriya jihozlari, materiallari;

4. O'qitishning texnik vositalari.

Chunki, bizga ma'lum bo'lgan ko'rgazmali metodlarda - o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar, og'zaki metodda-o'quv-uslubiy adabiyotlar, amaliy metodda-o'quv-ishlab chiqarish va laboratoriya jihozlari foydalaniladi.

O'qitishning texnik vositalari bu erda har tomonlamali murakkablashtirilgan didaktik vositalar sifatida qatnashadi. Chunki, o'qitishning texnik vositalari yordamida har xil didaktik vazifalarni hal qilish mumkin, ya'ni ko'rgazmaligini oshirish, o'quvchilarga har xil tafsilotlarni, o'zgarishlarni ko'rsatish mumkin; bilimlarni mustahkamlash; o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish va xokazolar.

O'qitishning texnik vositalari. Turli - tuman o'qitish vositalari orasida texnik vositalar alohida guruxni tashkil etadi. O'qitishning texnik vositalari vazifalari ta'limda ko'rgazmalilikni amalga oshirish bilan cheklanib qolmaydi qator xollarda ular ma'lumotning mustaqil manbai, talimni individuallashtirish vositasi bo'ladi. O'TV pedagogni ba'zi ikkinchi darajali vazifalaridan xolos ztib, ayni paytda uning ta'lim jarayonini boshqarish va rahbarlik qilish vazifalarini kuchaytiradi. Ta'lim jarayoniga kompyuterlar va o'quv dasturlarning etarli miqdordagi o'quv dasturlarini kiritish ushbu vazifalarni to'laroq amalga oshirishga yordam beradi.

Hozirgi davrda internet setlari va elektron vositalar kommunikatsiyasi, masofadan o'qitish vositalari keng ko'lamda ta'lim tizimiga kirib kelmoqsa va ishlatilmoqda.

Media ta'lim nima? Media ta'lim pedagogikada yangi yo'nalish bo'lib, kommunikatsiya (aloqa) ko'pchilik aloqa kommunikatsiyalarini o'quvchilar tomonidan o'rganishni z'tiborga oladi. Ya'ni: matbuot, televideniya, radio, kino, video va boshqalar. Ta'limda media ta'lim vositalari sifatida axborot muhiti elementlari: darslik, ko'pchilik axborot vositalari (nashriyotlar radio, televideniya), video, kompyuter o'qitish dasturlari va o'yinlar, multimedia, internet axborot saytlari (turkumlari) foydalaniladi.

Media (lotincha, tesia) - vositadir.

Media ta'lim mazmuni quyidagi tarkibiy qismlardai iborat;

- Ko'pchilik axborot vositalari kanallar orqali beriladigan axborotni o'zlashtirish va qayta ishlashga o'qitish;

- Kompyuterlar, modemlar, fakslar, multimedialar va boshqalarni ishlatish orqali kerakli axborotlarni qabul qilish, uzatish, tayyorlash va topish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish

- O'quv kompakt - disklar. Bu axborotlarni tanishuvchilar ya'ni kompakt -diskda har xil ekran ovozli vositalar joylashtiriladi va ular kompyuterlardan foydalanishga moslashtirilgan. Bunday vositalarda ta'lim jarayonida foydalanish ko'zda tutilgan. Bu kompakt - disklar hozirgi kunda foydalanish bilan birga ayrim kamchiliklardan ham holi emas.

Bu erda yana bitta tabiiy savol turibdiki, nima uchun o'quv-ishlab chiqarish jihozlarini didaktik vositalar doirasiga kiritiladi.

Chunki, o'quv jarayonida qo'llaniladigan stanoklar, agregatlar, priborlar, asboblari, materiallar, mashina va mexanizmlar ishlab chiqarish vositalarigina bo'lib qolmay, balki o'quv jarayonida o'quvchilarda zaruriy bilim va malakalarni shakllantirishda ishlatiladi.

Bu qarab chiqilgan didaktik vositalar nazariy va amaliy ta'limda keng qo'llaniladi.

Shuning uchun didaktik vositalar turkumlarini qarab chiqaylik:

1. O'quv ko'rgazmali qo'llanmalar. O'quv ko'rgazmali qo'llanmalar deganda o'quvchilarda qo'shimcha texnik qurilmalarsiz predmetlar va hodisalar haqida aniq va ravshan tassavurlarni shakllantirishni taminlaydigan didaktik vositalarni tushuniladi. Sxemadan ko'rib turibdiki, o'quv ko'rgazmasi qo'llanmalar uchta turkumdan iborat ekan. Ya'ni natural - tabiiy, real ob'ektlar qo'llanmalar, tavsiriy qo'llanmalar va belgili qo'llanmalardan tashkil topgan.

2. O'quv - uslubiy adabiyotlar - bular og'zaki qo'llanmalar bo'lib, o'zlarida predmetlar va hodisalarni so'zlar, belgilar bilan ifodalaydi. (6- chizma).

3. O'qitishning texnik vositalar klassifikatsiyasini V.S. Umanskiy V.F.Bostov, M.M. Solani tavsiya etishgan.

Bularning turkumlantirishda quyidagi belgilar (kinofilm) e'tiborga olingan. Masalan: audio ko'rsatuvchi texnik vositalar:

- o'quv ma'lumotlarni ko'rsatish (uzatish) belgisi;

- o'quv jarayonida funksional tutgan o'rni;

- so'z va ko'rish tasavvuri nisbatan;

- o'qituvchi tomonidan ma'lumotlarni uzatishni boshqarish.

Dasturlashtirilgan o'qitishning texnik vositalar va bilimlarni nazorat qilish vositalari V.S. Umanskiy tomonidan amalga oshirilgan.

O'quv jihozlari klassifikatsiyasi A.R. Xodjaboev tomonidan amalga oshirilgan.

Pedagogik vazifalarni echish hal qilish, dastur va darslik mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi vositalar majmuasini ishlab chiqish va ularni tarkibini tuzish quyidagi bosqichlardan iborat.

1. Dastur va darsliklar o'quv mazmunining taxlil etish va kalendar tematik rejani tuzish,

2. O'quv jarayoni tarkibiy qismlarida (darslarda) ishlatilishi kerak bo'lgan o'qitish vositalarini aniqlash;

3. Zarur bo'lgan o'qitish vositalari ro'yxatini tuzish;

4. Bor o'qitish vositalarini aniqlash. Ya'ni markazlashgan holda ishlab chiqilganlar ichidan;

5. Ishlab chiqilish kerak bo'lgan o'qitish vositalarini aniqlash;

6. O'qitish vositalarining o'zaro muvofiqlashtirilish va majmuasini tuzish.

Didaktik o'qitish vositalari majmuasiga qo'yiladigan pedagogik talablar.

Bo'lajak mutaxasislarni o'qitish va tarbiyalash jarayonining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib, bu jarayonni metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish va o'qitish vositalarini to'g'ri qo'llashga bogliq.

Ishlab chiqariladigan didaktik vositalarini maqbul tanlash va ular pedagogik talablarga javob berish kerak. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati sharoitida pedagogik samaradorlikni belgilashda muhim zhamiyatta ega.

O'UM turlari va ulardan foydalanishning xususiyatlari

O'UM turlari	Xususiyatlari		
	qo'llanilishi	mazmuni	rasmiylashtirish
1	2	3	4
Yo'riq noma berish	Alohida, juftlikda va guruhli ish doirasida guruhli topshiriqni bajarishda	Bajarish uchun taqdim etilayotgan topshiriqning aniq ifodalanishi. Vaqtga va ish shakliga.	Tuzilmaviylik, aniqlik

		kutilayotgan natija, natijani taqdim etish shakliga, uning baholash mezoniga qaratilishi.	
Eslatma	Materialni mustahkamlashda, dars yakunida va mustaqil qo'llash uchun	Mashg'ulotda o'tilgan asosiylikning eng qisqa umumlashtirilishi	Qisqa tuzilmaviylikda asosiy mazmuni bayon etilishidan iborat; qisqa takliflar, aniq fikrlar, misollar; matn o'rnida chizma, rasm, jadval va boshqalardan foydalanish.
Nazorat varag'i	Egallagan bilimlarni tekshirishda	Fikrlash uchun savollar va yangi bilimlarni qo'llash.	O'qituvchi tekshiruv natijalarini kiritish uchun bo'sh joy bo'lishi kerak.
Tezislar	Mashg'ulot <i>oldidan</i> -yordamchi qo'llanma sifatida; O'quv mashg'ulot <i>vaqtida</i> -yakun chiqarishda, mashg'ulotga tayyorlangan materialni mustahkamlash uchun; - qisqa qayd etish uchun faol vositadek; - o'quv mashg'ulotidan <i>so'ng</i> - bilimlarni mustahkamlash uchun ma'lumotnomadek.	Mavjud mashg'ulot mazmuniga mos kelishi va uni to'ldirish zarur	Qisqaligi: imkoni boricha bir varaq A4. O'quvchilar shaxsiy fikrlarini yozishlari uchun bo'sh joy bo'lishi zarur.

Umumiy holda o'qitish vositalari majmuasi quyidagi pedagogik talablarga javob berishi kerak:

1. Har bitta o'quv mavzusi, o'quv elementlari uchun didaktik o'qitish vositalari ishlab chiqilishi va aniqlanishi kerak. Bunda asosiy e'tiborni fanlar dasturlaridagi mazmunning qanchalik yakunlangan qismlariga e'tibor berishi kerak.

2. Didaktik o'qitish vositalari majmuasida didaktik vositalar o'qitish maqsadi, mazmunining umumiylikidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda zaruriy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qilishi zarur. Har bitta mavzu bo'yicha

o'qitish vositalari o'quv-tarbiyaviy jarayonga xizmat qilish va yusuri darajadagi pedagogik samaradorlikni ta'minlashi zarur.

3. Didaktik o'qitish vositalari majmuasiga kiradigan hamma o'qitish vositalari o'quv dasturi, darslik mazmuni va didaktik o'qitish tamoyiliga mos kelishi zarur.

Didaktik vositalar o'quvchilarda o'qishga va o'zlashtirishga, mehnat qilish, kuzatuvchanlik ham qiziquvchanlikni o'stirishga xizmat qilishi kerak.

4. O'qitish vositalari o'quv-tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qismlarm: darsning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli va metodlari bilan moslashtirilgan bo'lishi zarur. Bu esa modulli yondoshish muhim ahamiyatga ega.

5. O'qitish vositalari o'qituvchilarning o'qitish faoliyati elementlari va o'quvchilarning o'quv faoliyatini modellashtirish va o'quv-tarbiyaviy jarayoniga qo'llanilishini ta'minlash zarur.

6. O'qitish vositalari bir-birini almashtira olishi o'zaro mavzuni o'tish metodikasi bilan ham muvofiqlashtirilgan bo'lishi hamda bitta o'zining didaktik yo'nalishmga ega bo'lishi zarur.

7 Har bitta o'qitish vositasi turi ya'ni majmuaga kiruvchilar yuqori darajadagi ko'rgazmalikka va estetik ko'rinishga ega bo'lishi kerak.

8. Didaktik vositalar majmuasi o'quvchilarda yuqori darajada fanni o'zlashtirishga, diqqatini va faolligini oshirishga hamda mustaqil ishlashga qiziqtirishi zarur.

9. Didaktik vositalar majmuasiga kiruvchi o'qitish vositalari psixofiziologik, texnikaviy ergonomik va nafasat-estetik talablarga javob berishi kerak.

10. Didaktik vositalar majmuasi o'qituvchi va o'quvchilar mehnatini ilmiy asosda tashkil qilishga hamda darslardagi o'quv vaqtini unumli foydalanishga xizmat qilishi zarur.

Didaktik vositalar majmuasidan ishlab chiqishga eng tajribali pedagog jalb qilinishi maqsadga muvofiq.

Didaktik vositalarni tanlash metodikasi. Biror o'quv predmetini o'rganish - dars berishdan oldin o'quv dasturini va darsligini chuqur o'rganilib, so'ngra bu predmetdan dars berish jarayonini o'qitish vositalari majmua bilan ta'minlash masalasi hal qilinishi kerak. Bu esa quyidagi bosqichlardan iborat:

1) o'quv dasturi tahlil qilinadi va tematik rejasi tuziladi;

- 2) darsda o'qitish vositalaridan foydalanish zaruriyati aniqlanadi;
- 3) zarur bo'lgan o'qitish vositalari ro'yxati aniqlanadi (tuziladi);
- 4) markazlashtirilgan holda beriladigan yoki mavjud o'qitish vositalari belgilanadi;

5) ishlab chiqilishi ya'ni zarur bo'lgan o'qitish vositalari aniqlanadi;

6) didaktik vositalarni bir-biri bilan muvofiqlashtiriladi ya'ni kelishtiriladi, so'ngra uning majmuasi aniqlanadi.

Ta'lim vositalarni tog'ri tanlash ta'lim jarayonining samaradorligi oshirishga xizmat qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ta'lim vositalari necha turga bo'linadi?
2. Real vositalarga nimalar kiradi?
3. Texnik vositalarga nimalar kiradi?
4. O'quv uslubiy materiallarga nimalar kiradi?
5. Didaktik vosita deganda qanday vositalar tushuniladi?
6. Ta'lim vositalari nimaga asosan tanlanadi?

Adabiyotlar

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
3. Anorqulova G.M. Parpiyev O.T. Kasb-hunar ta'limida o'yinli texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. 2007. – 48
4. Рашидов Х., Хабиб Х., Елдашева Г., Закиров А. Касбий педагогика. Ўқув қўлланма. Т. -2007 й. -182 б
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
6. Ro'zieva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
7. www.tdpu.uz.

8-MAVZU: TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. O'quvchi shaxsida fikrlashni tashkil etish.
2. O'zaro fikr olishuv.
3. Tanqidiy fikrlashni va uni rivojlantirish.
4. Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlar.

Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, unda o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas.

Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstdan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas.

Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lim oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar.

Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o'rganish asosida o'quvchilarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).

2. O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Bunday strategiya o'rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O'rganish va tanqidiy fikrlash o'quvchilarning konkret vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik, 1987).

4. O'rganish o'quvchilarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular o'quvchilarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi (Ros, 1990).

- 2) darsda o'qitish vositalaridan foydalanish zaruriyati aniqlanadi;
- 3) zarur bo'lgan o'qitish vositalari ro'yxati aniqlanadi (tuziladi);
- 4) markazlashtirilgan holda beriladigan yoki mavjud o'qitish vositalari belgilanadi;
- 5) ishlab chiqilishi ya'ni zarur bo'lgan o'qitish vositalari aniqlanadi;

6) didaktik vositalarni bir-biri bilan muvofiqlashtiriladi ya'ni kelishtiriladi, so'ngra uning majmuasi aniqlanadi.

Ta'lim vositalarni tog'ri tanlash ta'lim jarayonining samaradorligi oshirishga xizmat qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ta'lim vositalari necha turga bo'linadi?
2. Real vositalarga nimalar kiradi?
3. Texnik vositalarga nimalar kiradi?
4. O'quv uslubiy materiallarga nimalar kiradi?
5. Didaktik vosita deganda qanday vositalar tushuniladi?
6. Ta'lim vositalari nimaga asosan tanlanadi?

Adabiyotlar

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
3. Anorqulova G.M. Parpiyev O.T. Kasb-hunar ta'limida o'yinli texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. 2007. – 48
4. Рашидов Х., Хабиб Х., Елдашева Г., Закиров А. Касбий педагогика. Ўқув қўлланма. Т. -2007 й. -182 б
5. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
6. Ro'zieva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
7. www.tdpu.uz.

8-MAVZU: TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. O'quvchi shaxsida fikrlashni tashkil etish.
2. O'zaro fikr olishuv.
3. Tanqidiy fikrlashni va uni rivojlantirish.
4. Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlar.

Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, unda o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas.

Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstdan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas.

Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lim oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar.

Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o'rganish asosida o'quvchilarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).

2. O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Bunday strategiya o'rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O'rganish va tanqidiy fikrlash o'quvchilarning konkret vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik, 1987).

4. O'rganish o'quvchilarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular o'quvchilarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi (Ros, 1990).

5. Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash «yakkayu yagona to'g'ri javob»ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q.

Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

- o'quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- o'quvchilarni kulgiga qolmaslikka ishonitirish kerak;
- har bir o'quvchining tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;

- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan o'quvchilar:

- o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;
- o'quv jarayonida faol ishtirok etish;
- turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi.

Pirson, Xansen, Gordon (1979)lar ta'kidlashadiki, o'z fikrlarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;
- o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;
- o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifdalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun o'quvchilar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish

uchun ruxsat olishlari lozim. O'quvchilar yo'l qo'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.

Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan va do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. O'quvchilarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi.

Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda o'quvchilarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida o'quvchilar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, o'quvchilar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi o'quvchilarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. O'quvchilarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini o'stiradi.

Mixali CHikjentmixaliy (1975) ta'kidlaydiki, o'quvchilar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar.

Tavakkalchilik Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «ahmoqona g'oyalar» aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi uni o'quv jarayonini tabiiy holati sifatida o'quvchilarga tushuntirishi lozim.

O'quvchilarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, o'quvchilarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkoni bo'lgan muhitda o'ylash lozimligini ularda ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri o'quvchilarning fikrlash jarayonini qadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida o'quvchilar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog'dagina chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar.

O'quvchilar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Qimmatlilik. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida o'quvchi ularning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi o'quvchilardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lishi lozim. Bu esa o'quvchilarda o'zgaralar g'oyalari mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida o'quvchilarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. O'quvchilarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o'ta muhim, shuningdek, katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

O'zaro fikr olishuv. Fikrlash jarayoni o'quvchilarning o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. O'quvchilarning o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligiga asos soladi. O'quvchilardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi.

O'zaro fikr olishishda o'quvchilardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban o'quvchilar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq o'quvchilar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- o'ziga ishonch hosil qilish;
- ishda faol ishtirok etish;

- o'rtoqlar va o'qituvchi bilan fikr olishish;
- o'zgaralar fikrini tinglay olish.

Tanqidiy fikrlashni ta'minlovchi savollar. Tanqidiy fikrlash jarayonida axborotni tahlil qilish va izohlash, g'oyalarni tahlil qilish, o'rganilayotgan hikoyalarni o'z taxminiy rejalari bilan qayta tuzib chiqishga qaratilgan savollardan foydalaniladi. Qo'llanmada tahlil qilinarotgan bu masalalar Senders (1969) ifodalari va Blum tizimli savollaridan olindi. Bu savollar turli sathdagi qiyinchilikda fikrlashning turli ko'rinishlarini ta'minalashda vosita bo'lib xizmat qiladi. Eslab qolishga xizmat qiladigan savollar yoki formal darajadagi savollar eng quyi darajadagi savollarga taalluqlidir.

Formal darajadagi savollar faktologik axborotlar olish maqsadida beriladi. Ular faqat mexanik eslashni va o'quvchilarda yaxshi javob berish uchun qisqa muddatda ma'lum predmetlar bo'yicha bilim qismlari (fragment)ni talab qiladi.

Axborotlarni bir shakldan ikkinchi shaklga ko'chirish o'quvchilardan uni ko'chim (transformatsiya) qilishni talab qiladi. Ko'chirish savollari o'quvchilarga o'rganayotgan, tavsiflagan va ko'rgan vaziyatlari, sahnalari va voqealarini o'zlari namoyish eta olishlari uchun beriladi. Ko'chirish savollari o'quvchilarni axborotlarni qayta ishlash yoki boshqa shakllarga ko'chim qilishga ilhomlantiradi. O'quvchilarga sezish, ko'rish (sensor) tajribasini yaratish, shundan so'ng esa boshqalarga o'z ko'rganlarini etkazish uchun uni e'lon qilish zarur. Bu fikrlashga tortishning faol ijodiy jarayonidir.

O'quvchilarga g'oyalar, faktlar, qaydlar va qadriyatlar orasidagi bog'lanishlarni ochish uchun izohlashga qaratilgan savollar beriladi. Senders izohlashga qaratilgan savollarga nisbatan yuqori darajadagi fikrlashni talab qiladigan tayanch savollar deb qaraydi, boshqalari esa (Vogn va Estes) tushunishning o'zigina izohlashdir, deb hisoblaydilar.

Tadbiq qilishga qaratilgan savollar o'qish (talaffuz) jarayoni yoki o'rganish tajribasida uchraydigan mantiq muammolarini echish va chuqur o'rganish uchun imkoniyat beradi.

Tahlil etishga qaratilgan savollar o'quvchilardan u yoki bu voqeaning ahamiyati etarli darajada yaxshi yoritilganmi, yo'qmi degan savolga javob berishga undaydi.

Sintez qilishga qaratilgan savollar yangicha fikrlash asosida ijodiy muammolarni hal qilishga da'vat etadi. Sintez savollari o'quvchilarga

o'zining barcha bilim va tajribalarini muammoning ijodiy echilishida foydalanishga imkon beradi. Sintez savollari muqobil ssenariylar yaratishni ham taqozo qilishi mumkin.

Baholash savollari yaxshi va yomon, adolatli va adolatsizlik to'g'risida hukm chiqarish uchun beriladi.

Baholash savollari o'quvchilar, axborotlar sifatini, yangi axborotlarga nisbatan o'z munosabatini baholay olishi, ularni qadrlay olishi uchun beriladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning 4 tipini farqlaydilar:

Yaxlitligicha idrok etish. Mavzu yoki fan to'g'risida umumiy bilim beradigan idrokning shaklidir.

Izohli idrok etish. Bu Blum izohlari darajasiga aynandir. Idrokning bu tipida o'quvchi g'oya va hodisalarning o'zaro aloqalarini yoritadi, uning mohiyatini muhokama qiladi, fanning turli sohalariga oid g'oya va axborotlarni hatto tashqi jihatdan bog'liq hodisalarni birlashtiradi.

Shaxsiy idrok etish. O'quvchilar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan bog'lab tushunish jarayoni aks ettiradi.

Tanqidiy idrok etish. Mazmuni bir tomonga qo'yib, uni tahlil qilish, uning nisbiy qimmatini, to'g'riligini, foydaliligini va o'quvchilarning bilishi, tushunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir.

SHunday qilib, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni echish imkoniyatini beradi:

- o'quvchilarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;
- mashg'ulotlarda faolligini ta'minlaydi;
- samarali munozaraga chorlaydi;
- o'quvchilarning o'zlari savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;
- o'quvchilarga o'z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;
- o'quvchilarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi;
- har qanday fikrlarga bo'lgan hurmat kayfiyatini yaratadi;

• o'quvchilarda personajlarga bo'ladigan iztirobini o'stirishga yordam beradi;

• o'quvchilar qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi; o'quvchilarning tanqidiy jalb qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi

«Tarmoqlar» metodi (Klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jaddalashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«Bumerang» texnologiyasi

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi ro'lida chiqishi mumkin.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamo'a bilan ishlash mahorati;
- muomalalik;
- xushfe'llik;
- ko'nikuvchanlik;
- o'zga fikriga hurmat;

- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;
- o'zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar – bu savollar muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – bu savollar oldindan «ha» yoki «yo'q» tipidagi to'g'ri, ochik, javoblarni berishni ko'zda tutadi.

Ko'ndalang so'roq – bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko'ndalang so'roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

«Skarabey» texnologiyasi

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

-boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);

-mavzuni o'rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

-oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

«Skarabey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni engillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanishi mumkin.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

-o'zgalar fikriga hurmat;

-jamoalar bilan ishlash mahorati;

-faollik;

-xushmuomalalik;

-ishga ijodiy yondashish;

-imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;

-o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;

-«men»ligini ifodalashga imkon beradi;

-o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

«Tarozi» texnologiyasi

Mazkur texnologiya munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'l keladi. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu texnologiya dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, muxoliflarni ishontiradi, munozara madaniyatiga o'rgatadi.

«Tarozi» texnologiyasi o'quv materialini o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanishi mumkin. Ammo u o'tilgan materiallar

bo'yicha xulosa qilish bosqichida yuqori samara va natija beradi, chunki o'qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o'rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi.

Bu texnologiya kichik guruhlarda va jamoalar orasida amaliyotga tatbiq etilishi mumkin. Asosiy tushunchalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Mavzu turli nuqtai nazarlarning to'qnashuviga imkoniyat beruvchi hamda ulardan birortasiga ham imtiyoz bermaydigan tasdiqdir. Mavzu shunday tanlanishi kerakki, u o'rganilayotgan mavzuning barcha qirralarini ochishi, o'quvchilarning axborot qidirish hamda izlanuvchanlik faoliyatlarini rag'batlantirsin.

Argument – bu o'z nuqtai nazarini tasdiqlashga olib keluvchi asosli dalil, g'oya, mulohazadir. Dalillash anik, mantiqiy, asoslangan bo'lishi, faktlar, sharhlar, mulohazalar, isbotlar, misollar, iqtiboslar, manbalarga, obro'li guvohnomalarga havolalar va boshqalar bilan quvvatlangan bo'lishi kerak.

Kontrargument (qarshi dalillash) – bu raqibning dalillarini rad etish bo'lib, u dalillashga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak. To'g'ri tanlangan kontrargument raqibning nuqtai nazarini zaiflashtirishi hamda o'zining himoya yoki rad etish chizig'ini mustahkamlashi lozim.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- o'z shaxsini takomillashtirishga intilish;
- faol hayotiy nuqtai nazarini shakllantirish;
- o'zga fikriga hurmat va toqat qilish;
- jamoada ishlashni eplay olish;
- murosali qarorga kela olish;
- xushmuomalalik;
- o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish.

«Elpig'ich» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan,

ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Elpig'ich» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qantashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

«Elpig'ich» texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
 - mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab etish;
 - yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.
- Asosiy tushunchalar quyidagilar:
- Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik – biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat – ijobiy sifat.

Nuqson – nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.

Ta'limdan tashqari «Elpig'ich» texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoada, guruhlarda ishlash mahorati;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- murosali qarorlarni topa olish mahorati;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- faollik;
- muammoga diqqatini jamlay olish mahorati.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Fikrlash nima?
2. Tanqidiy fikr deganda nimani tushunasiz?

3. Tanqidiy fikr qanday shakllantiriladi?
4. «Bumerang» texnologiyasi mohiyati nimada?
5. «Skarabey» texnologiyasi mohiyati nimada?
6. «Elpig'ich» texnologiyasi mohiyati nimada?
7. Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlarini sanab bering.

Adabiyotlar

1. Iimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
3. Anorqulova G.M. Parpiyev O.T. Kasb-hunar ta'limida o'yinli texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. 2007. – 48
4. Рашидов Х., Хабиб Х., Елдашева Г., Закиров А. Касбий педагогика. Ўқув қўлланма. Т. -2007 й. -182 б
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
6. Ro'zieva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
7. www.tdpu.uz.

9-MAVZU. KASBIY TA'LIM O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Reja

1. Kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning metodologik asoslari.
2. Kasbiy ta'lim o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.

Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilayotganligi, qisqa muddatda fan sohasida bo'layotgan kashfiyotlar, texnik vositalarining tabora keng qo'llanilayotganligi kadrlarning o'z bilimlarini muntazam tegishli sohalar bo'yicha yangiliklar bilan to'ldirib turish lozimligini taqazo etmoqda. Ko'rsatilgan muammoni echimini topish ko'p jihatdan pedagog, muhandis-pedagoglarni tayyorlash, malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida ta'lim mazmunini yangilash, chuqurlashtirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonini zamonaviy pedagogik-axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, unda faol ta'lim usullarini qo'llash, o'quv-uslubiy majmualar bilan taminlash, masofaviy ta'limni tashkil etish va boshqalarga bog'liqdir. Chunki, hozirgi kunda akademik litsey va kab-hunar kollejlarda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiruvchi yuqori malakali pedagoglar va muhandis pedagoglar tayyorlash, ularning malakasini oshirish dolzarb muammolari hisoblanadi.

Oliy o'quv yurtlarida kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi ahvolini yaxshilash, tayyorlanadigan mutaxassislar kasbiy samaradorligini oshirish bevosita ta'lim tarbiya jarayonini metodik ta'minoti bilan bog'liq bo'lgani uchun ham Professional ta'lim muassasalari uchun pedagog va muxandis-pedagoglarni tayyorlash, o'quv-uslubiy majmuasi modelini ishlab chiqish, bu modelning asosiy komponentlarini takomillashtirish; o'quv-tarbiyaviy jarayoniga faol ta'lim usullarini qo'llashning ilmiy asoslarini, uni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining darajasiga bo'lgan talab va ehtiyojlarni aniqlash, tahlil etish; faol ta'lim usullaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash kabi masalalar har doim dolzarb bolib kelgan.

Muhandis-pedagogning lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'ziga birlashtirilgan gurux bilan kasb bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazadi;
 - kasbiy ta'lim ishlarini rejalashtiradi;
 - o'quv jihozlarni, uskunalarni, asboblarni, o'quv ko'rgazmali qo'llanmalarini mashg'ulot o'tkazishga tayyorlaydi;
 - kasbiy ta'lim mashg'ulotlari jarayonida o'quvchining nazariy bilimlari asosida ko'nikmalarini shakllantiradi;
 - kasbiy tayyorgarlikning samarali usullari, vositalari va shakllarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliy mashg'ulotlar jarayonida keng qo'llaydi;
 - tashkilotlar (korxonalar), xususiy shaxslar buyurtmasi asosida mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha shartnomalar tuzishda ishtirok etadi;
 - ishlab chiqarishni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi;
 - o'quvchilarning malaka ishlarini bajarishiga va bitiruv malaka ixtisos imtixonlariga tayyorlaydi;
 - birlashtirilgan guruhlarda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi;
 - uslubiy va fan komissiyalari, o'quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qiladi;
 - darsdan tashqari tadbirlarni o'tkazadi;
 - milliy madaniyat manbalariga o'quvchilarning qiziqishlarini o'rttirish ishlarida ishtirok etadi.
- Bilishi zarur:
- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun;
 - inson va bola huquqlari to'g'risida konvensiyalarni; davlatning ichki va tashqi siyosatini;
 - ta'lim va yoshlar to'g'risida hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarni, mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyatini;
 - ta'lim va pedagogika fanining asosiy yo'nalishlari va taraqqiyoti istiqbolini;
 - mehnatni ilmiy tashkil qilish va huquq asoslarini;
 - yoshlarni o'qitish masalalari bo'yicha hukumat va davlatning boshqa organlari qarorlarini;
 - kasb-hunar ta'limi pedagogikasi va psixologiyasini;
 - kadrlar tayyorlanayotgan iqtisodiy sohalar bo'yicha rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini;

- kasbiy pedagogika asoslarini;
 - marketing va menejment, mehnat qonunchiligi asoslarini;
 - mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalarini;
 - kasbiy ta'lim bo'yicha o'quv-rejalashtirish va hisobot hujjatlarini tuzish va yuritish tartiblarini;
 - texnologik tartib qoidalarini;
 - o'quvchilar mehnati gigienasini;
 - ishlab-chiqarish operatsiyalarining bajarilishini; va
 - ish joyini tashkil qilishni bilishi kerak.
- Malaka talablari:
- *1-toifali kasbiy ta'lim o'qituvchisi* - muhandis-pedagog, muhandis ixtisosligi bo'yicha magistr, muhandis-pedagog yoki kollej yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis va 2-toifali kasbiy ta'lim ustasi lavozimida kamida 3 yil ish stajiga ega bo'lishi lozim;
 - *2-toifali kasbiy ta'lim o'qituvchisi* - muhandis-pedagog yoki kollej yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis va kasbiy ta'lim ustasi lavozimida kamida 3 yil ish stajiga ega, muhandis-pedagog, muhandis ixtisosligi bo'yicha magistr ish stajiga talab qo'yilmaydi;
 - *kasbiy ta'lim o'qituvchisi* - muhandis-pedagog yoki kollej yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, ish stajiga talab qo'yilmaydi.
- Ayrim xalq hunarmandchiligi mutaxassisligi bo'yicha kasbiy ta'lim o'qituvchisi va 2-toifali kasbiy ta'lim o'qituvchisi lavozimiga ishlab-chiqarish korxonalaridagi tajribali, yuqori ishchi razryadlarga ega bo'lgan kadrlar va milliy hunarmandchilik ustalari ham qabul qilinishi mumkin.
- Muhandis-pedagogning lavozim majburiyatlarini ish bajarilish ketma-ketligiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:
- Rejalashtirish bo'yicha vazifalar;
 - Amalga oshirish bo'yicha vazifalar; va
 - Baholash va taxlil qilish bo'yicha vazifalar.
- Rejalashtirish bo'yicha vazifalar:
- davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar asosida ta'limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalashtirish;
 - o'quv reja va dasturlar asosida dars rejasini ishlab chiqish;

- ta'limni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o'quvchilarning qobiliyatlarini va bilimlarini baholash bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo'limlarida o'quvchilarni o'qitish joylarini rejalashtirish;
- qo'yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o'tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalashtirish;
- ustaxonada o'qitish uchun kerakli sharoitlarni tayyorlash; va
- o'quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.
- Amalga oshirish bo'yicha vazifalar:
- o'quvchilarni o'quv amaliyoti xonalari bilan tanishtirish;
- o'quvchilarni amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishga jalb etish;
- texnika xavfsizligi bo'yicha va amaliy topshiriqlar, mashqlarga taalluqli yo'l-yo'riqlar berish hamda ish o'rnida o'quvsuhbatlar o'tkazish;
- uskunalar bilan ishlash yoki ishlab chiqarish va ta'mirlash ishlariga taalluqli namoyishlarni o'tkazish; va
- an'anaviy 4 pog'ona usuliga yoki ta'limning boshqa usullariga asoslangan amaliy mashqlarni o'tkazish.
- Baholash va taxlil qilish bo'yicha vazifalar:
- o'quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, taxlil qilish va baholash;
- o'quvchilarning o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
- o'quvchilarning xulqini baholash;
- ta'limning mavjud sharoitlarining sifatini baholash;
- rejalashtirish va tashkillashtirish bo'yicha hujjatlarning sifatini baholash;
- o'quv-didaktik materiallarning sifatini baholash;
- o'zi bergan yo'l-yo'riq va namoyishlarni o'zi baholash; va
- berilgan topshiriqlarning sifatini o'zi baholash.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Muhandis-pedagogning lavozim vazifalari namalardan iborat?

2. Pedagog o'qituvchilik faoliyatini olib borishi uchun nimalarni bilishi kerak?
3. 1-toifali kasbiy ta'lim o'qituvchiga qo'yiladigan talablar.
4. 1-toifali kasbiy ta'lim o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.
5. Oliy toifali kasbiy ta'lim o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.

Adabiyotlar

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
3. Anorqulova G.M. Parpiyev O.T. Kasb-hunar ta'limida o'yinli texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. 2007. – 48
4. Рашидов Х., Хабиб Х., Елдашева Г., Закиров А. Касбий педагогика. Ўқув кўлланма. Т. -2007 й. -182 б
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
6. Ro'zieva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
7. www.tdpu.uz.

10- MAVZU: TARBIYA JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH

Reja

1. Barkamol shaxsni tarbiyalash muammolari
2. Tarbiya texnologiyalarini modellashtirish
3. Tarbiya texnologiyalari

Aziziddin Nasafiy o'zining "Komil inson" nomli kitobida shunday yozadi: "*Bilgilki, komil inson quyidagi to'rt narsaga mukammal shaklda ega bo'lgan insondir. Ularning birinchisi, yaxshi so'z, ikkinchisi, ezgu faoliyat, uchinchisi, go'zal axloq, to'rtinchisi, ilm*". Ushbu mukammal shakllarga ega bo'lgan inson buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asoslarini quradi. Komil insonni tarbiyalash va voyaga etkazish jarayoni – pedagogik faoliyatning uzluksiz jarayoni bo'lib, pedagogik texnologiyaning so'nggi namunalari doirasida amalga oshiriladigan hamda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan tashkiliy faoliyatdan iborat. Bu faoliyatda o'qituvchi tarbiyaviy jarayonning quyidagi asosiy xususiyatlarini bilishi kerak:

- tarbiyaning yaxlitligi;
- tarbiyaning tizimligi;
- tarbiyaning davriyligi;
- tarbiyaning texnologiyaviyligi.

Tarbiyaning yaxlitligi tarbiyalash va o'qitish jarayonlarining, shuningdek o'quvchilarni jamiyat talablari asosida kamolotga etkazish va shakllantirishga qaratilgan maqsadning ajralmas birligi tushuniladi. Tarbiyalash va o'qitish, garchi ilm-fan ularni farqlasada, bir-biriga bog'liq va ko'p umumiylikka ega. SHu ma'noda uzoq tarixga ega millatimiz "*ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratmagan – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi*" (I.A.Karimov.). O'qitishning mazmunini asosan dunyo haqidagi ilmiy bilimlar tashkil etadi. Tarbiyaning mazmunida me'yorlar, qoidalar, qadriyatlar, ma'naviy boyliklar ustunlik qiladi. O'qitish asosan aql-idrokka ta'sir

ko'rsatadi, tarbiyalash esa, birinchi navbatda shaxsning doimiy iste'mol sohasiga aylangan. Ikkala jarayon shaxsning ongi va xulq-atvoriga birday ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratadi. Qanchalik yaqin bo'lishiga qaramay, bu o'ziga xos jarayonlar bo'lib, ilm-fan ularni tarbiya nazariyasida va didaktika (ta'lim jarayoni)da alohida ko'rib chiqadi. Bunda o'qituvchi tomonidan zamonaviy shart-sharoitlarga asoslangan holda uslubiy tamoyil va ayniqsa dolzarb hisoblangan butun pedagogik jarayonning yaxlitligi ta'minlanadi.

Tarbiyaning tizimligi tarbiyaviy jarayonda umumiylikni tashkil etadi, chunki tarbiyaviy jarayonlar bir nechta tizimlarning turli xususiyatlaridan iborat. Aytish mumkinki, tarbiyaviy jarayonlar — bu tarbiyaviy tizim holatlarining ketma-ket almashinuvidir. Tarbiyaviy jarayonni tizimli ravishda ko'rib chiqish, tizim va jarayonning tuzilmaviy xususiyatlarini, shuningdek, ular o'rtasidagi funksional aloqalarning ajratib ko'rsatilishini ifodalaydi. O'qituvchi uchun har bir tarbiyaviy uslubning o'ziga xos xususiyatini, mohiyatini, birining boshqasiga ta'siri natijasida o'zgarishini anglab etishi muhim ahamiyat kasb etadi. *Masalan, tarbiyalash maqsadi uning mazmunini belgilab beradi, tarbiya ko'rganlik darajasi esa tarbiyalash usullarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi va hokazo.*

Pedagogik jarayonda **tarbiyaning davriylik** tuzilishi — bu tarbiya texnologiyalarining asosiy xususiyatlariga muvofiq bo'lgan, uning tarkibiy qismlari yig'indisidir. O'qituvchi buning natijasida tarbiyaning davriylik tuzilmasini belgilab olishi mumkin:

1. Maqsadni belgilash — tarbiyalashdan kelib chiqadigan maqsadlarni ma'lum bir muddatli jarayonlarga bo'lib chiqish.
2. Mazmunni tanlash — tarbiyalash mazmunini jamiyat talablari darajasida mustaqil ishlab chiqish.
3. Demokratik faoliyat — tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarini tarbiyalashda va o'zaro munosabatda erkin fikrlilik va umuminsoniylik me'yorlariga rioya qilish qonuniyatlari.
4. Baholash — tarbiyalash jarayonida erishilgan natijalar samaradorligining o'qituvchi tomonidan baholanib borishi va doimiy tahlil qilinishi.

Pedagogik faoliyat ham o'qituvchi tomonidan tarbiyaviy jarayonning tuzilmasiga muvofiq quriladi: faoliyatning maqsadlari, mazmuni, usullari va turlari ishlab chiqiladi va natijalari tahlil

qilinadi. Tarbiyalash maqsadlarini aniqlash pedagogik aniqlashni (diagnostika) — tarbiyaviy jarayon holati, birinchi navbatda o'quvchilarning tarbiya ko'rganliklarini, shuningdek, jarayonning boshqa shartlarini o'rganishni talab etadi.

Tarbiyaviy jarayon bosqichlarining o'zaro munosabatida tarbiyaviy jarayonlarning ketma-ketligi uning davriyligini va qaytarilib turishini belgilaydi. SHaxs rivojlanishida tarbiyaviy maqsadlar o'qituvchi tomonidan uning yoshiga qarab belgilanadi va rejalashtiriladi. Tarbiyaviy jarayonning davriyligi shaxsning yosh xususiyatlarini hisobga oladi. Bunda asosiy e'tibor quyidagi faoliyatga qaratilishi kerak:

- shaxsning muayyan bir yoshiga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarning chuqur o'rganilishi;

- davriylik tizimi asosida tarbiyaviy ish faoliyatining tashkil etilishi;

- muayyan bir yoshga xos bo'lgan tarbiyalanganlikning doimo aniqlanib (diagnostika), loyihalashtirilib borilishi;

- ijobiy natijalar beradigan tarbiyaviy o'zaro ta'sirning o'qituvchi tomonidan turli shakl va metodlari darajalarining belgilanib (diagnostika) amalga oshirilishi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi ta'lim muassasalarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish va unga erishishga sharoit yaratadi, nazariy asoslangan uzluksiz davom etadigan tarbiyalash jarayonining shakllari, metodlari, usullari va vositalarini o'qituvchi to'g'ri tanlab natijalarga erishishini ta'minlaydi. U ilmiy modellash (loyihalashtirish) asosida amalga oshiriladi, modellashda tarbiyaviy maqsadlar bir xil ma'noda beriladi hamda o'qituvchi tomonidan insonning shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini rivojlantirishning muayyan bosqichlarini ob'ektiv ravishda o'lchash va baholash imkoniyatlarini yaratadi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi har qanday pedagogik tizimda — ilmiy muammolar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan tushunchadir. Biroq, agar ilmiy muammo tarbiyalanuvchiga bilim berish, ilmiy tafakkurini oshirish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi maqsadlarni ifodalaydigan bo'lsa, u holda tarbiya texnologiyasi o'qituvchiga o'quvchilarni tarbiyalash yo'l-yo'riqlari va ularga erishish vositalarini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi tarbiyalashga yo'naltirilgan ilmiy muammo sifatida o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun lozim bo'lgan va komil insonga xos barcha insoniy fazilatlarini muayyan shart-sharoitlarda uzluksiz tarbiyalash asosida takomillashtirishni nazarda tutadi, bu esa ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini ham belgilaydi.

O'qituvchining tarbiyaviy maqsadlarni to'g'ri tanlashi *volyuntaristik (ko'ngilchanlik) xarakterga ega bo'lmazligi lozim.* U pedagogikaning uslubiyoti, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, ushbu jarayon yuzasidan qabul qilingan maxsus Qonun va Qoidalar asosida belgilanadigan maqsadlar va milliy qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy tasavvurlar, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Tarbiya texnologiyasida o'qituvchi tomonidan belgilanadigan maqsadlar turli darajada bo'lishi va bosqichma bosqich bir biriga bo'ysunishi, ketma-ket bajarilishi mumkin. Biroq tarbiyaviy maqsadning asosiy mohiyati — davlat maqsadlari, ijtimoiy buyurtmalardan kelib chiqishi lozim. Aytish mumkinki, asosiy daraja — mamlakatda inson va uning fuqarolari qadr-qimmatini to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarni aks ettiradigan maqsadlardir. Ular mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi, hukumat tomonidan qabul qilinadi, qonunlar va boshqa hujjatlarda qayd etiladi. Keyingi daraja — ta'lim dasturlari va standartlarida aks etadi. Maqsadlar, ya'ni davlat ta'lim standartlari, maxsus ta'lim tizimlarining va ta'lim bosqichlarining maqsadlari. eng quyi daraja — muayyan yoshdagi kishilarni tarbiyalashda maqsadning birligi.

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, tarbiyaviy faoliyat natijasida yuksak ma'naviy va axloqiy xislatlarga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tasodifiy harakatlar orqali emas, balki, oldindan belgilangan va puxta o'ylab tuzilgan tarbiyaviy maqsadlar asosida olib boriladi. Tarbiyaviy texnologiyada uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'z o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qituvchining tarbiyalash maqsadlarini to'g'ri belgilashi va yo'lga qo'ya olishiga nisbatan g'oyaviy yondashuv ijtimoiy buyurtma asosida belgilanib, amalga oshirilishida mavjud shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi.

Tarbiya texnologiyalarini modellashtirish. Modellashtirish – ob'ektlarda ijtimoiy reallikning muayyan qismlarini tadqiq etish uslubi hamda predmetlar va hodisalarning real mavjud bo'lgan hamda quriladigan modellarini o'rganish va ishlab chiqishdir. Shunday ekan, tarbiya texnologiyalarini ham ishlab chiqish va amalga oshirishda modellashtirishdan foydalanish ularni yaxlit pedagogik hodisa sifatida uslublarini o'rganib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Modellashtirishning shakli va qo'llanilishi foydalaniladigan modellar va ularni qo'llash sohalariga bog'liq. Tarbiya texnologiyalarining samaradorligini oldindan ko'ra bilish yoki loyihalashtirishda va tadqiq etishda modellashtirishdan foydalanish to'g'risidagi muammo "pedagogik modellashtirish" nomini olgan.

Modellar xarakteriga ko'ra predmetli va belgili (informasion) modellashtirishga bo'linadi. Shartli ravishda ular asl ob'ektning belgilangan funksional xususiyatlarini ifodalaydi.

Pedagogik faoliyatda maxsus reja asosida olib boriladigan tadqiqot modellari **predmetli modellashtirish** deb ataladi.

Jadvallar, chizmalar, formulalar kabi modellar **belgili modellashtirish** sifatida namoyon bo'ladi.

Modellashtirilishi lozim bo'lgan ob'ektning xarakteri va yosh xususiyatlariga ko'ra avvalo, uning xulq-atvori (unda kechadigan tarbiyaviy jarayonlarga amal qilinishi) modellashtiriladi. Bunda tarbiya texnologiyasining quyidagi ikkita muhim jihatini e'tiborga olish zarur:

1. Barcha tarbiyalanuvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan tarbiyaviy jarayonni modellashtirish.

2. Pedagogik faoliyatda mukammal tarbiyalanishi mumkin bo'lmagan tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan o'zaro tarbiyaviy faoliyatni modellashtirish.

Tarbiyaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda modellashtirishdan foydalanishning bayon etilgan nazariy asoslaridan tashqari yana bir nechta mustaqil, biroq o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi kuchga ega bo'lgan tarbiyaviy jarayonning bir-biri bilan o'zaro bog'liq jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

• tarbiyaviy faoliyatda ob'ekt va sub'ektning o'zaro kommunikativ munosabati;

• bir maqsadga qaratilgan va aniq mazmunga ega tarbiyaviy metodlar;

• uzluksiz faoliyatli tarbiyaviy jarayon va uning ijobiy natijalari;

• guruh jamoasi norasmiy etakchisi (lideri)ning tarbiyaviy jarayonga ta'siri.

1) Ob'ekt va sub'ektning o'zaro kommunikativ munosabati tarbiyaviy texnologiya modelida asosiy faoliyat ko'rsatuvchi deb e'tirof etiladi. Unda tarbiyalashni amalga oshiradigan o'qituvchi yoki shaxslar guruhi, shuningdek, manfaatlari doirasida tarbiyaviy o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil etuvchi shaxs yoki ijtimoiy muhit guruhi (masalan: sinf guruhi) tushuniladi.

2) Tarbiyaviy reja asosida tarbiyalashning bir maqsadga yo'naltirilganligi, tarbiyaviy texnologiya unsurlarini modellashtirishda o'qituvchi tomonidan belgilangan hamda ob'ektning tarbiyalashdan ma'lum bir maqsadni ko'zlash yoki faraz qilishdir. Ushbu jarayon asosida o'qituvchi ishtirokida olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatning bir maqsadga qaratilganligi aniq mazmunga ega tarbiyaviy vositalarda, shakl va metodlarda ifodalanadi.

3) Uzluksiz faoliyatli tarbiyaviy jarayon tarbiyaviy texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ta'limning uzluksizligini va nafaqat ta'lim muassasalarida olib borilishini bildiradi. Ota-ona yoki avlod-ajdodlarga xos bo'lgan nutq, tafakkur, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste'dod alomatlarining irsiyat orqali bolaga o'tishini ta'minlovchi **biologik omillarning** (layoqat va iste'dod mudroq holatda bo'lib, uning uyg'onishi uchun oilada va ta'lim-tarbiya muassasalarida qulay sharoit yaratish talab etiladi) hamda shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi oila, maktab, do'stlar va tengqurlar davrasi kabilarni o'z ichiga oluvchi mikromuhitning uzluksiz tarbiyaviy jarayonda ta'siribeqiyosligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, oila muhiti shaxsning shakllanishida o'ziga xos muhim tarbiyaviy maskan bo'lib, nihoyatda keng tarmoqli ta'sir etish quvvatiga ega. Ota-onaning tarbiyalanganligi va tarbiyaviy tajribalarni mukammal bilishi, bola tarbiyasida doimiy nazorat va javobgarlik hissi o'zbek oilasi uchun eng qadrlil burch sifatida e'zozlanadi. Bularning barchasi tarbiyalanuvchi sub'ektga nisbatan komil inson shaxsiga xos sifatlarini shakllantirishga qaratilgan.

4) **Guruh jamoasida norasmiy etakchining (lider) xatti-harakati va xulq-atvori bilan tarbiyaviy jarayonga ta'sir etishi** guruhda tarbiyalanuvchilarning barcha hayotiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Bolalar va o'smirlar jamoasidagi lider (yetaklovchi, boshlovchi) o'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan guruhda rasman tayinlanmaydi. Jamoadagi bolalarga norasmiy etakchilik qiluvchi o'quvchi o'qituvchilar oldida e'tibordan chetda yuradi, o'zining qattiq qo'lligi, xarakteridagi guruhga etakchilik qilishga xos tug'ma qobiliyati, mustahkam irodaga egaligi, qo'rqmasligi bilan guruh a'zolarining hurmatini qozonib, jamoadan ajralib chiqadi va o'zi bilan hammaslak, hamfikir bolalarni etaklaydi. Norasmiy liderning har qanday faoliyati salbiy oqibatlariga olib kelishi yoki ijobiy natijalar berishi ham mumkin. Bunda o'qituvchining mahorati, psixologik tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining norasmiy liderga nisbatan qattiqqo'lligi, tarbiyaning jazolovchi metodlarini qo'llashi foyda bermaydi, aksincha zararli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O'qituvchi o'zining ziyrakligi va chuqur psixologik bilimi, yuksak pedagogik mahorati bilan avvalo o'quvchilar guruhi jamoasidagi liderni aniqlashi, kerak bo'lsa, unga yon bosib, o'z tomoniga og'dirib olishi lozim. Pedagogik mahoratning ishontirish va ta'sir etish usullari asosida norasmiy lider ongiga sezdirmasdan kirib borib, o'z ta'sirini o'tkaza olgan o'qituvchi guruh jamoasida bir xil tarbiyaviy muvozanatni saqlay oladi. Shundan keyin tarbiyaviy texnologiyaning ma'qul bo'lgan unsurlarini modellashtirib qo'llashi va cho'chimasdan tarbiyaviy faoliyat olib borib, belgilangan maqsadga erishishi mumkin.

O'quvchilar jamoasida norasmiy etakchilar bilan birga rasmiy, o'qituvchilar tomonidan tayinlangan yo'l boshchilar ham mavjud. Odatda, rasmiy yo'l boshchilar tarkibini a'lo baholarga o'qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o'quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalar-da, ayrim sifatlariga ko'ra tengdoshlarini o'z ortlaridan ergashtiradilar. Norasmiy liderlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o'quvchilarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. SHu bois sinf rahbari bilan birga o'quv muassasasi pedagogik jamoasi norasmiy liderlarni aniqlab ular faoliyatini bevosita nazorat qilib borishlari zarur.

O'quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda guruh rahbari tomonidan amalga

oshiriladi. SHu sababli guruh rahbari guruhning umumiy hamda har bir a'zosining individual xususiyatlarini bilishi, xulq-atvoridagi har bir o'zgarishni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Guruh rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishi, ota-onalari bilan muntazam aloqada bo'lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

O'qituvchi tarbiyaviy faoliyatining barcha unsurlari o'zaro aloqadorligini va o'zaro bog'liqligini nazariy va amaliy jihatdan tushunishga tarbiyaviy jarayonni to'g'ri yo'naltirishga imkoniyat beradi. Bunda pedagogikada tarbiyaviy o'zaro ta'sir ko'rsatishning shakllari, metodlari, usullari va vositalarini ochib beradigan hamda tarbiyaviy texnologiyalarning "pedagogik vositalari"ni shakllantiruvchi faoliyati va natijalariga, tarkibiy qismlariga alohida e'tibor qaratiladi. O'qituvchi avvalo tarbiyadan kelib chiqadigan maqsadga to'g'ri baho bera olishi kerak.

Tarbiyaviy jarayon va tarbiya mazmunini modellashtirish. Tarbiyaviy jarayonni modellashtirishda o'quvchilarning hayoti va faoliyatini ta'lim muassasalarida pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish uchun, ularning tashqi ta'sir etuvchi omillarga nisbatan ta'sirchan munosabatda bo'lishini unutmazlik kerak. Pedagog va psixolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, shaxsga tashqi omillarning o'zaro (xoh salbiy, xoh ijobiy bo'lsin) ta'siri avvalo o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga bog'liq. O'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatini uyushtirayotganda o'qituvchi yoki tarbiyachi tashqi ta'sir etuvchi omillarga nisbatan tarbiyalanuvchining munosabatini, kechinmalarini, qanday anglashini, baholashini ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur.

Tarbiya jarayonini modellashtirishda o'quvchining nafaqat ongi, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishga erishish lozim, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilarning ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonga faol kirib borishlarini o'z xoxish istaklari bilan tarbiyaviy faoliyatga faol ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Ushbu faoliyatni


modellashirishda o'qituvchi o'quvchilar jamoasining manfaati va talab istaklarini e'tiborga olishi zarur. Bola o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi. Ushbu holatlar tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Jamiyatda axborot kommunikasion texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanib borishi natijasida o'quvchilar ko'p vaqtlarini ta'lim va tarbiyaga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kommunikasion texnologik ma'lumotlarga sarflamoqdalar (mobil telefonlar, internet, kompyuter, DVD filmlar va boshqalar). Ushbu vositalardan oqilona foydalanishni o'quvchiga o'rgatish, ta'qiqlangan texnik vositalardan foydalanishni man etish, ularni nazorat qilish o'qituvchilar va ota-onalarning hamkorlikdagi vazifalariga kiradi. O'quvchilarning ko'p vaqtlarini olayotgan keraksiz texnik ma'lumotlarni bartaraf etish uchun faqat modellashtirish asosida ish olib borish mumkin. O'qituvchining tarbiyaviy ishlar rejasida ushbu muammolar yuzasidan turli mavzudagi suhbatlar uyushtirish o'rin olishi lozim. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Aks holda xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida o'quvchi ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ma'lumotlarga va tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan bo'lib qolishi mumkin. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilangan tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishda ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi:

Tarbiyani samarali modellashtirish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, har bir o'quvchining tarbiya jarayonidagi faoliyatini yaxshi bilish kerak. Buning uchun o'qituvchi quyidagi holatlarni unutmashligi lozim:

- tarbiyalanuvchi ruhiyatini puxta bilish;
- ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lib, ular ishtirokida o'quvchi bilan tarbiyaviy mazmunda suhbatlar o'tkazish;
- o'quvchining ichki dunyosini, xarakterini bilmasdan u bilan qo'pol muomalada bo'lmaslik, sodir etilgan xatoliklarni kechira olish;
- o'quvchining qiziqishlarini, uni o'rab turgan tashqi muhitni

doimiy nazorat qilish;

- o'quvchini qat'iy kundalik rejimga o'rgatish va uni kuzatib borish;
- iste'dodini, qobiliyatini va o'zi tanlagan kasbga moyilligini e'tiborga olib uni takomillashtirish;
- uning bola ekanligini, adashishini, ba'zan xatoliklarga yo'l qo'yishini unutmashlik, ushbu salbiy holatlarni kechiktirmasdan tuzatib borish.



Tarbiyaviy jarayonni modellashtirish

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan modellashtirilgan va puxta o'ylangan rejalar asosida belgilanib hal etib boriladi.

Tarbiyaviy jarayonni modellashtirishda o'qituvchi bilimli, raqobatbardosh etuk kadrlarni tarbiyalash uchun javobgar shaxs ekanligini unutmashligi kerak. Ushbu vazifalar tarbiya texnologiyalari maqsadlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish uchun tarbiyaning quyidagi umumiy vazifalarini hal etish o'qituvchi-tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan:

a) o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va maqsad birligi hissini uyg'otish;

b) o'quvchilar ongini mustaqil davlatchiligimiz siyosatining tub mohiyati mujassamlashgan milliy mafkuramiz va umuminsoniy

qadriyatlar, chuqur bilim va tafakkur, keng dunyoqarash bilan boyitib borish;

d) umuminsoniy axloq me'yorlari (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatli bo'lish, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglashiga, muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

e) o'quvchilarda huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg'usi, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

f) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasida mas'uliyat hissini rivojlantirish;

j) vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

z) O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;

k) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, rahm - shafqatli bo'lish, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmatini, huquq va burchlarini hurmat qilishga o'rgatish.

Shu bilan birga, tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari bo'lmish, axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning g'oya va maqsadlari o'qituvchi tomonidan modellashtirilib, bajariladigan vazifalar belgilab olinadi va amalga oshiriladi. Ushbu tarbiyaviy vazifalar mazmunini anglagan holda o'qituvchi quyidagi faoliyatni olib borishi lozim:

1) **Axloqiy tarbiyani** tashkil etish jarayonida o'qituvchi ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor bo'lishi, ularga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimizdan kelib chiqib belgilangan axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini bilishi, ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqlar) asosida o'quvchilarda axloqiy ong va madaniyatni shakllantirishi.

2) **Aqliy tarbiyani** yo'lga qo'yish asosida o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etadi, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish bilan tafakkuri shakllantiriladi, dunyoqarashi rivojlantiriladi.

3) **Jismoniy tarbiyani** tashkil etish jarayonida o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltiradi, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, iroda va xarakterni qaror toptirish) jismoniy harakat sifatlarini rivojlantirish.

4) **estetik tarbiyani** olib borish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalaydi, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantiradi, estetik madaniyat rivojlantiriladi.

5) **ekologik tarbiyani** olib borish chog'ida o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat uyg'unligi hamda aloqadorligi haqidagi ma'lumotlar tushuntiriladi, ularda ekologiyaning insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalar qaror toptiriladi, o'qituvchi tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi.

6) **Iqtisodiy tarbiyani** tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyatga faol ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qildiradi, inson mehnati bilan asrlar davomida bunyod qilingan moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptiradi, iqtisodiy madaniyatni shakllantiradi.

7) **Huquqiy tarbiyani** tashkil etish jarayonida o'quvchilarga davlatimiz Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining mazmuni tushuntiriladi, ular ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalar singdiriladi, huquqiy munosabat va madaniyat mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo'lishni ta'minlaydi.

8) **G'oyaviy-siyosiy tarbiyani** tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi,

davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini to'g'ri tushunishni ta'minlash asosida siyosiy faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni tarkib toptiradi, siyosiy madaniyat me'yorlari shakllantiriladi.

Tarbiya qonuniyatlari va tarbiya mazmuni tamoyillarini modellashtirish. Tarbiya texnologiyasida tarbiya jarayoni, mazmun va mohiyatidan kelib chiqib belgilangan vazifalarni o'qituvchi amalga oshirishi uchun uning o'ziga xos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya eng muhim qonuniyatlaridan biri aniq maqsadga yo'naltirilganligidir. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. yagona maqsadga erishish yo'li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini tavsiflaydi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (sub'ektiv va ob'ektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Sub'ektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, ob'ektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turli-tuman qarashlar mavjud bo'lgan bir sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi.

Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiya shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiyada muvaffaqiyatga erishish

uchun o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligi talab etiladi.

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati uning uzluksizligi sanaladi. Ta'lim muassasasida olib borilayotgan tarbiya jarayoni –bu o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni tarbiyalashda ta'lim muassasasi etakchi o'rin egallasa ham, o'quvchilarga uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olmaydi, chunki o'quvchilar ma'lum muddatgina ta'lim muassasasida, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtining asosiy qismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'tillar davrida o'quvchilar ta'lim muassasasi o'qituvchisi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, ta'lim muassasasida o'quvchilarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining ta'siri hamda nazoratidan uzoqlashadilar. Ayni vaqtda respublikada o'quvchilarning ta'lim muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar hamda xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishlari, texnik va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuvlar, ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlar, suhbatlar o'quvchilarning tafakkurini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutmoqda.

Tarbiya jarayonining yana bir qonuniyati – bu uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlarini birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarni navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtira boradi, shu bois pedagogik ta'sir ham

yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi lozim. Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati qator pedagogik talablarga amal qilish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni qaror toptirishni talab etadi.

Tarbiyaning yana bir qonuniyati shundan iboratki, bu jarayon ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega bo'lib, unda o'quvchining o'zi ham faol ishtirok etadi. Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyasiga muvofiq, endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining ob'ektigina bo'lib qolmasdan, sub'ekti sifatida ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar va axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakun topadi. Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – tarbiyada qarama-qarshilikning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarga o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Undan tashqari ushbu qarama-qarshiliklar ko'pincha o'quvchining ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yosh psixologik, fiziologik xususiyatlarini (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog'lomligi) yaxshi bilmasliklari oqibatida sodir bo'ladi.

Demak, tarbiya jarayonida quyidagi qonuniyatlar modellashtirilishi mumkin:

O'qituvchi tarbiya mazmunini shaxsning barkamol inson darajasida shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatini anglagan holda modellashtiradi. Ushbu modellashtirilgan mohiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy muhitda kishilar bilan o'zaro munosabatlar darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilanadi. Modellashtirish asosida o'qituvchi quyidagi zamonaviy tarbiya mazmunining tamoyillarini belgilab oladi:

1. Maqsadning aniqligi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikka erishgan dastlabki yillardayoq yosh avlodni tarbiyalashda aniq maqsadlar belgilab olindi. 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'rsatilgan vazifalarga asosan tarbiyaning asosiy maqsadi erkin, ijodkor, mustaqil fikrga ega bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa – bo'lajak kadrlar salohiyatini har tomonlama yuksaltirish, ularda madaniyat va ma'naviyat unsurlarini shakllantirish, ya'ni har bir shaxsning kasbiy bilimlarni puxta egallashda aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy jihatdan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat.

2. Birgalikdagi faoliyat. O'qituvchilar o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunalarini izlashi, shu asosda tarbiyaviy faoliyatni hayotiy me'yor va qadriyatlar bilan mutanosibligini ta'minlashi, o'quvchilarning tarbiyaviy dunyosiga chuqur kirib borib, o'zaro yaxshi munosabatlar asosida ularning axloqiy tafakkurini shakllantirishi lozim. O'qituvchining pedagogik mahorati, tarbiyaviy faoliyatda doimo o'rnak bo'lishi o'quvchilar faolligini ta'minlaydi. Zero, dunyoqarashi hali mukammal shakllanmagan o'quvchilar uchun o'qituvchilarning ma'naviy dunyosi, hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari ulkan tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

3. O'z-o'zini anglash. Barkamol avlodni tarbiyalashdan asosiy maqsad, yoshlarda e'tiqod, demokratik qarashlar va ijtimoiy hayotda o'z mustaqil fikriga va mustahkam pozitsiyasiga ega bo'lish shakllantiriladi. Insonning hayotda o'z-o'zini anglashi tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri sanaladi. O'quvchilar o'zlarining shaxsiy hayoti va faoliyatlarini sub'ekt sifatida e'tirof etib, o'z-o'zlarini qanday anglashi bilan tavsiflanadilar. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy jihatdan o'z-o'zini anglashi muhim ahamiyatga egadir.

4. Iroda erkinligi. Tarbiya jarayoni o'qituvchi tomonidan oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchi ma'naviyatini boyitadi. Agar o'qituvchi o'quvchining qiziqishini, faoliyatini, o'rtoqlik va fuqarolik burchini his etishini, mustaqillikka intilish tuyg'ularini anglab, uni takomillashtirib borsa, o'quvchida yuksak

iroda va erkinlik tuyg'ulari shakllanib boradi.

5. Tarbiyaning shaxsga yo'naltirilganligi. Mazkur g'oya barcha ta'lim muassasalari amaliyotining markaziy nuqtasida o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlar dasturida, turli tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan tadbirlarda, tarbiyaning shakl, metod va vositalarida asosan o'quvchi shaxsi turganligini anglatadi. Tarbiyaviy jarayonda uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos xarakteri, o'z qadr-qimmatini anglash tuyg'ulari modellashtirish asosida rivojlantirilib boriladi.

6. Jamoaning ta'siri. O'quvchilarda barkamol insonga xos xususiyatlar avvalo, sinf jamoasida rivojlantiriladi. Sinf jamoasining tarbiyaviy ta'siri ostida o'quvchining bir-birlariga nisbatan ijobiy munosabatlari qaror topadi, jamoa yordamida o'quvchi har tomonlama kamolotga erishadi, dunyoqarashi shakllantiriladi, insonparvarlik va o'zaro hamkorlik tuyg'ulari rivojlantirilib boriladi.

Zamonaviy tarbiya mazmunida ilgari surilgan g'oyalarni modellashtirilishi yaxlit tarzda quyidagi ko'rinishga ega:

Tarbiya mazmunining mukammal belgilangan qonuniyatlari mavjud bo'lib, u asrlar davomida har bir davrning talablariga mos ravishda takomillashtirilib kelingan. Tarbiya mazmunida tarbiyalanuvchining yoshi va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab belgilangan tarbiyaviy maqsad va vazifalarga muvofiq ular tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda axloqiy sifatlari mujassamlashgan.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tarbiya jarayoni vazifalari namalardan iborat?
2. O'qituvchilarning tarbiyaviy vazifalariga nimalar kiradi?
3. Tarbiya texnologiyalariga nimalar kiradi?
4. Tarbiya ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega deganda nimani tushunasiz?
5. Tarbiya turlari boyicha amalga oshirish deganda nimani tushunasiz?
6. Zamonaviy tarbiya mazmuniga nimalar kiradi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
3. Anorqulova G.M. Parpiyev O.T. Kasb-hunar ta'limida o'yinli texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. 2007. – 48
4. Рашидов Х., Хабиб Х., Елдашева Г., Закиров А. Касбий педагогика. Ўқув қўлланма. Т. -2007 й. -182 б
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
6. Ro'zieva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

11-MAVZU. PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI O'QITUVCHISINING FAOLIYATI VA PEDAGOGIK MAHORAT

Reja

1. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari.
2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati.
3. O'qituvchining faoliyati va pedagogik mahorat/

Pedagoglik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir pedagogning muhim hayotiy o'rni o'z ishining ustasi bo'lishdir. Master (usta) juda ilgor, bilimdon, yoki uz ishini mohirlik bilan bajaruvchi deb ifodalanadi. pedagog mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. Pedagog avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari. uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Mahorat (a. "mahorat" – mohirlik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish.

Mahorat-bu alohida qudrat. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog'idagina go'zaldir. Pedagogik mahoratga etishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatleri bilan amalga oshadi. Pedagogik maxorat yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni. shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

Pedagogik mahorat – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishining individualligini xarakterlaydi.

Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

- Pedagogik mahorat;
- Pedagogik ijod;

- Novatorlik;
- Kasbiy bilimdonlik;
- Faoliyat uslubi;
- Innovatsion faoliyat;
- Pedagogik texnologiya;
- Mahorat.

O'z ishining mohir ustasi bo'lgan pedagog – bu yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san'atning tegishlu sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyotini mukammal egallagan mutaxassisdir.» Bu ta'rifni yaxshi tushunib, uning uning ma'no mohiyatini tahlil etadigan bo'lsak, Ushbu ta'rifda pedagogik mahorat tushunchasi mazmunga kiradigan quyidagi masalalarni ajratish mumkin bo'ladi:

1. umumiy madaniyatning yuqori darajasi va bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatgichi;
2. o'zining o'qitayotgan faniga doir keng va chuqur bilim sohibi;
3. pedagogika, umumiy va pedagogik psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlar bilan qurollanganlik, ularda o'qitish va tarbiyalash ishlari tajribasida erkin va ustalik bilan foydalana bilish;
4. o'quv-tarbiya ishlari metodikasini mukammal egallanganlik.

Pedagogik mahoratning mazmunida quyidagi o'zaro bog'lik bo'lgan asosiy qismlarni ajratish mumkin:

1. pedagogik insonparvarlik yo'nalishi;
2. ixtisos mutaxassislikka doir bilimlar;
3. pedagogik qobiliyat;
4. pedagogik texnika (ko'nikma-iqtidor).

Pedagogik mahorat vazifalari: tarbiyaning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiyot ettirishda tarbiyaning rolini ochib beradi, tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usullari, uni tashkil etishdagi shakllari o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatadi: shuningdek pedagogik mahorat fani o'z taraqqiyoti davomida ta'lim-tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari yo'llarini yoritib beradi, tarbiyaviy ishlarning shakllarini ko'rsatib beradi. Pedagogning pedagogik mahorati shunday bir malakalar yig'indisidirki, u pedagogik tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali o'z fikrlarini etkazish imkonini beradi.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari:

• Nutq malakalari
• Tushunarli ta'sirchan fikr va his-tuyg'ularni so'zda aniq ifodalash

- Mimika va pantomimika
- Ma'noli qarash
- Hissiy psixik holat
- Kayfiyat yoki istehzoli tabassum
- Savodli gapirish
- Aniq imo-ishora
- Rag'batlantiruvchi munosabat
- Ijodiy jiddiylik.

O'qituvchining innovatsion faoliyati va innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari:

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir.

Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib,

mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini echishni aniqlashga qaratilganidir.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot namunasi o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu o'qituvchi va o'quvchining ijodagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;
- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;
- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samardorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost),

yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi

Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'ektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yori o'qituvchi va o'quvchining natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilik dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;
- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishqlik darajasini aniqlash;
- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- shaxsning ijodiy-motivatsion yo'nalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga intilish va boshqalar;
- kreativlik. Bu - hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;
- kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;
- o'qituvchining individual qobiliyati. Bu - ijodiy faoliyat sur'ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat'iyatlik, o'ziga ishonch; mas'uliyatlilik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar.

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o'qituvchi shaxsidir.

O'qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
 - yangicha harakat qila olishga o'rgatish.
- Innovatsion faoliyatni tashkil etishda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.
- Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari

yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Mahorat mohiyati nimadan iborat?
2. Pedagogik mahorat nima?
3. Pedagogik mahoratni tashkil etuvchi komponentlariga nimalar kiradi?
4. Pedagogik texnika nima?
5. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga nimalar kiradi?
6. O'qituvchi-novator deganda nimani tushunasiz.

Adabiyotlar

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
3. Anorqulova G.M. Parpiyev O.T. Kasb-hunar ta'limida o'yinli texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. 2007. – 48
4. Рашидов Х., Хабиб Х., Елдашева Г., Закиров А. Касбий педагогика. Ўқув қўлланма. Т. -2007 й. -182 б
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.; 2006. – 260 b.
6. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

12-MAVZU. PEDAGOG MEHNATINI TASHKIL ETISHNING ILMIIY ASOSLARI

Reja

1. Pedagogik tadqiqot metodlari.
2. Pedagogik tajribalarni amalga oshirish bosqichlari.
3. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, pedagog faoliyatiga sharqona qarashlar.

Pedagogik faoliyat amaliyotidan shu narsa aniq ravshanki, har qanday ilmiy xulosa tajriba va ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Insoniyat bor ekan ta'lim tarbiya sohasiga oid pedagogikada, xususan ta'lim va tarbiyada ilmiy tadqiqotlar hech qachon to'xtamaydi va uzluksiz davom etaveradi.

Pedagogik tadqiqotlarning predmeti sifatida maktab va boshqa o'quv yurtlarining faoliyati, uning maqsadi, dasturiy ma'nosi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati, tashkiliy shakl hamda ijtimoiy sharoitlar xizmat qiladi.

Didaktikaning predmeti ta'lim va tarbiya bilan bog'liq turli shakl va turlarda yuz beradigan xodisalar, faktlar xisoblanadi. Ta'lim va oqitish boshqa ijtimoiy voqealardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Didaktik tadqiqotlarning predmeti ijtimoiy faoliyatning alohida shakli didaktik faoliyat hisoblanib, uning maqsadi ta'lim berish va o'zgarib borayotgan tarixiy goyalar va ijtimoiy talablar asosida odamlarni qayta tarbiyalashdir.

Didaktik faoliyat o'qituvchi va o'quvchilarning xatti-xarakterlaridan iborat. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyoqarashini, shaxsiy kadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Oqitish natijasida o'quvchi shaxsida turli xislatlar shakllantiriladi. Bunday o'zgarishlarni kuzatish, hisobga olish didaktik tadqiqotlarnig asoslaridan hisoblanadi.

Yuqoridagi o'zgarishlar, bir tomondan, o'qituvchining didaktik faoliyati ta'siridagi va o'z shaxsiy xatti-xarakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni taxlil qilishga imkon beradi. O'quvchilar va o'qituvchilarning o'quv ishlari sharoitlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, uslub va vositalari orasidagi

bog'liqliklar, tabiat qonuniyatlari qanday ob'ektiv xarakterga ega bo'lsa, shunday ob'ektiv xarakterga egadir.

Ta'lim va tarbiyaga taalluqli xatti-xarakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktikada yagona usuli xisoblanadi. Yan Amos Qomenskiyning «Buyuk didaktika», K.D.Ushinskiyning «Inson tarbiya predmeti sifatida» asarlarida masalaga shunday yondashishni ko'rish mumkin.

O'quv-tarbiya jarayoni xakida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan emperik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

Pedagogik tadqiqotlarning tarixiy-taqqoslash metodlari. Tarixiy metodlar. Pedagogik tadqiqotlar, xususan, didaktik tadqiqotlar asosan o'qituvchining didaktik faoliyati bilan o'quvchilar taxsili natijasida hamda o'quvchilarning o'z faoliyatlari natijasida ular shaxsi, bilim, iqtidor va ko'nikmalarining o'zgarishi orasidagi bog'liqlikni ochishga qaratiladi. Xo'sh, bunday bog'liqlik didaktik tadqiqotlar natijasidan olinadimi yoki ularni yaqin, uzoq o'tmishdan olsa bo'lidimi? Amaliy hayot bu muammoga o'zicha javob beradi.

Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida ijtimoiy munosabatlar ma'lumotning maksad va vazifalarini belgilab bergan. Masalan, sanoat ishlab chiqarishini industrilashtirish, ilmiy texnikaviy revolyusiya ma'lum darajada ta'lim va tarbiya mazmuni, shakllari va uslublarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi.

Tarixan ta'lim-tarbiyaning barcha hollarida yuz bergan o'zgarishlarning xususiyatlari, tamoyillari, qonuniyatlarini o'rganmasdan turib, ma'lumot masalalari haqida keng tasavvurga ega bo'lish mumkin emas.

Tarixiy pedagogik tadqiqotlarning maqsadi shunday qonuniyatlarini aniqlashdan iboratki, bu qonuniyatlar faqat yaqin va uzoq tarixni o'rganishni emas, shu bilan birga ta'limning hozirgi axvolini, undan ham muhimi- kelgusini belgilash imkonini bermog'i lozim

Nazariy taqqoslash- solishtirish metodi. Bunday pedagogik tadqiqot xalqaro pedagogik tadqiqotlarga asosan uch yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish- turli mamlakatlardagi ta'lim va tarbiya tizimlarining umumiy qonuniyatlarini aniqlash. Dunyoda yuzdan ortiq ta'lim tizimlari mavjud. Albatta, mustaqil O'zbekiston Respublikasida eski ta'lim tizimi asosida ishlash mumkin emas. Boshqa

mamlakatlarda amal qilib turgan ta'lim tizimlarining qulay ijobiy tomonlarini yuqorida ko'rsatilgan taqqoslash-solishtirish tadqiqotlari asosida bizning ta'lim tizimimizga ko'chirish mumkin.

Ikkinchi yo'nalish har bir ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni, ularni tasdiqlovchi faktlar to'plamini, turli tarixiy davrlardagi va turli tarbiya muhitlariga oid o'ziga xos tomonlarni aniqlashdan iborat.

Uchinchi yo'nalish ta'lim tizimlarining ichki xususiyatlarini aniqlash, o'xshash va farqli xususiyatlarini belgilab, ularning ta'lim tizimidagi umumiy xususiyatlar bilan bog'liq alomatlarini va aloxida xususiyatlari sabablarini aniqlash imkonini beradi. Bu turdagi tadqiqotlar faqat statistik ma'lumotlar va anketalar natijasini tahlil qilish bilan chegaralanmaydi.

Ta'lim tizimlarini tadqiq etish maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xalqaro ekspertlar guruhlari tomonidan tegishli ilmiy-tekshirish tashkilotlari bilan xamkorlikda o'tkaziladi. Buning uchun ilmiy-tadqiqotning maxsus konsepsiyasi, usullarini tanlab olish mezonlari ishlab chiqiladi va matbuotda e'lon kilinadi. Keng kitobxonlar va qizikuvchilar etiboridan o'tgan konsepsiya alqaro pedagogik uyushmalar tomonidan tasdiqlanadi va bevosita ishga kirishiladi.

Ta'lim tizimlarining o'xshashlik va alohidalik alomatlarini, ularning ildizlarini, sabablarini aniqlash birmuncha murakkab bo'lib, maorif tizimlarining yutuqlarini tadqiq etuvchi xalqaro assotsiatsiya tajribalari kabi atroflicha ilmiy-tekshirish ishlarini olib borishni talab etadi. Ta'lim-tarbiya omillarini tushuntirish va ularga tasnif berish nazariy taqqoslash-solishtirish usullarining asosiy qismi hisoblanadi. Albatta, xamma ilmiy-tadqiqotlar yig'ilgan faktlarni tushuntirish bilan ish tugamaydi.

Bu turdagi izlanishlarning yana bir o'ziga xosligi shundan iboratki, tabiiy fanlarda umumiy belgilar, atamalar, birliklar mavjud, pedagogik (didaktik) tadqiqotlarda esa bunday umumiy xalqaro birlik va atamalar deyarli yo'q. Shuning uchun ham olingan natijalarning tasnifi birmuncha sub'ektiv tus olishi mumkin. Bunday hollar ta'lim haqidagi statistik ma'lumotlarga matematik ishlov berish orqali birmuncha to'g'rilanadi. Masalan, biron mamlakatdagi biron yilda tug'ilgan bolalarning maktablarga qamrab olinishi yoki ta'limga ajratilgan milliy daromadning foizi shu mamlakatning maorif masalalariga munosabatini asosan ob'ektiv belgilanadi. Qolgan

omillar ta'lim ahvolini belgilashda yuqorida ko'rsatilgan statistik ma'lumotlarni yanada chuqurlashtiradi.

Kuzatish metodi ta'lim-tarbiyaning mazkur vaqtdagi holatini aniqlash imkonini beradi. Kuzatish usulining maqsadi bor faktlarni yoritishdangina iborat bo'lmay, bizga oldindan qo'yilgan maqsad bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan faktlarni qidirish va aniqlashdan iborat.

Kuzatish jarayonida tadqiqotchini qiziqtiruvchi muammo va vazifalar kuzatishni saylab (tanlab) o'tkazishni taqozo etadi. Tadqiqotchi muayyan tanlangan muammoni hisobga olib, nimani kuzatish kerakligini tanlab oladi. Shuning uchun ham u kuzatish natijasida echilishi kerak bo'lgan muammoni hali kuzatishni boshlamasdan oldinroq biladi. Natijada tadqiqotchining kuzatish natijalarini umumlashtirishi birmuncha osonlashadi.

Kuzatishga asoslangan tasniflash tadqiqotlari uch ko'rinishga ega: 1) obzor tadqiqotlari; 2) ta'lim-tarbiya unsurlari orasidagi bog'liqlikni aniqlash; 3) izlanish tadqiqotlari.

Bunday sharoitda kuzatish to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita amalga oshiriladi. To'g'ridan to'g'ri yoki bevosita kuzatish faktlarni qabul qilib olish, tushunib etish va o'lchashdan iborat. Qabul qilib olish-sezish organlari yordamida tekshiruvchi ob'ekt aniq joyda turganligini qayd qilish; tushunib etish tanlab olingan, qayd qilingan ob'ekt oldindan aniq yoki noaniqligini aniqlashdan, o'lchash esa shu ob'ektning sonini anik-lashdan iborat.

Bilvosita kuzatish ob'ektni bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmaganda amalga oshiriladi. Shunday ob'ektdagi shaxsning tug'ma qobiliyati, imkoniyatlari, intizomlilik, rostlik, kamtarlik, kamsuqumlik kabi xislatlari kirishi mumkin. Bunday xislatlarni bevosita kuzatish natijasida aniqlash qiyin. Shuning uchun ham tadqiqotchi o'ziga qulay ko'rsatkichlardan foydalanadi.

Bevosita va bilvosita kuzatish bilan bir qatorda faol kuzatish ham qo'llaniladi. Faol kuzatishda didaktik jarayonda bevosita tadqiqotchining o'zi xam qatnashadi va jarayonning borishiga ta'sir etadi. Bunda ishtirok etishning ijobiy tomoni shundan iboratki, tadqiqotchi bo'lib o'tayotgan jarayonning ikir-chikirlarini tushunib etadi, bu esa o'quv jarayonini tadqiqot talablariga yo'naltirish imkonini beradi. Bunday usul ayrim kamchiliklariga qaramasdan,

ijodkor-o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar faoliyatini faollashtirishda keng qo'llaniladi.

Bilvosita kuzatish tadqiqotchini hodisalarni o'rganishga ko'proq jalb etishga imkoniyat yaratadi. Mashg'ulotlar stenogrammalari, uchinchi odam tomonidai tayyorlangan kuzatish bayonlari, foto-kinolavhalar, rasmlar, diagrammalar, statistik mashg'ulotlar shular jumlasidandir. Bu hujjatlar pedagogik faoliyatning natijalarini xamda ijtimoiy muxit, xususan o'kituvchi faoliyatining o'quvchi shaxsida uyg'otadigan o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Ilmiy-tekshirish maqsadlarini aniqlash tadqiqotchini qiziqtirib qolgan muammoli xolatni taxlil kilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bunday xolatni tahlil qilish va unda ma'lum va noma'lumlarni aniqlash, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, tajribali shaxslarning bu masalaga bergan bahosi tadqiqotchiing asosiy va ko'shimcha muammolarini aniqlash imkonini beradi.

O'zgaruvchi parametrlarni aniqlash va tahlil qilish. O'zgaruvchilar- bu tekshirilayotgan ob'ektda turli ahamiyatga ega bo'lgan omillardir, o'zgaruvchilar- tekshirilayotgan ob'ektning bizni qay tomondan qiziqtirayotganligi haqida axborot beradi.

Ta'limning salmog'i, rivojlanish tezligi, maktabning yutuqlari kabi murakkab o'zgaruvchilar ma'lum shkalalar asosida tartibga keltiriladi.

Muammolarni gipotezalar zanjiriga aylantirish tadqiqot jarayonining kelgusi bosqichi hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy muammosi yoki shu muammodan kelib chiquvchi savollarga tadqiqotchi dastlabki xomaki javoblar qidiradi. Izlanish davomida u yangi qo'shimcha axborotlar to'playdi va javoblar yanada rivojlanib boradi. Shunday kilib, ko'yilgan savollar gipotezalarga aylana boradi, kelgusi tadqiqot yo'nalishlarini belgilab beradi, boshqacha aytganda, ishchi gipotezaga aylana boradi.

Pedagogikadan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning jiddiy bosqichlaridan biri tadqiqot muammosini echish bo'yicha bir yoki bir necha gipotezalarni belgilashdir.

Gipoteza- bu muammoni echishning taxminiy yo'lini ilmay tomondan tasdiklash demakdir. Tadqiqotchi qo'yilgan muammomi atroflicha, xamma o'zgaruvchilarni hisobga olgan xolda, tahlil kiladi. Gipoteza empirik jnxatdan tasdiklanmog'i darkor. Buning uchun tajribasi loyixasi tuzilib, tajribasial tadqiqotlar o'tkaziladi.

Tadqiqot texnikasini va «asbob-uskunalari»ni tanlash. Bu tadqiqotning mazkur bosqichida tadqiqot ob'ekti o'zgaruvchilarni tanlashga ko'p jihatdan bog'liqdir. Tadqiqot texnikasi atamasi yoki tadqiqot usuli yoki tadqiqot faoliyatining ketma-ketligi atamasi ishlatiladi. Ilmiy usul bu ilmiy muammoni echishda qayta-qayta ishlatiladigan usuldir.

Tadqiqot texnikasi deganda, tadqiqot muammosini echish uchun ob'ekt va hodisalar haqida axborot to'plashda tez-tez kaytariladigan usul tushuniladi. Masalan, kuzatish usulida turli tadqiqot texnikasi ishlatiladi: *klinik kuzatish, savol-javob, zondlash, tanlab tekshirish va xujjatlar tahlili*. Bunday texnologiyadagi ishlatiluvchi «asboblari» turlicha bo'ladi. Ulardan keng tarkalganlari anketalash, psixologik yoki didaktik testlardir.

Tezkor yuz beradigan jarayonlarni qayd qilib, keyinchalik chuqur tahlil qilish uchun maxsus texnikaviy vositalar ham ishlatiladi. Bulardan fotoapparat, videokamera, proektor, magnitofon, videomagnitofon yoki o'lchov asboblari va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Didaktik tajriba metodi. Pedagogik tajribani qo'llash natijasida tadqiqotchi didaktik amaliyotga uning ichki tarkibiy tuzilishi, qonuniyatlarini, ta'lim ma'nosi va jarayonlarini ochish maqsadida «sho'ng'iydi».

Agar kuzatishda tadqiqotchi borliqni qanday bo'lsa, shundayligicha idrok qilib tekshirsa, tajribasi jarayoni bu borliqni o'zgartirib, uning ichki konuniyatlarini, unga ta'sir etishning samarador usullarini aniqlaydi.

Pedagogik tajribaning birinchi xususiyati shundan iboratki, unda tadqiqotchining o'zi qatnashadi, ishni tashkil etadi, amalga oshiradi va natijani taxlil kiladi.

Ikkinchi xususiyati - o'quv-tarbiya jarayonining ichki qonuniyatlarini aniqlash uchun jarayon sharoitlarini o'zgartirish imkoni tug'iladi. Uchinchi xususiyati- o'quv-tarbiya jarayonini nazorat qilib, ularni aniq o'lchash imkonidir. To'rtinchi xususiyati - tajribasiga ilmiy tus berib, ishchi gipotezani aniqlashtirishdir. Demak, eksperiment shunday ilmiy-tadqiqot usulini, unda ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilish o'lchash va ishchi gipotezani yanada oydinlashtirish imkoni tug'iladi.

Yuqorida ko'rsatilgan to'rt xususiyat bajarilsa tajriba laboratoriya tajribasi hisoblanadi, birinchisi bajarilmasa, bu tabiiy pedagogik tajriba deyiladi.

Pedagogikadan ilmiy-tadqiqot ishlarining metodologik asoslari:

1. Shaxsning ijodiy va faoliyatlilik ma'nosi haqidagi ta'limot.

2. Shaxsning o'zaro aloka bog'lash va o'zaro bog'liqligi haqidagi ta'limot.

3. Munosabatlar nazariyasi

4. Mutaxassis shaxsini shakllantirish haqidagi nazariya.

5. Bilish faoliyati haqidagi ta'limot.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish ilmiy tadqiqot metodlar:

I. Empirik darajadagi metodlar:

1) diagnostik metodlar (anketalash, hujjatlarni o'rganish, intervyu uyushtirish, suxbatlar), sotsiometrik metodlar;

2) observatsion metodlar (bevosita va bilvosita kuzatish, to'g'ri va uzokdan kuzatish, bevosita jarayonda qatnashish orqali kuzatish, o'z-o'zini kuzatish);

3) prognostik metodlar (ekspertlar metodi bilan baholash, bir-biriga bog'lik bo'lmagan xarakteristikalarni umumlashtirish, modellashtirish, ekstropolyatsiya, shkalalash, ranglash, «Dolfa metodi» va boshqalar);

4) Tajriba-sinov metodlar (sifat tajribasi, o'lchash tajribasi, konstatatsiya tajribasi, shakllantirish tajribasi, prognostik tajribasi va boshqalar);

5) proksimetrik metodlar (faoliyat natijalarini analiz qilish, modellashtirish, professiografik va psixografik analiz, xronometraj);

6) matematik metodlar (korrelyatsion analiz, faktorli analiz, dispers analiz va boshqalar).

II. Nazariy darajadagi metodlar:

1) Ilmiy bilish darajadagi metodlar:

- psixologo-pedagogik va ijtimoiy adabiyotlarni tahlil qilishi;

- empirik materiallarni sintez qilish;

- to'plangan materiallarni tasniflash;

- tekshirilayotgan jarayonni deduksiyalash;

- induksiya;

- analoglarni ko'rish;

- modellashtirish.

harakatlarga berilishining oldi olinadi. Buning uchun maxsus tayyorlangan, tayyorgarlikka ega bo'lgan, ezgu niyatli va pokiza murabbiy taklif etilishi kerak. Shundagina bolalarimiz to'g'ri tarbiya oladi.

Xusayn Voiz Koshifiy (1440-1505yy) - notiqlik, adabiyotshunoslik, fiqhx ilmi nujum, tarix, insho bitish, hisob ilmi, o'ymakorlik va ganchkorlik va ahloqqa doir asarlar yaratgan mutafakkirlardan biridir.

Koshifiy o'qituvchilarga bolalarni tarbiyalashda quyidagi usullarni qo'llashni olg'a surgan: nasihat, tanbeh berish, amru farmon, majburiyat qo'yish.

Koshifiy-o'z pedagogik qarashlarida bolalarga mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor beradi. Ota-onalar va muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy va tashqi muhit muhim o'rinda turadi. Koshifiyning fikricha, "Murabbiy bolaga nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalarida qat'iy turishi, ularga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir"

Alisher Navoiy (1441-1501yy)-buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri. U Sharq mutafakkirlari tomonidan inson kamolatiga bag'ishlangan va pand-nasihatlariga boy didaktik asarlar yaratgan. Ana shu an'anaga ko'ra yaratilgan "Mahbubul qulub" asarida Navoiy o'z zamonasidagi barkamol insonga xos fazilatlarni aks ettirgan.

Navoiy xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish to'g'risida g'ahurlik qilgan. Uning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi.

Navoiy yosh avlodni tarbiyalash-o'qitish ishini har qanday tasodifiy kishiga topshirishni qoralagan. U o'qituvchiga eng yuksak talablar qo'ygan. Bolani tarbiyalash va unga ilm berish, uni qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda bilimdon va usta tarbiyachi bo'lishi kerakligini, bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchilar yoshlarga ilm, odob o'rgatish mahoratiga ega bo'lishi, o'qitish yo'llarini yaxshi bilishi lozim va zarurligini uqtirgan.

Axmad Donish (1827-1897 yy) -matematika, falakiyot, geografiya, tibbiyot, tasviriy san'at, tarix va falsafiy bilimlarni

mustaqil ravishda egallab, o'z davrining ilg'or bilimli kishisi bo'lib etishadi.

Ahmad Donish o'zining ta'lim-tarbiya, ahloq va nafosatga doir fikr-mulohazalarini o'zining bir nechta asarlarida ifodalagan mutafakkirdir.

Ahmad Donish kasb tanlash haqida, kasb tanlashda uning odamlarga, jamiyatga foyda keltirishga e'tibor berish, kerakligi haqida bildirgan fikrlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning o'qituvchilik kasbi xususidagi qarashlarida ahloq masalasiga katta e'tibor berganini ko'ramiz.

U o'qituvchining talabalarga kuchli ta'sir etuvchi deb biladi. Uning ta'kidlashicha, **o'qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopoklik niyatida bo'lishi g'oyatda zararlidir, chunki ular o'zlaridagi ahloqiy buzqlikni yosh avlodga tarqatadilar.** Demak, Ahmad Donish o'qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e'tibor beradi

U o'qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi o'ringa qo'yishni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchi va talabalarga ko'p bilim berish, o'z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o'z ustida ko'p ishlashi lozimligini aytadi. Bundan ko'rinadiki, Ahmad Donish o'qituvchi kasbiga nisbatan jiddiy talab qo'yadi. U go'zal ahloqlilik va chuqur bilimdonlikni o'qituvchining go'zal fazilati deb biladi.

Ahmad Donish o'qituvchi timsolida odamlar, binobarin yoshlar o'rtasida ilm-ziyo sochuvchi ma'rifatparvarni ko'rishni orzu qiladi.

Maxmudxuja Bexbudiy (1885-1919 yy) - adabiyot, tarix, siyosatshunoslik, dramaturgiya sohalarini egallagan mutafakkirdir.

Behbudiy ma'rifat, ilm-fan, badiiy ijod sohasidagi butun faoliyatida millatimiz madaniyati, ma'naviyatining ravnaqi uchun kurashdi, buyuk siymo sifatida shuhrat qozondi, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr va mulohazalarni bayon etdi.

Behbudiy ta'lim-tarbiya haqida fikr bildirar ekan, mustamlakachilik davrida bu ishda muvaffaqiyatlarga erishishning birdan bir yo'li o'lkada o'zaro ixtiloflarga barham berib, ahillik bilan ilm-fanni rivojlantirish ekanini aytadi. Kattalar va muallimlarga murojat qilib, ularni yoshlarni bilimli qilishga, mehnatga jalb etishga da'vat etadi.

Xamza Xakimzoda Niyoziy (1889-1929yy)-o'zbek xalqining to'ng'ich pedagogi, xalq maorifini demokratik asosda qayta qurish,

xalq maorifi tizimini yaratish g'oyalarini olg'a suradi.Uning fikricha,»Insonni inson qatoriga qo'shish», insonni kamolatga etkazish, insonni olijanob fazilatlarga ega qilib etishtirish tarbiyaga bog'liqdir.

Hamzaning fikricha, bolalarni shunday barkamol kishi qilib tarbiyalash etishtirish uchun o'qituvchilarning o'zi chuqur bilimga ega bo'lgan, qobiliyatli va yuksak ahloqiy fazilatli bo'lishi kerak.*

Yan Amos Komenskiy (1592-1670yy) - buyuk slavyan donishmandi, insonparvar pedagog, bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o'rin olgan. U o'zining ongli hayotini va amaliy-pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalashdek olijanob ishga bag'ishladi.

Yan Amos Komenskiy-o'z davrida birinchi bor mashg'ulotlarning sinf-dars shaklida bo'lishi zarurligini asoslab berdi. Bunda u o'qituvchining butun sinf bilan muayyan o'quv mavzui bo'yicha mashg'ulot o'tkazishni talab qildi.

Komenskiy o'qituvchilar faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini yuqori baholadi, maktab ishining muvaffaqiyatli bo'lishi o'qituvchiga bog'liqligini aytadi. Olimning talab etishicha,o'qituvchi o'z ishining ustasi bo'lishi, o'qitish san'atini mukammal egallashi, tajribali o'qituvchilar yosh muallimlarga ko'mak berishi lozim. O'qituvchi tashqi ko'rinishi jihatdan ham o'z o'quvchilariga namuna bo'lishi kerak. Sof vijdonli, o'z kasbini sevadigan va o'z bilim va mahoratini uzluksiz takomillashtirib boradigan kishilarnigina o'qituvchi bo'lishi mumkin.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlariga nimalar kiradi?
2. Pedagogik kuzatish necha turga bo'linadi?
3. Pedagogika tajribaning ta'kidlovchi bosqichida nima vazifalar bajariladi?
4. Pedagogik tajribalarning tahlili qanday o'tkaziladi?
5. O'qituvchiga qo'yilgan talablarda sharqona qarashlar?
6. Ibn-sino o'qituvchiga qo'yilgan talablarida nimalarga e'tibor bergan?
7. A.Navoining qaysi asarida barkamol avlodga qo'yilgan talablar keltirilgan.

Adabiyotlar

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.,2012 y.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
4. Ro'zieva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

13-MAVZU. MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH. LOYIHAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

Reja

1. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining asosiy vazifalari.
2. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi.
3. Loyihaviy ta'lim texnologiyalari.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining asosiy vazifalari:

- ta'lim jarayoni elementlari tizimining bog'liqligini o'rgatish;
- o'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida ularda mehnatga ongli munosabatni tarkib topishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish yo'llarini o'rgatish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etishni o'rgatish.

O'qitish jarayoni pedagogning va u rahbarlik qilayotgan o'quvchilarning bilim, o'quv hamda malaka tizimini ongli ravishda va puxta o'zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat. Kasb-hunar kollejlaridagi ta'lim o'quvchilar shaxsini shakllantirishning, ularni aqliy va jismoniy kamol toptirishning, umumiy hamda kasbiy bilim berishning eng muhim vositasidir. O'qitish jarayoni davomida o'quvchilarning bilish kuchlari rivojlantiriladi. O'qitish o'qituvchining o'quvchilarga bilim, uquv va malaka tizimi berish, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyatdir.

O'qish – o'quvchilarning oquv fani materialini o'zlashtirish borasida qiladigan muntazam va ongli mehnati.

O'qitish ikki tomonlama jarayondir; u o'qituvchining faoliyati va o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilishdan, o'quvchilarga fanga qiziqish, fikrlar va e'tiqodni tarkib toptirishdan, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

O'qitish jarayoning ikkinchi tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materialini o'zlashtirishdan hamda bilimlarni o'zlashtirish jarayonida fikrlar va e'tiqodni hosil qilish yuzasidan olib boriladigan muntazam mehnatdan iborat.

O'qitish mazmuni hamma vaqt tegishli o'quv fanidasturi bilan belgilanishni o'quvchilarning o'qishini esa o'qituvchi yo'lga solib turishini nazarda tutib, muvaffaqiytli ta'lim berishning asosiy sharti ta'lim berish mazmuni, o'qitish va o'qish orasidagi chambarchas uzviy bog'lanish deb hisoblamoq kerak.

O'quv jarayoning to'g'ri qo'yilishi shu bilan ifodalanadiki, har qaysi bosqichda o'quvchilar o'rganiladigan materialni tushunib oladilar, uquv va malakalarini takomillashtiradilar, birorta yangi narsani idrok etadilar. Ammo har xil bo'g'inlar ayni paytda muayyan yumushni bajaradi hamda o'ziga xos ko'rinish va metodlar bilan ifodalanadi.

Ta'lim jarayonining tuzilmasi deganda uning o'quv vazifasini bajarishga yordam beradigan qismlari, bosqichlari nisbati va ularni amalga oshirish izchilligi tushuniladi.

Ta'lim jarayoning har bir bo'g'inini professional ta'lim muassasalari umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni o'rganishga tatbiq etgan holda batafsil ko'rib chiqish ushbu metodikaning mazmunini tashkil etadi.

Ta'lim jarayoni tuzilmasi. Ta'lim jarayonining asosiy qismi o'qituvchi va o'quvchidir. Ular orasida ham pedagogik, ham psixologik munosabat aks etadi. Ushbu munosabat ijobiy bo'lsagina ta'lim samaradorligiga erishish mumkin.

Ta'lim jarayonini amalgam oshirishda o'quv maqsadini aniq va to'g'ri belgilash o'qituvchining asosiy vazifasidir. O'quv maqsadlari DTSlari, o'quv reja va dasturlar asosida belgilanadi. O'quv maqsadlariga erishish uchun ta'lim jarayonida mazmuni o'quvchilarga etkazish uchun turli ta'lim metodlari, shakllari va vositalaridan foydalaniladi. Ta'lim metodlari, shakllari va vositalaridan foydalanishdan maqsad-o'quvchining aniq belgilangan

natijalarga erishishidir. O'quvchining qanday natijalarga erishganligini baholash va tahlil qilish orqali aniqlash mumkin. Baholash va tahlil qilish natijalari o'quv maqsadiga qay darajada erishilganligini ko'rsatadi.

O'qitishning tashkiliy ko'rinishlari deganda, o'qituvchi va o'quvchilarning Mutaxassislik tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi. O'qitishning u yoki bu tashkiliy ko'rinishi o'quvchilar guruhini va har bir o'quvchini o'qitishning har xil ko'rinishlarida qo'shib olib bo'rilishi, o'qitishda o'quvchilar mustaqilligining turli darajasi, o'quvchilarning o'qishiga o'qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan ifodalanadi.

Oliy ta'limining asosiy shakli-**dars**. Dars professional ta'lim tizimida asosiy tashkiliy shaklidir. Dars jarayonida yangi bilim berish, mavzu bo'yicha amaliy topshiriqlarini bajarish, mustahkamlash kabi ishlar bajariladi. Kasbiy ta'lim fanlari boshqa fan darslaridan farq qiladi, ya'ni;

- darsda amaliy ish vaqtning 80 foizini egallaydi;
- amaliy ish unumli mehnat asosida tashkil etiladi;
- mashqulot o'tkazish uchun xavfsizlikni ta'minlovchi tayyorgarlik talab etiladi.

Kasbiy ta'limga qator didaktik talablar qo'yiladi.

Didaktik maqsadning aniqligi.

Dars jarayonida dasturdagi mavzular mazmuni yoritiladi, mehnat ta'limi va tarbiyaning maqsad va vazifasi amalga oshiriladi. Dars rejasi tuzilayotganda darsning asosiy va ikkinchi darajali maqsadi qo'yiladi. 3 xil maqsad bor:

- a) ta'limiy - o'quvchilarga nazariy bilimlar beriladi, ularda ko'nikma va malakalar shakllantirishga yordam beradi;
- b) tarbiyaviy - berilayotgan bilimlar asosida o'quvchilar tarbiyalab boriladi;
- c) rivojlantiruvchi - o'quvchilarda o'tilgan mavzuni hayot bilan solishtirishni, qarama-qarshi qo'yishni, mavzularni analiz qilishni.

ularni umumlashtirishni, bilimni amaliyotda qo'llash yo'llarini uyg'otadi.

Ta'lim va tarbiya vazifalarining birligi.

Har bir darsda ta'lim tarbiyalovchi ekanligini unutmaslik kerak. Mehnat darslarida mehnat tarbiyasiga qulay sharoit yaratiladi. SHU sababli bu tarbiyani eng asosiy deb qaraladi. Bundan tashqari badiiy, iqtisodiy, jismoniy va boshqa tarbiyalar ham maqsad etib qo'yiladi. Ammo bunga darsda ta'limning va tarbiyaning vazifalarini birligi ta'minlangan taqdirdagina erishiladi.

O'quv materialini to'g'ri tanlash.

O'quv materialining mazmuni o'quv dasturida berilgan bo'yicha tanlanadi. Materialni tanlashda o'quvchilarning yoshlarini, jismoniy rivojlanganligini, ularning bilim doiralarini e'tiborga olishlari kerak, shuningdek, tikuvchilik san'atidagi fan va texnika yangiliklariga qam aqamiyat berish kerak. Demak, o'quv materialini tanlashda quyidagi qoidaga rioya qilish kerak. "Osondan murakkabga".

Ta'lim metodlarini maqsadga muvofiq tanlash.

Dars davomida har xil usuldan foydalanilmasa, har qanday dars ham maqsadga erishilmaydi. Kasbiy ta'limda darsning asosiy bosqichi o'quvchilarning mustaqil ishidan iboratdir. Yangi mavzuni bayon qilishda namoyish, tushuntirish va suhbat kabi usullardan foydalaniladi.

Bunda suhbat tushuntirishga qaraganda o'quvchilarni ko'proq faollashtiradi.

Shu sababli yangi mavzuni bayon qilish jarayonida o'quvchilarning ba'zi bilim va malakalariga tayanish mumkin bo'lgan qollarda mehnat usullarini namoyish qilishni suhbat bilan kombinatsiyalash kerak.

Darsning yakunlovchi qismi uchun ta'limning suqbat, tushuntirish, bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish kabi usullaridan foydalanish mumkin.

O'quvchilar ishlarida xavfsizlikni ta'minlash.

Kasbiy ta'lim jarayonida turli asboblardan ishlanadi. Shuning uchun albatta xavfsiz sharoit yaratilishi, texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi talab etiladi. Dars boshlashdan avval o'qituvchi asboblarning yaroqligini tekshiradi. Mustaqil ish boshlashdan avval ish davomida xavfsizlik texnikasi qoidalarini eslatib boriladi.

Darsning tashkiliy aniqligi.

Har qanday dars tashkil etilishi va o'tkazilishi aniq bo'lishi kerak. Kasbiy ta'limda ko'pincha unumli mehnat bilan shug'ullaniladi. Buning uchun mashinalar yaxshi ishlashi, ish qurollari etarli bo'lishi kerak.

Darsning tashkiliy aniqligi to'g'ri bo'lishi uchun o'qituvchining rahbarlik roli o'tgan yildagi qo'yilgan xatolar, hujjatlarning to'g'ri ekanligini aniqlashga bog'liq.

Darsdagi didaktik vazifa o'quv mashg'ulotlarining quyidagi turlarini alohida ko'rsatish uchun asos bo'lib hisoblanadi:

Aralash dars- bunda ish olib borishning har xil turlari- tushuntirish, tekshirish, mustahkamlash, yakun yasash va shu kabilar uyg'unlashgan bo'ladi;

Yangi bilimlarni o'zlashtirish darsi – bunda asosiy e'tibor yangi materialni o'rganishga jalb qilinadi;

ko'nikmalarni hosil qilish va mustahkamlash darsi- bunda amaliy faoliyatga, ko'proq mashqlarga alohida e'tibor beriladi;

umumlashtiruvchi dars- bunda muayyan mavzular va bo'limlar bo'yicha o'rganilgan material tizimga solinadi;

sinov dars – bunda o'quvchilar turli xildagi sinov va kontrol, og'zaki va yozma ishlarni bajaradilar;

sinfdan tashqari o'qish darsi- bundan ko'zlanadigan maqsad o'quvchilarda o'qishga, adabiyotga qiziqish va muhabbat uyg'otishdan iboratdir.

O'quv ustaxonalari hamda ta'lim muassasasi er uchastkalaridagi amaliy mashg'ulotlar va shu kabilar o'zining tashkil etilishi jihatidan dars o'tishning an'anaviy shakllaridan farq qiladi.

Ekskursiya o'qitishning atrof-muhitdagi real jarayonlar, voqealarni bevosita kuzatish, tanishish, o'rganish bilan bog'langan alohida tashkiliy shakli hisoblanadi.

O'qitish nazariyasi va amaliyotida o'quv mashg'ulotining turiga bog'liq tarzda uning muayyan tuzilmasi tarkib topdi.

Uning umumiy tarkibiy qismlari darsning boshlanishini tashkil etishdan, o'rganilgan materialning o'zlashtirilishini tekshirishdan, yangisini o'rganishga doir tayyorgarlik ishidan, darsning maqsadi va vazifalarini belgilashdan, yangi materialni tushuntirishdan, mustahkamlashdan, takrorlashdan, darsga yakun yasashdan, uy vazifasi berishdan iboratdir.

Maxsus fanlarni o'qitishda "Loyihaviy" ta'lim texnologiyasini qo'llash

Loyiha (design - dizayn) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi.

Loyiha (projekt) – tushunchasi kengroq ifodalanib, ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihaviy ta'lim quyidagi dolzarb ta'lim muammolarini hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi:

- ta'limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta'minlaydi;
- nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash va talabalarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi;
- kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

Loyihalashtirish - («loyiha» so'zidan) – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.


Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish - o'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to (intelektual yoki moddiy

mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

O'quv loyihaviy faoliyat ketma-ketligi:

- Loyiha tuzilishi va mazmuni;
- Loyihaviy faoliyatni tashkil etish;
- Loyihaviy faoliyatni rejalashtirish;
- Loyihaviy vazifalarni hal etish;
- Mahsulotni rasmiylash;
- Hisobot tuzish;
- Natijalar taqdimotini tayyorlash;
- Loyihaning ommaviy taqdimoti;
- Himoyasi va baholash;
- Refleksiya;
- Hisobot topshirish.

O'quv loyihalarni turlashtirish



O'quv loyihaviy faoliyatning protsessual tuzilmasi (1-bosqich)

“O'quv loyihasi” tushunchasi – muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va echish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni echishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari;
- rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

Tayyorlov: 1. “loyihaga kirish” fazasi

Talabalar amalga oshirishadi:

- vaziyatga moslashish;
- muammoni shaxsan o'zlashtirish (muammoni tushunish va amaliy faoliyatning muayyan sohasi uchun uning echimi dolzarb va muhimligini anglash);
- loyihaning maqsadi, muammoni hal etish masalalarini qabul qilish, aniqlashtirish va muayyanlashtirish;
- loyihaning natijasi (mahsuloti) va uni taqdim etish shakllarini anglash, loyihaning boshqa ishtirokchilari va o'qituvchi bilan muloqotning xarakteri.

Tayyorlov: 2. “rejalashtirish” fazasi:

Talabalar loyiha ustidan ishlash shakllarini tanlashadi: alohida yoki guruh bo'yicha. Agar guruhli shakl tanlangan bo'lsa:

- guruhlarga birlashishadi;
- loyiha bo'yicha ishlar turlarini ajratib, qatnashchilar orasida taqsimlashadi;
- loyiha bajarish bo'yicha ishchi rejasini ishlab chiqishadi;
- uni bajarishning optimal usullari va vositalarini tanlashadi;
- natija taqdimotini rasmiylashtirish usullari va shakllarini belgilashadi;
- loyiha ma'suli, hisobot va taqdimotni baholash mezonlarini muhokama qilishadi.

3. Loyihani bajarish bosqichi:

Loyihaning ushbu davrida talabalar o'zlarining vazifalari bilan muvofiq tarzda va ma'lum qilgan holda faol va mustaqil ishlaydilar:

- turli manbalardan axborot to'plash, tahlil etish va umumlashtirish ishlarini olib boradilar;

- tadqiqot o'tkazadilar, hisob-kitoblarni bajaradilar;

- zarurat tug'ilganda maslahatlashadilar;

- oraliq natijalarni muhokama qiladilar;

- hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar.

4. *Yakuniy: taqdimot, himoya, baholash, refleksiya*

Loyihaning jamoa taqdimoti vaqtida quyidagilarni aks ettirishadi:

- muammo, maqsad va vazifalarni tushunish;

- ishni rejalashtirish va amalga oshirishni bilish;

- yechimlarni izlash jarayoni tahlil qilish;

- Loyihalar va taqdimotning o'zaro baholashadi;

Faoliyat va natijaning refleksiyasini amalga oshirishadi: ish davomida va yakunida yuzaga kelgan yutuqlarini anglash, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish, shaxsiy o'zgarishlarini anglashni namoyon etadi.

Loyiha faoliyati haqida hisobot topshirishadi.

O'QUV LOYIHASI USLUBIY PASPORTNING TUZILISHI

1. *PEDAGOGIK ANNOTATSIYA*

2. *LOYIHA TOPSHIRIG'I*

3. *TALABALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR*

4. *LOYIHALI TA'LIMNING TEXNOLOGIK XARITASI*

14-MAVZU. KEYS STADI TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Reja

1. Keys stadi ta'lim texnologiyasining mazmun mohiyati
2. O'quv keyslari tuzish metodikasi

Keys-stadi (inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi echimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan *ta'lim uslubidir* [14]

Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida bashorat qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir

Keys texnologiyasi ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

➤ Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o'qitish usuli

➤ u ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi.

➤ iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilish.

Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o'rganishni voqelikka bog'lab qo'yadi: sizga muammoni hal etish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish, tahminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo'shimcha ma'lumotni yig'ish, tahminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

O'quv uslubi sifatida quyidagilarni ta'minlaydi:

• o'rganilgan o'quv mavzu, kursi bo'yicha (nazariy ta'limdan so'ng) bilimlarni mustahkamlashni;

• muammolarni tahlil qilish va qarorlarni yakka tartibda va guruhli qabul qilish ko'nikmalarini egallashni;

• ijodiy va o'rganish qobiliyatlar, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishni;

• yangilikka, qarorlarni mustaqil qabul qilishga tayyorgarlikni;

• mas'uldorlik, mustaqillik, kommunikativlik va empatiya, refleksiyaning shakllanishini; o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish sifatini o'z tekshirishini (o'quv dasturi yakunida). [10]

Muammoni ifodalanishi

1. Muammo qandaydir harakatlar qilish uchun etilgan zarurat bilan uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar etishmasligi o'rtasidagi ziddiyatni belgilaydi.

2. Muammoni asosiy tarkibiy qismlari (muammo osti muammolar)ni ajratadi.

Keysning dasturiy kartasi keys uchun axborot yig'ish va vaziyatni bayon qilish uchun asos bo'ladigan asosiy masalalar(tezislar)ning tuzilmalangan ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Pedagogik annotatsiya

Quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Keys mo'ljallangan predmet, bo'lim, mavzu, ta'lim darajasi, kurs ko'rsatiladi.

2. Keysdanko'zlangan maqsad (ta'limiy maqsad, rejalashtiriladigan o'quv natijalari).

3. O'quvchilar keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan dastlabki bilim va malakalar.

4. Keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettirishi yoki unda keysolog sun'iy modellashtirgan vaziyat bayon qilinishi haqidagi ma'lumot.

5. Axborot olish manbalari ro'yxati

6. Keysning o'ziga xos belgilariga ko'ra tavsifnomasi (syujet, keys ob'ekti mavjudligi, materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari, o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli, chizmashtirish usuli).

7. Keysdanko'zlangan maqsad va tegishlicha, tashkiliy-uslubiy ta'minoti o'zgarganida u qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'quv predmetlari ro'yxati.

Keys-ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan, aniq muammoli vaziyatning tafsilotidir. Keys usuli ishlab chiqarish masalalarini mashg'ulotlarda tahlil qilish va hal qilish usuli, unda ishtirokchilarga haqiqiy hayotiy vaziyat bo'yicha fikr yuritish taklif qilinib, bu vaziyat bayonida nafaqat amaliy masala ifodalanib qolmasdan, undagi muammoni echish jarayonida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan o'quv material ham ifodalanadi.

Muammolarni oldini olish yo'llarini ishlab chiqish "Keys stadi"ga asoslanagan o'qitish texnologiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o'rganilgan o'quv mavzusi bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va uning echimini yakka tartibda yoki guruhlarda echa olish ko'nikmalarini egallashga, ijodiy va o'rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o'z-o'zini nazorat qilishga yordam beradi.

O'quv mashg'ulotlarida keyslarni hal qilish algoritmi quyidagicha:

1. Topshiriqni berish, (topshiriqni bajarish muddatini belgilash, keysning echimini baholash tizimi bilan tanishtirish, darsning texnologik modelini aniqlash).

2. Ta'lim beruvchining kirish so'zi. Asosiy savollarning qo'yilishi.

3. Ta'lim oluvchilarni 4-6 kishidan iborat mikroguruhlariga ajratish.

4. Ta'lim oluvchilarning mikroguruhlardagi faoliyatini tashkil qilish (mikroguruhlarni nomlash, etakchilarni va ekspert guruhini aniqlash).

5. Mikro guruhlardagi javoblar bilan tanishishini tashkil qilish.

6. Mikro guruhlararo munozarani tashkil qilish.

7. Ta'lim beruvchining umumlashtiruvchi so'zi, uning vaziyat echimi to'g'risidagi fikri.

8. Ta'lim oluvchilarni ekspertlar tomonidan baholanishi.

9. Ta'lim oluvchilarning mashg'ulot haqidagi fikrlari.

10. Ta'lim beruvchining yakunlovchi so'zi. Mashg'ulot bo'yicha xulosalar chiqarish.

Keyslarni hal qilishda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni yo'naltirib turishi va ulardagi faollikni qo'llashi, hal qilinayotgan muammoga nisbatan qiziqish uyg'otib turishi darkor.

Keyslardan ta'lim jarayonida foydalanish ta'lim oluvchilar shaxsida quyidagi professional-pedagogik zaruriy sifatlarni shakllantiradi:

- mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- haqqoniy bo'lishiga o'rgatadi;
- nazariya va amaliyot o'rtasida uzviy bog'liklikni shakllantiradi;
- muammoli vaziyatni yangicha shakllantirishga yordam beradi;
- vaziyatlarni hal etishda, unga ta'sir etuvchi omillarning mavjudligi va ularning ta'sirini e'tiborga olishga imkon beradi;
- boshqalar fikrini ham qabul qila olish malakasini shakllantiradi;
- savol berish madaniyatini tarkib toptiradi;
- qabul qilingan qaror uchun mas'ullik hissini tarbiyalaydi.

Keyslarni hal qilishda quyidagilarga e'tibor berish zarur: asosiy muammoni va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali omillarni ajratish, muammoni hal qilishning muqobil echimini ham ko'rib chiqish, eng maqbul qaror qabul qilish. Keyslarni hal qilishda yozma usulda tahlil qilish unda bayon etilgan muammoni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

O'quvchilarning keys-stadi sharoitida o'quv ishiga qobiliyatlar ko'rsatkichlari:

- har bir o'quvchining ilmiy tadqiqot va tahlil usullari va vositalarini egallashi;
- kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum va munozaralarda qatnashish malakalarini hosil qilish;
- o'quvchilarning muammoli vaziyatni tahlil etish chizmasi (yo'riqnomasi, algoritmi);
- muammo echimining ustuvor g'oyasini baholash va tanlash texnikalari bilan tanishtirish.

O'qituvchining tayyorlanishi. Keys-stadi amaliyotini o'tkazuvchi o'qituvchi mashg'ulotga oddiy tayyorlanishdan tashqari quyidagilarni ham bajaradi:

- vaziyatni puxta tahlil qiladi, muammoli vaziyatni tahlil etish va uni hal qilish uchun o'quvchilarga taklif qilinishi mumkin bo'lgan bir necha modellarni tayyorlaydi;
- vaziyat echimi bo'yicha o'quvchilar taklif etadigan variantlarni baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini ishlab chiqadi.
- muammoni echish bo'yicha o'zining variantini tayyorlaydi.
-

O'QUV KEYSLARI

O'quv muammoli vaziyat (o'quv keysi) tashkil etishning maqsadi guruh xonasida aniq muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlar va tavakallikni hisobga olgan holda muqobil echimlarini muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iboratdir.

Keys usulini samarali qo'llash o'quv guruhiga muammoli vaziyatni muhokama qilish imkoniyatini berish orqali o'quvchilarning anglashini faollashtiradi, o'z bilimi va g'oyasini mujassamlashtirish, muhokama jarayoni va mazmunini kuzatish uchun sharoit yaratadi.

Ma'lumki, o'qitishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilar juda ham faol bo'lmasdan o'z fikrlarini ochiq bayon etishga qodir bo'lmaydi. Bunday to'siq o'quvchi uchun qarashlari va fikrlarini guruh yoki o'qituvchi tomonidan tanqidga uchrashishi mumkinligidan xavfsiragan holda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Ko'pincha shunday hollar bo'ladiki, o'qituvchi vaqtning tig'izligi tufayli o'quvchilar bilan suhbat-muloqot yoki to'liq savol-javob o'tkaza olmaydi. Ana shunday hollarda zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan biri bo'lgan keys usulidan foydalanish mumkin.

- yechilishi zarur bo'lgan muammoni qamrab olgan haqiqiy vaziyat ifodasi;
- tinglovchilar tomonidan muhokama qilinishi mumkin bo'lgan va odatda, qaror qabul qiluvchi menejer nuqtai nazaridan bayon etilgan vaziyat;
- auditoriyada mavjud imkoniyatlar va tavakkalni hisobga olgan vaziyat bo'yicha qaror qabul qilish muhitini tashkil qilish;
- kelgusida aniq tadqiqotlar o'tkazish uchun manba.

Keyslardan foydalanish usullari:

1. Yakka holda namoyish qilish.
2. Jamoa tomonidan namoyish etish.

3. Guruhlarda muhokama qilish va so'ngra guruhda munozara o'tkazish.

4. Ishbilarmonlik o'yini.

Keys muhokamasi tartibi:

Keys muhokama qilishni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish lozim:

1. Keys mazmuni bilan shaxsan tanishish.

2. Kichik guruhlarda muhokama qilish («Sindikat» usuli).

3. Guruhda umumiy muhokama o'tkazish.

Keys muhokamasida e'tiborni quyidagilarga qaratish tavsiya etiladi:

- qaralayotgan keysning asosiy maqsadini aniqlash;
- keysdagi vaziyatni haqiqiy holatlar bilan taqqoslash imkoniyatini ko'rib chiqish;
- mumkin bo'lgan «tuzoqlar»ni aniqlash ya'ni ikkinchi darajali masalalarni muhokama qilish, noto'g'ri qarorlar qabul qilish va h.k.;
- o'quvchi-o'quvchilar uchun tushunarsiz ma'lumotlarni aniqlash;
- keysda bayon etilgan muammoni echishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotni aniqlash;
- keysdagi muammoni echish uchun oraliq qadamlarni ilg'ab olish;
- muammoning hal etish muqobil yo'llarini belgilash;
- munozarani tugatish tartibini belgilash;
- yakuniy izohlash va munozara natijasini xulosalash.

Yuqorida keltirilgan usullar bilan bir qatorda faol o'qitish metodlari sarasiga kiruvchi «Ishbilarmonlik», yoki «Boshqaruv» deb yuritiluvchi o'yinlar bilim va ko'nikmalar hosil qilishda o'z samarasini ko'rsatadi.

«Ishbilarmonlik o'yinlari – faol o'qitish metodlaridan biri bo'lib u real «o'rganilayotgan ob'ektni to'g'ri anglash maqsadida tahsil oluvchining u yoki bu vaziyatini o'yin holida talqin qilishga qaratilgan usuldir».

«Kompyuterli «ishbilarmonlik» o'yinlari ham o'z mohiyati bo'yicha muayyan faoliyat motivi, unda aqliy operatsiyalarning ishtiroki va hissiy ko'rinishi jihatidan muammoli vaziyatlarni tahlil

qilishga mo'ljallanadi. «Kompyuterli ishbilarmonlik» o'yinlari quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi:

– o'quv maqsadlariga, ya'ni o'quv jarayonida mutaxassislarni tayyorlash yoki qayta tayyorlash va bilimlar tizimini o'zlashtirishga;

– ilmiy-izlanuv, boshqaruv tajribasini tahlil qilishga;

– ijodiy faoliyat natijasida vujudga keladigan muammolarni va ishlab chiqarishni rivojlantirishga mo'ljallangan real axborot materialiga tayanishga va h.k..».

– Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan innovatsion yangicha usullar orqali o'quvchilarda tushunchalarni shakllantirish quyidagi holatlarda ijobiy kechadi:

– birinchidan: muammoli vaziyatlarni mashg'ulot boshlanishida o'quvchilarga taklif etish yoki predmet mavzusini ifoda eta oladigan maxsus muammoli topshiriqlar berish;

– ikkinchidan: muammoli vaziyatlar orqali o'quvchining qiyinchiliklarni engish, innovatsion usul va harakatlarni izlab topishni talab qilish;

– uchinchidan: o'quvchilarning motivatsion doirasiga ta'sir o'tkazish, ya'ni ichki harakatlanuvchi kuchini yuzaga keltirish, fanga bo'lgan qiziqishini orttirish;

– to'rtinchidan: o'quvchilarning kreativ (noyob, standartli bo'lmagan) qobiliyatlarini rivojlantirish;

– beshinchidan: o'quvchilarni mustaqil fikrlab, to'g'ri xulosa chiqarishga tayyorlash.

Bu metodlar o'quvchilarda jahon andozasiga mos bilimlarni egallashlariga imkon beradi va albatta, ta'lim samaradorligiga erishga olib keladi.

15-MAVZU. KASBIY FANLARNI MODULLI O'QITISH METODIKASI

Reja

1. Modulli ta'limning mohiyati.
2. Maxsus fanlarni modulli o'qitish metodikasi.

Modulli ta'limning mohiyati shundan iboratki, bunda o'quvchi modul bilan ishlashda o'quv-biluv faoliyatining aniq maqsadlariga mustaqil ravishda (yoki o'qituvchining ba'zi bir yordamida) erishiladi. «Moduli o'qitish» termini xalqaro tushuncha — modul bilan bog'liq bo'lib, uning bitta ma'nosi - faoliyat ko'rsata oladigan, o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u, modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modul fanining fundamental tushunchalari ma'lum hodisa yoki qonun yoki bo'lim, yoki ma'lum bir yirik mavzu yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhini o'z ichiga oladi.

Modul bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgandir.

Har bir modul ma'ruza mashg'ulotlari va shu bilan bog'liq bo'lgan amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali o'qitish imkoniyati yaratiladi. Ya'ni, o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi.

Modul harakat rejasi maqsadini, axborotlar bankini; qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishish bo'yicha metodik rahbarlikni o'z tarkibiga oladi.

Shu boisdan ham modul o'quv-pedagogik adabiyotlarda modulli o'qitishning vositasi sifatida qaraladi.

Modulli o'qitish asosida umumdinamik prinsiplar ham faqat modulli ta'lim texnologiyasi uchun xarakterli bo'lgan, o'ziga xos didaktik prinsiplar yotadi.

Modulli o'qitish prinsiplari rahbarlik g'oyasi, ta'lim jarayoni qatnashchilari faoliyati va xatti-harakatining asosiy qoidasi sifatida namoyon bo'ladi. P.A.Yusevitsina modulli ta'lim texnologiyasi prinsiplariga quyidagilarni kiritishni tavsiya qiladi:

- modullilik prinsipi;
- ta'lim mazmunidan alohida elementlarni ajratish;
- dinamiklik (o'zgaruvchanlik);
- bilimlar va ularning tizimlarini ta'sirchanligi va operativligi;
- moslanuvchanlik;
- istiqbolni anglash;
- paritetlik (barovarlik).

Hozir mazkur prinsiplarning ayrimlarini mohiyatini qarashga o'tamiz.

1. Modullilik prinsipi, modulli ta'limning o'ziga xosligi, uning mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlari kabi aspektlarida namoyon qiladi. Mazkur prinsipga muvofiq, o'qitish funksional tugun — modullar asosida tashkil qilinib, ularning har biri aniq didaktik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan blok-modul ichida o'quv materialini o'quv elementlari ko'rinishida quriladi. Blok-modullardan predmet bo'yicha o'quv kursi yaratiladi. Blok-modullar ichidagi elementlar o'zaro bog'langan va o'zgaruvchan bo'ladi.

2. Ta'lim mazmunidan alohida elementlarni ajratish prinsipi har bir modul doirasida o'quv materialini yagona, yaxlit sistema deb qarashni taqozo etadi. Mazkur prinsipning dasturlashgan ta'lim prinsipi bilan juda ko'p umumiylik tomonlari bor. Ular jumlasiga o'quv materialini uncha katta bo'lmagan (qadamlarga, porsiyalarga) bo'laklarga ajratish va ularni doimiy ravishda murakkablashtirib borish tartibida faoliyatli didaktik maqsad qo'yiladi.

3. Dinamizm prinsipi modulni shunday qurishni taqozo etadiki, bunda u ijtimoiy buyurtmaga mos ravishda uning mazmunini erkin o'zgarishini ta'minlay oladi, ya'ni o'quv predmetlari aniq bo'limlari o'quv materialini o'zgartirish, to'ldirish imkoniyati bor.

4. Bilimlar va ularning tizimlarini ta'sirchanligi va operativlik prinsipi ta'lim jarayonining shunday tashkil etishni ko'zda tutadi.

Modulli ta'limning o'ziga xos xususiyatlari

1. Modulli ta'limning mazmunini tugallangan mustaqil komplekslarida ifodalanadi. Har bir kompleks o'quv materiali

shunday qurilishi kerakki, u har bir o'quvchi tomonidan uni oldiga qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishishga imkon yaratish.

Bunda o'quvchi uchun o'quv maqsadi shunday ifodalanishi kerakki, u uni shaxsiy ahamiyat va kutilgan natija sifatida tushunish va anglash imkoniga ega bo'lsin. Didaktik maqsad o'z ichiga o'rganilayotgan material hajmiga va uni o'zlashtirish darajasiga ko'rsatmani oladi. Bundan tashqari har bir o'quvchi o'qituvchidan samarali faoliyat ko'rsatish o'quv materialni qaerdan topish bo'yicha yozma ravishda maslahatlar olishi kerak.

2. Modulli ta'lim o'qituvchini o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqot shakllarini o'zgarishini ko'zda tutadi. U o'quvchilar bilan modullar orqali ham bevosita – har bir o'quvchi bilan individual tarzda muomala qiladi. Modulli ta'limgina o'qish-o'qitishni sub'ekt-sub'ekt asosga, ya'ni o'quvchini faol bo'lishga, o'quv jarayonida sub'ekt holatiga o'tkazishga imkon yaratadi. O'qituvchi har bir o'quvchiga individual yondashuv asosida maslahat – koordinatsiyalashuvchi funksiyani bajaradi. Bu esa pedagog va ta'lim oluvchiga o'qish-o'qitishni optimal yo'llarini birgalikda tanlashga imkon beradi. Natijada ta'lim jarayonida jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar teng huquqlik bo'lib boraveradi.

3. O'quvchining o'quv-biluv faoliyatini yuqori darajada o'zini-o'zi tashkil etilishi. U o'quv maqsadlarni mustaqil qo'yishga, faoliyat usullarini tanlash ko'nikmasiga, o'z harakati va munosabatlarini boshqalar bilan moslashtirish va muvofiqlashtirishga asoslangan. Modulli o'qitish sharoitida bu shu bilan ta'minlanadiki, o'quvchilar o'z vaqtlarining katta qismida mustaqil ishlaydi, o'quv-biluv faoliyati ularning anglangan predmet iva idroki bo'lib qoladi.

O'quvchi maqsad qo'yishni, o'z faoliyatini tashkil etishni, nazorat qilishni va baholashni o'rganadi. Natijada har bir kishi o'zining bilimlari va ko'nikmalaridagi mavjud kamchiliklarni ko'rishi mumkin.

Shubhasiz, o'qituvchi ham o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini modul orqali va bevosita boshqaradi, biroq bu qattiq, avtoritar boshqaruv emas, albatta.

4. Bosma materialga asoslangan modullarni mavjudligi o'qituvchiga bolalar bilan ishlashni individuallashtirishga, ya'ni o'quvchiga dozalangan shaxsiy yordam orqali hamda ularning har biriga maslahat berishga imkon yaratadi.

Modulli o'qitishni amalga oshirish uning dasturini ishlab chiqishni taqozo etadi. U predmet o'qituvchilari, boshqa mutaxassislar yoki markazlashgan holda ishlab chiqilishi mumkin. O'quv predmetining modul dasturi tuzilish jihatdan kompleks didaktik maqsad (KDM) va modullar tizimidan iboratdir.

Modul dasturini tuzish bo'yicha o'qituvchi faoliyatining quyidagi bosqichlarini ajratib qarash mumkin:

- o'quv predmetining asosiy g'oyalarini ajratish;
- mazkur g'oyalar atrofida o'quv materialni mazmunini ma'lum bloklarga strukturalash;
- kompleks didaktik maqsadni ifodalash;
- kompleks didaktik maqsaddan integratsiyalovchi didaktik maqsadlarni ajratib olish va ularga mos modullarni shakllantirish (har bir modul o'zining integratsiyalovchi didaktik maqsadga ega);
- har bir integratsiyalovchi didaktik maqsadni xususiy didaktik maqsadlarga bo'lish;
- xususiy didaktik maqsadlar (XDM) asosida o'quv elementlari (O'E)ni ajratish.

Modulli o'qitish metodi

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga moslashgandir (20).

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama echish imkoniyatini yaratadi [98].

- Modul – faoliyatlilik asosida o'qitish usulini optimallashtirish va tizimlash, dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;
 - o'qitishni individuallashtirish;
 - amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
 - kasbga qiziqtirish asosida, faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.
- Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq [76]:
- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
 - malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;
 - o'quvchilar tayyorgarligi darajasiga;
 - kutiladigan natijalar bahosiga;
 - didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;

- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirishi kerak.

Modulli o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o'quv o'yinlar;
- loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo.

Modulli o'qitishda o'quvchilarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Modulli yondashuv o'qituvchi uchun ma'lum darajada darslik funksiyasini bajaruvchi o'quv qo'llanmalar va o'quv materiallarini ishlab chiqishda ham qo'llanishi mumkin. Maxsus fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'quv amaliyotlarini o'tkazishda qo'llaniladigan o'quv materiallari bo'yicha namunaviy modullar 1- ilovada keltirilgan. Ushbu o'quv materiallarining afzalligi shundaki, modul bo'yicha amalga oshiriladigan har bir faoliyat turi xaritalar ko'rinishida berilib, ular asosan o'quvchining mustaqil ravishda amaliy ishlarni bajarish, tajribalar o'tkazishga yo'naltirilish imkoniyatini beradi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Modulli o'qitish mohiyati nimada ?
2. Oquv moduli nima?
3. Maxsus fanlarni modulli o'qitish uchun qanday dastur bo'lishi kerak?
4. Modul elementlariga nimalar kiradi?
5. Modulli oqitish metodikasining amalga oshirish bosqichlarini sanab bering.

Adabiyotlar

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T., 2012 y.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
4. Ro'zieva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

16-MAVZU. TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI

Reja

1. O'qitishni tashkil etishda maqsadni belgilash
2. Test topshiriqlarini ishlab chiqish texnologiyasi

Testologiya – (inglizcha so'zdan olingan bo'lib, test — sinov), yunoncha logos — bilim) so'zlari birikmasidan iborat.

Testologiya fanlararo fan bo'lib, ilmiy asoslangan va sifatli diagnostik o'lchov metodikasi haqidagi fan sanaladi

Test metodining keng tarqalishi, rivojlanishi va takomillashuviga uning quyidagi afzalliklari:

- Test topshiriqlari tadqiqot maqsadiga muvofiq respondentlarning bilim, ko'nikma va malakalariga aniq baholash imkonini beradi;

- Ijtimoiy so'rovlarda ishtirok etgan ko'psonli respondentlarning fikr va mulohazalarini aniqlash va umumlashtirish imkoniyati mavjud;

- Tahsil oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash jarayoni ob'ektiv amalga oshiriladi, baholovchi tomonidan sub'ektivizmga yo'l qo'yish oldini oladi.

- Turli guruh respondentlaridan olingan ma'lumotlarni qiyosiy-statistik tahlilini o'tkazishga zamin tayyorlashi kabilar.

Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezon.

Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezon o'rganilayotgan ob'ektning xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettirib, u tahsil oluvchilar tomonidan mazkur xususiyatlarni aniqlash uchun bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko'ra: reproduktiv daraja; produktiv daraja; qisman-izlanishli daraja; ijodiy (kreativ) darajada bo'lishi mumkin.

Reproduktiv darajadagi test topshiriqlari tahsil oluvchilarning xotirasida saqlangan bilim, ko'nikma va malakalarni tanish odatiy vaziyatda axborotlarni qayta ishlamasdan javob qaytarishni talab etadi. Bu darajada tuzilgan testlar tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq baholash imkonini bermaydi.

Produktiv darajada tuzilgan test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan o'rganilgan ob'ektlarni qiyoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, umumiy xulosa chiqarish orqali javob berishni talab etadi.

Qisman-izlanishli darajadagi test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan o'rganilgan ob'ektlarning xususiyatlarini boshqa ob'ektga ko'chirish, mazkur ob'ektlarni taqqoslab, keyingi ob'ektning o'ziga xos xususiyatlari haqida xulosa chiqarish, qisman izlanish olib borishni talab etadi. Tahsil oluvchilar tomonidan mazkur darajadagi test topshiriqlariga javob berishda avval o'zlashtirilgan bilimlar yangi vaziyatlarga ko'chiriladi. Ijodiy (kreativ) darajada tuzilgan test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan ijodiy fikr yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish, mazkur test topshiriqlarini bajarish jarayonida tahsil oluvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashni talab etadi.

Test topshirig'ining turlari:

- Standart testlar

- Nostandart testlar

Standart testlar - test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talab, har bir test topshirig'i:

- muayyan mazmun,

- tarkib,

- yaxlitlik va struktura;

- topshiriqni bajarish tartibi, qoidasi,

- topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo'lgan bali;

- test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'lishi zarur.

Test topshiriqlarining yaxlitligi u bir mavzu, bob, bo'lim yoki kurs mazmunini qamrab, ularni nazorat qilish imkoniyatiga ega ekanligida ko'zga tashlanadi.

Standart pedagogik testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra: gomogen va geterogen testlarga ajratiladi.

Gomogen testlar- bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bitta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Geterogen testlar - bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bir nechta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli-mo'ljal olish testlari.

Integrativ testlar- integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, ta'lim muassasasining bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, tahsil oluvchilarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidali adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, tahsil oluvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin. Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Buning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Mezonli-mo'ljal olish testlari tahsil oluvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Test topshiriqlariga qo'yiladigan talablar:

- Test topshirig'i mazmunining to'g'riligi;
- Savolning mantiqiy jihatdan to'g'ri tanlanishi;
- Test topshirig'i shaklining to'g'riligi;

- Test topshirig'ining savol va javobning qisqaligi;
- Test topshirig'i elementlarining to'g'ri joylashganligi;
- Test topshirig'ining to'g'ri javoblari bir xil baholanishi;
- Tahsil oluvchilarga test topshirig'ining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi;

O'quv maqsadlari taksonomiyasi Benjamin Blum — tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'z ichiga bilish, tushunish, amaliyotga qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, baholash kabilarni o'z ichiga oladi. Blum taksonomiyasini quyidagicha izohlash mumkin:

O'quv maqsadlari	Ta'rifi	Kalit so'zlar	Mashg'ulotdagi nazorat turi	Reyting tizimidagi test topshirig'i turi
Bilish	Axborotni o'zlashtirish	1. Aniqlash; 2. Ta'riflash; 3. Qayta ishlash; 4. Aytib berish; 5. Mohiyatini tushuntirish; 6. Ajratib ko'rsatish;	Test topshirig'i Og'zaki javob Klaster tuzish Og'zaki javob Og'zaki javob Klaster tuzish	Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja
Tushunish	Ahamiyatni anglash, asosiy g'oyani ajratib ko'rsatish	1. Umumlashtirish; 2. Qayta ishlash; 3. Asosiy g'oyani qayta ishlash; 4. Misollar keltirish; 5. Himoya qilish;	Klaster tuzish Klaster tuzish Venn diagramma Masalalar echish Venn diagrammasi	Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja
Amaliyotga qo'llash	Axborotni yangi kutilmagan vaziyatda qo'llash	1. Moslashtirish; 2. Qayta ishlash; 3. Loyihalash; 4. Modellashtirish; 5. Qayta aytib berish;	Og'zaki javob Klaster tuzish Klaster tuzish Klaster tuzish Og'zaki javob	Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja
Tahlil	Axborotni yoki ob'ektni qismlarga ajratish	1. Taqqoslash 2. Qismlarga ajratish 3. Ajratib ko'rsatish 4. Qiyoslash	Venn diagrammasi Klaster tuzish Klaster tuzish Venn diagrammasini tuzish	Qisman-izlanishli Kreativ daraja
Sintez	G'oyalarni mujassamlashtirish	1. Guruhlarga ajratish 2. Umumlashtirish 3. Rekonstruksiya	Klaster tuzish Venn diagrammasini tuzish Klaster tuzish Og'zaki javob Og'zaki javob	Qisman-izlanishli Kreativ daraja Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja
Xulosalash	O'rganilgan mavzu yuzasidan xulosa yasash	1. Baholash 2. Tanqidiy fikr yuritish bildirish 3. Fikrga qarshi fikr bildirish 4. Qo'llab-quvvatlash Inkor etish	Og'zaki javob Og'zaki javob Og'zaki javob	

Bilim – narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlari, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risida fan tomonidan aniqlangan tushunchalardan tarkib topadi.

Demak, bilim – tushunchalar tizimidan iborat bo'lib, tushunchalarni shakllantirish muammosi etakchi o'ringa chiqadi.

Pedagogik o'lchovni amalga oshirish maqsadida bilimlar quyidagi 4 ta asosiy sohalarga ajratiladi:

1. Dunyoni anglash haqidagi bilimlar;
2. Inson va insoniyat haqidagi bilimlar;
3. O'z-o'zini anglash haqidagi bilimlar;
4. Faoliyat usullari haqidagi bilimlar.

Har bir sohani tabiiy-ilmiy va gumanitar bilimlar sohasiga ajratish lozim.

Tabiiy-ilmiy va gumanitar bilim sohalari yo'nalishlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ajratiladi.

Pedagogik amaliyotda o'quv kursi bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini test topshiriqlari vositasida nazorat qilish va baholash uchun 3 turga ajratiladi:

1. Taqdim etiladigan bilimlar (o'quv qo'llanma va darslik mazmuni).
2. Tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar;
3. Nazorat qilish va baholashga imkon beradigan bilimlar;
4. Me'yoriy bilimlar.

Har bir o'quv kursining ta'lim mazmunini tahlil qilish uchun quyidagi nazariy asosga tayanish lozim.

I.YA. Lerner tomonidan ta'lim mazmunining tarkibiy qismlariga:

1. *Bilimlar (ilmiy tushunchalar, g'oyalar, qonunlar, ilmiy nazariyalar);*
2. *Faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar);*
3. *Ijodiy faoliyat tajribalari;*
4. *Qadriyatlar tizimi kiritilgan.*

Bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim maqsadlarini birday qilish

Ta'lim oluvchilar tomonidan BMK o'zlashtirish darajasi	Ularga erishishning maqsad va natijalari shakllantirilishi. O'quv faoliyatini baholash mezonlari	Ushbu natijalarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakatlarining tavsifi
I. O'quvchilikka oid (tanish bo'yicha harakatlanishi)	<p>Ta'lim maqsadi:...to'g'risida tushunchalarni shakllantirish.</p> <p>Natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • (ma'lum,tanish narsani o'zgartirishsiz, umumiy taxminlarni) tushuntiradi, aytadi, sanab o'tadi; • (o'z so'zlarida) qaytarib beradi; • tashqi belgi va xususiyatlari bo'yicha biladi, taniydi, • (so'zma-so'z) yozadi. <p><i>Baholash mezonlari:</i> axborotni xatosiz qayta tiklaydi.</p>	<p>Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari bo'yicha faoliyatlarini tashkillashtiruvchi, axborotmanbai bo'ladi.</p> <p>Ta'lim oluvchilar: axborot - retseptiv (qabul qilish) faoliyatini amalga oshiradi: eshitadi, kuzatadi, o'quv axborotini eslab qoladi va xatosiz qayta tiklaydi.</p>
II. Tartibli fikrga oid (algoritm) (namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanishi)	<p>Ta'lim maqsadi:...to'g'risida bilimlarni shakllantirish, nazariy bilimni o'xshashlik bo'yicha qo'llash, harakatlarni tartib bo'yicha bajarish malakalarini shakllantirish, (rivojlantirish, mustahkamlash).</p> <p>Natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • asosiy fikrni ajratadi; • baho beradi, yakun yasaydi, isbotlaydi, tasniflaydi; • tushuntiradi, asoslaydi, umumlashtiradi, ishonchli dalillar keltiradi, solishtiradi va taqqoslaydi, xulosalar chiqaradi; • mustaqil vazifalarni echadi; • tanish sharoitlarda (namuna) tayyor ketma-ketlik bo'yicha harakatlarni bajaradi: o'lichashlarni o'tkazadi, sinaydi; tekshiradi, (tizimlarni, jihoz va boshqalarni) tashxis qiladi; echadi, yig'adi; texnik topshiriq, chizmalarni o'qiydi; ishlab chiqarish ishlarini bajaradi, (jihozlarni) ishlatadi va boshqalar; • referat tayyorlaydi, tuzadi va grafik, sxema, jadvallarni o'qiydi. <p><i>Baholash mezonlari:</i> o'quv faoliyat yo'llarini biladi, bor bilimlarini o'zgartiradi va ularni tanish sharoitlarda qo'llaydilar: namuna, o'xshashlik bo'yicha bajaradi.</p>	<p>Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi.</p> <p>Ta'lim oluvchilar: (namuna) ketma-ketlik bo'yicha reproduktiv (qayta tiklash) faoliyatini amalga oshiradi: bilimlarni ongli o'zlashtiradi, ularni mustahkam eslab qoladi va qo'llaydi: o'xshash holatda harakatlarni asos bilan namunalari o'rgananliklari bo'yicha ta'lim beruvchi rahbarligi ostida bajaradilar.</p>

III. Ijodiy fikrlovchilik a oid (evristik) (harakatlarni tanlash)	<p>Ta'lim maqsadi: shaxsiy faoliyat tartibini tashkil etish va shu bo'yicha mustaqil ijodiy izlanishni olib borish va bilimlarni izlab topish, ularni yangi holatlarda qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish</p> <p>Natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> shaxsiy faoliyatini rejalashtiradi va tashkillashtiradi; kerakli axborotni topadi, tanlaydi, qo'llaydi va yangidan hosil qiladi; yasaydi, murakkablashtiradi, soddalashtiradi; sinaydi; bilim va malakalarni yangi holatlarda tanish va nostandart topshiriqlarni, muammoli holatlarni echish uchun qo'llaydi; (jihoz va boshqalarni) ishlatish bo'yicha tayyorlov qo'llanmasini o'qiydi va sharhlaydi, tushuntirish olib boradi. CHizma va jadvallarni: (kompyuter va boshqalarni) tizimdagi to'liqsiz tashkil etuvchilarni to'ldiradi va almashtiradi; nosozliklarni mantiqan izlanishini o'tkazadi, kerak bo'lsa ta'mirlaydi, tiklaydi, almashtiradi, sozlaydi, ya'ni modifikatsiyalaydi (turlanishi, ko'rinishi, shakllanishi, o'zgarishi). <p>Baholash mezon: yangi holatda faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi, yangidan hosil bo'lgan bilimlari asosida harakatlarni bajaradi, shaxsiy faoliyatini mustaqil tuzadi</p>	<p>Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilar faoliyatini yo'naltiradi.</p> <p>Ta'lim oluvchilar: ijodiy fikrlovchilik turdagi natijaviy ijodiy faoliyatni amalga oshiradi: mustaqil tuzilgan tartib bo'yicha mustaqil izlanish va bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni yangidan hosil qiladi va ularni yangi holatda qo'llaydi</p>
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	<p>Ta'lim maqsadi: muammoni mustaqil ajratish va echish qobiliyati, tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, notanish holatlarda harakat qilish qobiliyatini shakllantirish (rivojlantirish)</p> <p>Natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> muammoni mustaqil ajratadi va uni hal etish yo'lini topadi; tadqiqot ob'ekti va predmetini topadi, tadqiqot farazi va vazifalarini ilgari suradi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, tajriba o'tkazadi, tajriba natijalari asosida farazni tekshiradi, tajribadan olinganlarni qo'llash chegarasini aniqlaydi <p>Baholash mezon: tadqiqotchilik turdagi maqsadlar faoliyatini amalga oshiradi, tizimli yondoshish yo'llariga ega, tahlil qilish malaka va ko'nikmalarni namoyish etadi</p>	<p>Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarga maslahat beradi</p> <p>Ta'lim oluvchilar: tadqiqotchilik mahsuldor amalga oshiradi turdagi faoliyatni</p>

Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish testlarini ishlab chiqish (V. Bepalko bo'yicha)

Test maqsadi	Testlar toifasi va turlari	Xususiyatlari	Javoblar	Test topshiriqlarini ifodalash namunalari
O'quvchilar avval o'rgangan materialni tanishni tekshirish (o'zlashtirishning I darajasi)	Tanib olishlikka oid topshiriq	Bir vaqtni o'zida (aytib berish uchun) <i>topshiriq va javobdan</i> iborat bo'ladi	"Ha" "Yo'q"	... hisoblanadimi?
	Ajratib olishlikka oid topshiriq	<i>Savolhamda tanlash uchun javob variantlaridan</i> iborat bo'ladi	1. 2. 3. 4.	...shulardan qaysi biri... to'g'riligini ko'rsating
	Tasniflashlikka oid topshiriq	Mos qismlarni taqqoslash topshiriqlaridan iborat bo'ladi	1-(g) 2-(b) 3-(a) 4-(v)	Mosliklarni ko'rsating (ularning tushunchasi va belgilanishi)
Tashqi aytib berishlarsiz esda qolganlar bo'yicha o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qayta aytib berish va shular asosida namunaviy topshiriqlar echish	Qo'shimchal ar qo'yiladigan testlar	Xohlagan shaklda: og'zaki, belgili, chizmalarda taqdim etilgan fikrlarni to'ldirish talab etiladi	Yo'q	... (formulani) to'ldiring, (etishmayotgan elementni)... ko'rsating
ko'nikmalarini tekshirish (o'zlashtirishning II darajasi)	Tuzilishlik(konstruktordlik)ka oid testlar	Esda qolganlarni aytib berishlarsiz qayta takror tik-lashni talab etadi	Yo'q	Bu "(tushuncha / ifodalash ko'rsatiladi) nima?"... CHizma chizing ... Uchun formulani yozing
Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tekshirish (o'zlashtirishning III darajasi)	Namunaviy topshiriqlar	Ma'lum bo'lgan qoidalarni qayta tiklash va uni izlanayotgan natija uchun qo'llash talab etiladi	1. 2. 3. 4.	Namunaviy topshiriq
	Nooddiy topshiriqlar	Namunaviy tartib ostidagi topshiriq-larni oxiriga etka-zishda, qo'shimcha ma'lumotlarni qi-dirish uchun, dast-labki sharoitlarni o'zgartirish talab etadi	1. 2. 3. 4.	Nooddiy topshiriqlar

17-MAVZU. GRAFIKLI ORGANAYZERLAR TEXNIKASI

Reja:

1. Grafik organayzer tushunchasi mohiyati
2. Grafikli organayzerlardan foydalanish metodikasi

Grafikli organayzerlar texnikasi

Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi.

Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o'rtasida aloqa va aloqadorlikni o'rnatishning yo'li va vositalari

Grafik tashkil etuvchining turi, ahamiyati va xususiyatlari

"INSERT" jadvali

Mustaqil o'qish vaqtida olgan ma'lumotlarni, eshitgan ma'ruzalarni tizimlashtirishni ta'minlaydi; olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o'zlashtirgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi

Insert jadvalini to'ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida o'zlari tuzadilar.

O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni alohida o'zlari tizimlashtiradilar - matnda "V" - men bilgan ma'lumotlarga mos; "-" - men bilgan ma'lumotlarga zid; "+" - men uchun yangi ma'lumot; "?" - men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash, to'ldirish talab etiladi.

Insert jadvali

V	+	-	?

KLASTER

(Klaster-tutam, bog'lam)- axborot xaritasini tuzish yo'li barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.


Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi

Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqilar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugaguncha davom etishi mumkin.

Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

KLASTER



Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

TOIFALASH JADVALI

Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat.
 Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi.
 Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Toifali sharhlashni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Aqliy hujum / klaster tuzish/ yangi o'quv materiali bilan tanishishdan so'ng, kichik guruhlarda, olingan ma'lumot lavhalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlaydilar.

Toifalarni jadval ko'rinishida rasmiylashtiradilar. G'oyalarni / ma'lumotlarni toifaga mos ravishda bo'ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o'zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo'lishi mumkin.

Ish natijalarining taqdimoti

Toifalash sharhini tuzish qoidasi

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini-guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farqqilishi mumkin.
3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo'la qolsin.

KONSEPTUAL JADVAL

O'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarniikki va undan ortiq jihatlar bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi.
 Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish

Konseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo'yicha, xususiyatlarni ajratadilar

Alohida yoki kichik guruhlarda konseptual jadvalni to'ldiradilar.
 - *Uzunlik bo'yicha* taqqoslanadigan (fkr, nazariyalar) joylashtiriladi;
 - *Yong'i bo'yicha* taqqoslanish bo'yicha olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi.

Ish natijalarining taqdimoti

Konseptual jadval

...tushunchalarga yondashuvlar	Tavsiflar, toifalar, xususiyatlar va boshqalar			

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

B/B/B JADVALI- Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.
 Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.
 Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi).
 Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.

Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.

Mustaqil/kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar

B/B/B jadvali

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslashning yo'l va vositalari



VENN DIAGRAMMASI – 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini

Venn diagramma tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlardadiagramma Venni tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar

Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar

Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki/uch doiralarni uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi.

Venn diagrammasi



"SWOT – TAHLIL" ЖАДВАЛИ
Alohida muammo yoki loyihani tashkillashtirishdek, vaziyatni tahlil qilish va manbani baholash vositasi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi

"SWOT-tahlil" jadvalini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlardajadvalni tuzadilar va to'ldiradilar

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, to'ldiradilar, jadvalni o'zgartiradilar. Umumiy jadvalga keltiradilar

Ish natijalarining taqdimoti

"SWOT – tahlil" jadvalining nomi inglizcha so'zlarning bosh harflaridan tuzilgan:
Strengths – kuchli tomoni, tashkillashtirishning ichki manbalari mavjudligi nazarda tutiladi;

Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolarning mavjudligi;

Opportunities – tashkillashtirishdan tashqaridarivojlanish uchun mavjud, imkoniyatlar;



Threats – tashqi muhitda tashkillashtirishni muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi xavf-xatarlar.

"SWOT-tahlil" jadvali

Qoidaga ko'ra, SWOT – tahlil muvaffaqiyati uni tashkillashtirishiga bog'liq bo'lmay, balki muhokamaning natijalari kelgusidagi aniq taklif va loyihalarni ishlab chiqishda hisobga olinishi mumkin. Bunday ketma-ketliklar quyidagicha bo'lishi kerak:


	Tahlil tarkiblari	Natijalarni amalga oshirishning xususiyatlari
S	Kuchli tomonlari (tashkillashtirishning ichki manbalari)	- barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi; - yangi loyihalar asosi hisoblanadi; - to'siqlarni engib o'tishning yo'li bo'lishi mumkin.
W	Kuchsiz tomonlari (tashkillashtirishning ichki muammolari)	- tashkillashtirish faoliyati aynan shularni engib o'tishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim; - yangi loyihalar uchun eng muhim maqsad hisoblanadi; - rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi zarur
O	Imkoniyatlar (tashqaridan)	- moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha ko'rsatkichi yoki tashqi manba bo'lib xizmat qiladi, - ular tashkillashtirishning maqsadi bilan yoki qanchalik murosaga kelishishi bilan qanchalik mos kelishini hisobga olish zarur bo'ladi; - yangi loyihalarning asosi yoxud hamkorlikni izlash manbasi bo'lishi mumkin.
T	Xavflar (tashqaridan)	- Har bir yangi loyihada hisobga olinishi zarur; - ularni engib o'tish yoki betaraf etish yo'llari ishlab chiqilishi kerak; - ba'zida mantiqqa mos kelmaydigan "raqiblar" "ittifoqchilarga" aylanishi bo'lishi mumkin.

Muammoni aniqlash, tahlil qilish va uni hal etishni rejalashtirishning yo'llari va vositalari





«Nima uchun?» chizmasini tuzish qoidalari


1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni dastlabki holatdan izlanishgachabo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.



«Baliq skeleti» chizmasi



Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunuvchi
"Qanday?" diagrammasi



«Qanday?» diagrammasini qurish qoidalari

1. Ko'pgina hollarda muammoni yechishda "nima qilish kerak"ligi to'g'risida o'ylanib qolmasligingiz kerak. Asosan muammo, uni yechishda "buni qanday qilish kerak?", "qanday" asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo'ladi.

"Qanday" savollarining izchil berilishi quyidagilar imkonini beradi:
2. muammoni yechish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo'llarini ham tadqiq qilish;

3. quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunadigan g'oyalarni tuzilmasini aniqlaydilar.

Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni yechishning pastki darajasi birinchi galdagi harakatlarning ro'yxatiga mos keladi.


1. Barcha g'oyalarni o'ylab o'tirmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezlikda yozish kerak;

2. Diagramma hech qachon tugallangan bo'lmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin;

3. Agarda chizmada savol uning "shoxlarida" bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni yechishning asosiy bo'lishi mumkin;

4. Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda: daraxt yoki kaskad ko'rinishidami, yuqoridan pastgami yoki chapdan o'ngda qayd qilinishini o'zingiz hal etasiz;

5. Agarda siz o'zingizga to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi



Tuzilmaviy-mantiqiy chizma «Pog'ona»ni qurish qoidalari

1. «Pog'ona»ni tuzish jarayonida tizimli sxemaning tarkibiy qismi va elementlarini siljitish mumkin – bu u yoki bu holatni qayta fikrlash imkonini beradi.

2. Agarda siz g'oyalarni ishlab chiqishda tor yo'lakka kirib qolsangiz, u holda bir-ikki daraja yuqoriga qayting va muhim narsani unutmaganingizga hamda boshqacha nimadir qilish mumkin ekanligini ko'rib chiqing.

3. Siz chapdan o'ngga yozishga o'rgangansiz. «Kaskad» qurishni o'ngdan chapga qarab tuzishga harakat qiling. Buning uchun asosiy g'oyani chap tarafda emas, balki o'ng tarafda joylashtiring.

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik gurhlarda yuqori "suyagida" kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa, ushbu kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi.

«PIRAMIDA» chizmasi -
G'oyalarni quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich taqdim etish vositasi.
Tizimli fikrlash, talhlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik gurhlarda chizma tuzadilar: avval asosiy muammoni (g'oya, vazifa) yozadilar, so'ngra kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko'rib chiqish uchun "kichik shoxchalarni" chiqaradilar.

Ish natijalarining taqdimoti

«PIRAMIDA» CHIZMASI



«NILUFAR GULI» chizmasi -
Muammoni yechish
vositasi.
O'zida nilufar guli ko'rinishini
namoyon qiladi. Uning asosini
to'qqizta katta to'rt burchaklar
tashkil etadi.

Tizimli fikrlash, tahlil
qilish ko'nikmalarini
rivojlantiradi va faollashtiradi

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar.
Alohida/kichik guruhlarda chizma tuzadilar: to'rt
burchak markazida avval asosiy muammoni (g'oya,
vazifa) yozadilar. Uning yechishi g'oyalarini esa
markaziyto'rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta
to'rt burchaklarga yozadilar.

Markaziyto'rt burchakning atrofida joylashgan
sakkizta to'rt burchaklarga yozilgan g'oyalarni,atrofda
joylashgan sakkizta to'rt burchaklarning markaziga
yozadilar, ya'ni gulning barglarigaolib chiqadilar.
Shunday qilib, uning xar biri o'z navbatida yana bir
muammodek ko'riladi

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar.
Alohida/kichik guruhlarda chizma tuzadilar: avval
asosiy muammoni (g'oya, vazifa) yozadilar, so'ngra
kichik muammolarni, ularning har biridan esa,
kichik muammoni batafsil ko'rib chiqish uchun
"kichik shoxchalarni" chiqaradilar. Shunga asosan
har bir g'oyalar rivojlanishini batafsil kuzatish

Ish natijalarining taqdimoti

«NILUFAR GULI» CHIZMASI

	B		Z		C
			B	Z	C
	D		D	A	F
			G	H	Y
	G			H	
					Y

18- MAVZU: KOMPYUTERLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Reja

1. Multimediya–zamonaviy axborot texnologiyasi.
2. Ta'lim jarayoni multimediya vositalarini qo'llash metodikasi
3. Multimediya vositalari yordamida bilim berish afzalliklari.

Media ta'lim nima? Mediata'lim pedagogikada yangi yo'nalish bo'lib, kommunikatsiya (aloqa) ko'pchilik aloqa kommunikatsiyalarini o'quvchilar tomonidan o'rganishni e'tiborga oladi. YA'ni: matbuot, televidenie, radio va boshqalar. Ta'limda mediata'lim vositalari sifatida axborot muhiti elementlari: darslik, ko'pchilik axborot vositalari (nashriyotlar, radio, televideniya), video, kompyuter o'qitish dasturlari va o'yinlar, multimedia, Internet axborot setlari (turkumlari) foydalaniladi.

Mediata'lim mazmuni quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

-axborot vositalari kanallar orqali beriladigan axborotni o'zlashtirish, qayta ishlash;

-kompyuterlar, modemlar, fakslar, multimedialar va boshqalarni ishlatish orqali kerakli axborotni qabul qilish, uzatish, tayyorlash va izlash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

Media (lotincha, tesia) – axborot tashuvchi vositadir. Multimediali video ma'lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi. Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-yillarning boshlarida kirib keladi. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil izoxlamodalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimediyaga shunday ta'rif berish mumkin: **multimedia** – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga etkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. Multimedia hozirda juda tez gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi bo'lib, uning vositalari yordamida darslarning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Ta'lim sohasida multimedia vositalari yordamida o'quvchilarga bilim berish quyidagi afzalliklarga ega:
-ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;

-ma'lumotlarni vizuallashtirish imkoniyati;
-dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishuvi;

-olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishuvi.

Lekin, mazkur vositani ta'lim jarayoniga qo'llashning ayrim muammolari ham mavjud bo'lib, u quyidagilardan iborat:

-ta'lim uchun zarur bo'lgan o'quv materiallarini hamda boshqa zaruriy ko'rsatmalarini qo'llanma shaklida kompyuter dasturlari ko'rinishida ishlab chiqish.

-ishlab chiqilgan kompyuter dasturlari uchun multimedia elementlarini qo'llash.

Media ta'lim mazmuni quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

-ko'pchilik axborot vositalari kanallar orqali beriladigan axborotni o'zlashtirish va qayta ishlashga o'qitish.

Kompyuterlar, modemlar, fakslar, multimedialar va boshqalarni ishlatish orqali kerakli axborotlarni qabul qilish, uzatish, tayyorlash va topish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish. Hozirgi vaqtda akademik litsey va ksb-hunar kollejlarini zamonaviy texnik vositalari bilan ta'minlash, hamda ulardan keng foydalanish uchun katta sharoit yaratib bermoqda. Bular qatorida kompyuterlar, multimedia proektor, video-ko'z, skaner, kodoskop, lingafon xonalari va hokazolar bilan jihozlanmoqda.

Multimedia – bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko'rinishga ega bo'lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya (hayvonlar tasviri), video va sh.h) va yoki turli xil tashuvchilarda mavjud bo'lgan (magnit va optik disklar, audio va video-lentalar va h.k.) axborotdan foydalanish bilan bog'liq sohasidir.

Multimedia (multimedia – ko'p muhitlilik) vositalari bu apparat va dasturlar to'plami bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan juda turli tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Multimedia foydalanuvchiga fantastik dunyoni (virtual haqiqiy) yaratishda juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib beradi, bunda foydalanuvchi chekkadagi sust kuzatuvchi rolini bajarmasdan, balki bu erda avj olayotgan hodisalarda faol ishtirok etadi; shu bilan birga muloqot foydalanuvchi uchun odatlangan tilda – birinchi navbatda

tovushli va video obrazlar tilida bo'lib o'tadi. Multimedia vositalariga quyidagilar kiradi:

- ma'lumotlarni audio – (nutqli) va video kiritish va yuqori sifatli tovushli (sound) va video (video) platalar, videoqamrash platalari (video grabber), ular video magnitofondan yoki video kameradan tasvirni oladi va uni shaxsiy kompyuterga kiritadi;


- yuqori sifatli kuchaytirgichli, tovush kolonkali, katta video ekranli akustik va video qabul qiladigan tizimlar;

- keng tarqalgan skanerlar (chunki ular kompyuterga bosma matnlarni va rasmlarni avtomatik kiritish imkonini beradi);

- yuqori sifatli printerlar va plotterlar;


- ixcham (kompyuter) - disklar (RD - ROM).

Oxirgi vaqtda har xil o'quv kurslari, fanlari bo'yicha lazerli kompakt-disklar (CD-ROM) keng tarqalmoqda. Bu axborotlarni tashuvchilar ya'ni kompakt-diskda har xil ekran ovozli vositalar joylashtiriladi va kompyuterlardan foydalanishga moslashtirilgan. CD-ROM va DVD videodisklari funksional vazifalari bo'yicha ham, ixcham (kompakt) – diskarga yozilgan ma'lumotlarni eshitib ko'rish muhiti bo'yicha ham turli-tuman katta xajmdagi ma'lumot qilish uchun katta yo'l ochib beradi. Multimedia vositalariga yuqori ishonch bilan ko'pincha tovushli va videoma'lumotlarni yozish uchun ishlatiladigan optik va raqamli videodisklardagi katta sig'imli tashqi eslab qolish qurilmalarini ham kiritish mumkin. Multimedia proektor STX EzPro 500 – bu qurilma Germaniyada ishlab chiqarilgan bo'lib, kompyuter, videomagnitofon, video – ko'zning axborotlarini ekranga chiqarish imkoniyatiga ega. Proektor ixchamligi, o'rnatish osonligi foydalanuvchiga katta qulaylik yaratadi. Multimedia proektorning tashqi tuzilishi 1 – rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Multimedia proektor STX EzPro 500 ning umumiy ko'rinishi

Proektorning ustki qismida boshqarish tugmalari joylashgan bo'lib, ular paneldagi 4-ta tugma ko'rsatkichlardan iborat (2-rasm):



Power on (standby) – proektorni ishga tushirish (o'chirish).

Reset – ekrandagi ko'rinishni qaytadan tiklash.

Enter – kirish yoki menyudagi biror bo'limni tanlash.

Menu – menyu.

Proektorlarni ishlatish jarayonida menyu tugmasi bosiladi va ekranning yuqori chap burchagidagi panelda yozuv paydo bo'ladi:

Language – mavjud tillardan birortasini tanlash.

Contrast – kontrast.

Tracking – ekranni nazorat qilish.

Frequency – chastota.

Custom Memory – standart xotira.


Audio – tovushni o'zgartirish

Source – foydalanish manbasi (kompyuter, videomagnitofon, video ko'z).

Rear Projection – ekrandagi ko'rinishni aks ettiradi.

Audio Image – avtomatik ko'rinish.

Exit – menyudan chiqish. Multimedia proektorning orqa tarafida tashqi qurilmalar bilan aloqa



qiluvchi panel joylashgan (3-asm). Panel keltirilgan raqamlarning vazifasi:

1. Protsessorga ulanadigan manba – multimedia proektorning interfeysi protsessorning monitor portiga ulanadi.

2. Kompyuterning tovush kartasiga kirish uyasi.

3^a. Video – ko‘zdan tasvirga kirish uyasi – video-ko‘z kabeli multimedia proektorga ulanadi (bunda video – ko‘zdan S – kabel 3^a proektorning uyasiga ulanadi).

3^b. Videomagnitofondan tasvirga kirish uyasi – videomagnitofon kabeli multimedia proektorga ulanadi (bunda videomagnitofondan 3 – ta kabel 3^b uyasiga sariq, 4 uyalarga esa qizil oq simlari mos ravishda ulanadi).

4. Videomanbadan tovushga kirish uyasi – videomagnitofon yoki video – ko‘z interfeysi multimedia proektorga ulanadi (bunda videomagnitofon 3 – ta, video ko‘zdan 2- ta kabel, kelgan bo‘lib, videomagnitofonning 2 – ta kabeli: qizil va oq rangli, video – ko‘zdagi qizil rangli kabellari mos ravishda uyaga ulanadi).

5. Tashqi ovoz kuchaytirgichlar uchun manba uyasi – bunda multimedia proektordan chiqadigan tovushni kuchaytirish maqsadida tashqi ovoz kuchaytirgichdan foydalaniladi.

6. Tashqi monitor uchun uya – monitorning protsessorga boradigan interfeysi (kabel) protsessoridan olinib multimedia proektorga ulanadi.

Eslatma. SHuni aytib o‘tishimiz lozimki, proektordan foydalanib bo‘lgandan so‘ng boshqarish panelidagi “Power” tugmasini bosib ekranga tasvir uzatiluvchi qismi o‘chiriladi. Proektor sovugandan so‘nggina elektr manбайдan uziladi.


Video ko‘z – bu qurilma aslida videokamera o‘rnini bosib, uni bevosita televizorga ulab kerakli narsalarni (kompyuterlashtirilgan mini plakatlar, didaktik materiallar, slaydlar va boshqalar) o‘quvchilarga ko‘rsatish mumkin. Bu qurilmaning tashqi ko‘irinishi quyidagi 5 rasmda keltirilgan.



YUqorida keltirilgan ko‘rsatmalarni inobatga olib, multimedia proektor, videomagnitofon, video ko‘z va kompyuterlarni kompleks ravishda ishlatishni ko‘rib chiqamiz.



6-rasmda ko‘rsatilgan kompleks kompyuterdagi ma‘lumotlarni ko‘rsatib bo‘lgandan so‘ng, multimedia proektor menyusidagi “SOURCE” bo‘limidan foydalanilsa, quyidagi oyna paydo bo‘ladi.




Kursor “computer” holatidan “video” holatiga o‘tilsa, kompyuterning tasviri videomagnitofon tasviri bilan almashadi. Kursor “video” holatidan “S- video” holatiga o‘tilsa, videomagnitofon tasviri video- ko‘z tasviri bilan almashadi.

Ba'zi bir holatlarda, ma'ruzachi ma'ruza paytida kompyuterdagi axborotdan videokassetadagi filmdan, didaktik materiallardan foydalanmoqchi bo'lsa, u holda kompleks usulda foydalanish tavsiya etiladi.


Agar foydalaniuvchi (pedagog) ning "S- video" kabel bo'lmasa, quyidagi berilayotgan 2- ta usuldan foydalanish mumkin.

1-usuli. Multimedia proektor, videomagnitofon va kompyuter birgalikda ishlashi lozim (8-rasm).



Bu rasmda ko'rsatilgan kompleks kompyuter va videomagnitofon, proektorga ulangan. Biz kompyuterdagi ma'lumotlarni ko'rsatib bo'lganimizdan so'ng, multimedia proektor menyusidagi SOURCE bo'limidan foydalanib, kursor computer holatidan video holatiga o'tilsa, kompyuterning tasviri videomagnitofon tasviri bilan almashadi. Va aksincha, videomagnitofondagi filmlarni ko'rib bo'lganimizdan so'ng, proektorning "menu" sidagi source bo'limidan foydalanib kompyuterdagi axborotni ko'rish uchun qaytishimiz mumkin.

2-usul. Multimedia, proektor, video-ko'z va kompyuter birgalikda ishlatilishi 9-rasmda keltirilgan.



Bu rasmda ko'rsatilgan kompleks, kompyuter va video-ko'z proektorga ulangan. Biz kompyuterdagi ma'lumotlarni ko'rsatib bo'lganimizdan so'ng multimedia proektor menyusidagi source bo'limidan foydalanib, kompyuterning tasviri video-ko'z tasviri bilan almashadi. Video -ko'z orqali materiallarni ko'rsatib bo'lganimizdan so'ng, multimedia proektor menyusidagi source bo'limidan foydalanib, kursorni "S-video" holatidan computer holatiga o'tishimiz mumkin va video ko'zning tasviri kompyuter tasviri bilan almashadi.

Skaner -matn, grafika, tasvirlarni kompyuterga kiritishni avtomatlashtirish uchun xizmat qiladi. Uning asosiy tavsifi ma'lumotlarni aniq, tiniq, kerakli rang ko'rinishida chiqarish qobiliyatidir. Ushbu tasvirlash qobiliyati gorizont va vertikal chiziqlardagi nuqtalar (piksellar) soni orqali belgilanadi. Odatda, bu tavsif (xarakteristika) 300x600, 600x1200 ko'rinishida bo'ladi. Bu degani gorizont chiziqlar bo'yicha piksellar soni 300 (600), vertikal bo'yicha piksellar soni 600 (1200) ta ekanligini bildiradi. Nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa, ma'lumotlar aniqroq ega bo'ladi. **Modem** - modulyasiya, demodulyasiya so'zlaridan olingan bo'lib, uzluksiz signallarni raqami (modulyasiya) va raqamli ma'lumotlarni uzluksiz (demodulyasiya) signalga almashtirib beradigan qurilmadir. Uning asosiy vazifasi kompyuterlararo aloqani o'rnatishdir. U o'zining kommunikatsion dasturiga ega bo'lib, bu dasturlar yordamida ma'lumotlarni uzoq masofalarga uzatishi va qabul qilishi mumkin. Kompyuter telefon tarmog'i orqali axborot almashish maqsadida ishlatilayotganda telefon tarmog'idan olingan signalni qabul qiluvchi va uni raqamli axborotga aylantiruvchi qurilma lozim bo'ladi. Qurilmaning kirishida axborot modulyasiya qilinadi, chiqishda esa, aksincha raqamli signallar demodulyasiyaga uchrab uzluksiz signalga aylantiriladi. SHundan modem nomi kelib chiqadi. Modemning asosiy vazifasi kompyuterdan kelgan signalni telefon tarmog'i ish chastotasi diapozoniga mos chastotadagi elektr signaliga aylantirishdan iborat. **Printer** - kompyuterda olingan natijalarni, dastur va berilganlarni bosmaga chiqarish uchun ishlatiladi. Printer yordamida matnlarni, grafiklarni, rasmlarni rangli va oq-qora ko'rinishda bosmaga chiqarishi mumkin. Printerlar asosan uch xil bo'ladi: matritsali, oqimli va lazerli. Matritsali printerlar ma'lumotlarni nuqtalar yordamida bosmaga chiqaradi. Bunday printerlar sekin ishlaydi, chop qilish sifati va tezligi ham katta emas.

Oqimli printerlar maxsus siyohlarni purkash yo'li bilan ishlaydi. Bu printerlarning turli ranglarda chop qilish sifati tiniq va ravshan bo'ladi. Ularning kamchiligi siyohning tez tomon bo'lib qolishi va uning nozikligidir. Oqimli printerlar matnlarni nisbatan tez, grafik tasvirlarni esa sekinroq chop etadi.

Lazer printerlar ham sifati, ham tezligi jihatidan eng yaxshi printer hisoblanadi. Lazer printerlarida chop etish juda qulay, u minutiga 10-15, hatto 40 varaqqacha chop etishi mumkin. Kamchiligi – unda ishlatiladigan toner va katrijning tez-tez almashtirib turilishidir.

Katta hajmli chizma, rasmlarni kompyuterdan bosmaga chiqarishda plotterlardan foydalaniladi. Plotterlar (grafik qurgichlar) – katta hajmli tasvirlarni, xarita badiiy rasmlar, binolarning chiziqlarni, grafik informatsiyalarni chiqarishga mo'ljallangan. Plotterlar dizaynerlar, injenerlar, loyihachilar, rassomlar uchun juda kerakli bo'lib, undan yuqori sifatli rangli hujjatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladi. Ta'lim muassasalarida xoxlagan ko'rgazmali materiallarni tayyorlashda qo'llanilishi mumkin.

Plotterlarning asosiy tavsifi quyidagilardan iborat:

- millimetr sekunda o'lchanadigan tasvirni chizish tezligi;
- bir minutda chop qilingan, varaqlar soni bilan aniqlanadigan, chiqarish tezligi;
- tasvirlar aniqligi.

Konstruktiv tuzilishi bo'yicha plotterlar planshetli va barabanli bo'ladi. Planshetli plotterlarda qog'oz qo'zg'almas, chizuvchi kallak esa ikki yo'nalish bo'yicha harakatlanadi. Barabanli plotterda bir koordinat bo'yicha chizuvchi kallak, ikkinchi koordinata o'qi bo'yicha qog'oz harakatlanadi.

GLOSSARY

- **“Assesment” texnologiyasi** (ingl. “essesment” – “baho”, “baholash”) – ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami

- **Axloq** - shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq, qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biri.

- **Bayon qilish** - o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan material mazmunini izchil so'zlab berish metodi.

- **Bilish faoliyati** - idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

- **Boshqarish** - tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, ob'ektni o'z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish yakun yasash.

- **Burch** - muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

- **Verbal** – ifodali, og'zaki.

- **Gumanizm** - 1) insonning insonga bo'lgan mehri-muhabbati, uning sha'ni, qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlarini uchun qayg'urish go'yalari bilan sug'orilgan va kishilar o'rtasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan dunyoqarash;

- **“Debat” metodi** (fr. “debattere”, “debats” – “bahslashmoq”) – yig'ilish, majlis yoki mashg'ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o'rtasida o'zaro bahs uyushtirish, ularning o'zaro fikr almashishlarini ta'minlashga xizmat qiladigan texnologiya

- **Didaktik o'yinlar** – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi

- **Innovatsion faoliyat** – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni echishga qaratilgan faoliyat

- **Interfaol ta'lim** (ingl. “interact”, rus. “interaktiv”; “inter” – o'zaro, “act” – harakat qilmoq) – o'quvchilarning bilim, ko'nikma,

malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim

- **Kognitiv**- bilish jarayoni.

- **Kreativlik**- betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart echimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.

- **"Keys-stadi" texnologiyasi** (ingl. "case" – chemodan, metod, "study" – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – o'quvchilarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya

- **Kompyuter ta'limi** – ta'lim oluvchilarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'lim

- **Kompyuter ta'limi texnologiyalari** – ta'lim oluvchilarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'limning shakl, metod va vositalari majmui (kompyuter, skaner, telefon, faks modem, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, videoko'z, elektron pochta, multimedia vositalari, internet va internet tarmoqlari, shuningdek, mobil aloqa, ma'lumotlar omborini boshqarish hamda sun'iy intellekt tizimlari)

- **Metodologiya**- dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot.

- **"Modul"** (lot. "modulus") tushunchasi: 1) tizim ichidagi o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi atama; 3) o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi

- **Modul ta'limi** – o'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materialini mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi (B.P.Farberman)

- **Muammoli vaziyat metodi** – o'quvchilarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida muammoli vaziyatning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish va ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l

- **Muammoli ta'lim texnologiyalari** – o'quvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari (muammoli bayon; muammoli ma'ruza; evristik suhbat; muammoli namoyish; izlanishga asoslangan amaliy mashg'ulot; ijodiy topshiriq; xayoliy muammoli tajriba; muammo farazlarini shakllantirish; masalalarni muammoli echishning optimal variantlarini tanlash; muammoli vazifa; muammoli o'yin)

- **Pedagogik malaka** - muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

- **Pedagogik masala** - pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimdir. U voqelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'liq, tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadni ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiydashtirilgan vaziyatdir.

- **Pedagogik maxorat** - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsining ish sifati va xususiyatlari sintezi.

- **Pedagogik muloqot** - ta'lim oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlash mashqni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

- **Pedagogik takt** - bolalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, o'quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

- **Pedagogik texnika** - 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishni samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va

jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur butun malaka va ko'nikmalar.

-Pedagogik texnologiya - 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tadbiq, etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq, ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat; 4) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlari egallash, yaratish, qo'llash hamda belgilashning tizimli metodidir.

-Pedagogik tizim - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

-Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari - ta'lim oluvchilarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yordam beradigan texnologiyalar (treninglar; ijodiy topshiriqlar; keyslar; testlar, boshqotirmalar, mantiqiy masalalar, maxsus mashqlar, tez aytishlar, topishmoqlar, krossvordlar, rebuslar, skanvordlar, chaynvordlar, loyihalar, bellashuvlar, didaktik o'yinlar, "Zakovat" o'yini, lego o'yinlari, mozaikalar, stol o'yinlari ("Birja", "Bank", "Monopoliya" va b.), konstruksiyalar va b.)

-Sinkveyn (fr. "besh qator" ma'nosini anglatadi) ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea) larga oid ma'lumotlar to'planadi; har bir o'quvchi (o'quvchi) ushbu ma'lumotlar yig'indisi (qofiyasiz she'r) ni o'z so'zlari bilan turli variant yoki nuqtai nazarlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega

-O'yin texnologiyalari (o'yin ta'limi) - ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda -hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri

-O'quv loyihasi - 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va echish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni echishga qaratilgan o'quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita

-O'quv topshiriqlari - o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limiy vazifalar yig'indisi

Ta'lim prinsiplari - bu pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarini belgilovchi asosiy qoidalar tizimidir.

Metod (usul) - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "Metodos" - biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi.

Ta'lim berish usuli - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li.

Ma'ruza - davomli vaqt ichida katta hajm bo'yicha monologik o'quv materialini bayon qilish.

Seminar - bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

«Texnologiya» yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib «*techné*» - mahorat, san'at, malaka va «*logos*» - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish - bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

Pedagogika tizim - shaxsning bor sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy, maqsadga yo'naltirilgan va pedagogik ta'sir ko'rsatishni ko'zlagan, o'zaro bog'liq vosita, usul, jarayonlarning yig'indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir.

Fanni o'qitish uslubiyoti - ta'lim tizimida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rnini belgilaydi, uning vazifalarini va o'qitish

mazmunini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va o'qitish vositalari bayonini o'z ichiga oladi.

Konsepsiya - umumiy g'oya yoki biror-narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.

Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta'limning texnik vositalari (TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

Yordamchi ta'lim vositalari (YoTV) - grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

Grafikli tashkil etuvchi - fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi.

Ta'lim shakllari (forma-lotincha-tashqi ko'rinish) - bu usul o'quv jarayonini mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq.

Ta'limiy va ta'lim berish vazifasi - talaba o'qituvchini savoliga nafaqat javob beradi, balki topshiriq ham bajarib, o'rtoqlari javoblarini mulohazalaydi, o'zgartirishlar kiritadi.

Tarbiyaviy vazifasi - o'quv faoliyatini tizimli nazorat qilishda tekshirish va baholash namoyon bo'lib, bu esa, talabalarni bajariladigan ishga ma'suliyatini oshiradi, mehnat qilishga, o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil echishga, o'zining o'quv imkoniyatlarini to'g'ri baholashga o'rgatadi.

Maqsadni belgilash - didaktik vazifalarni aniqlash, o'quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo'lib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiy natijaga yo'naltiradi.

Tashxis - ta'lim oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy - texnik imkoniyatlarni o'rganish. Bu maqsadni to'g'rilash zarurligiga va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

Bashorat qilish - o'rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o'quv faoliyati natijalarini oldindan ko'rish.

Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash.

GLOSSARY

Atamalar	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Ta'lim Образование Formation	Maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni	Specially prepared with use of knowledge of experts and to give them skills and qualification in the course of formation
Bilim Знание Knowledge	O'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir	Some information to protect minds of students of scientific theories, laws and concepts
"Assisment" технология «ассесментга» "Assessment technology"	Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students
Dars ishlanmasi Разработка урока Lesson planning	Ta'limiy mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat	An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence
Dasturiy ta'lim Программное образование Program education	1) o'qitishning talaba, talabalar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi, ular tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirishda duch kelish ehtimoli bo'lgan muammolar, o'quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri	1) education organized considering interests and needs, outlook of students, problems that appear in assimilation of study materials by students, and opportunities of the academic subject; 2) one of the pedagogical technologies
Individual ta'lim Индивидуальное образование Individual Education	Ta'lim jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter,	Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperation with a single student

	televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilan o'zaro hamkorligi asosida o'quv materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim	or educational means (literature, computer, television, radio, etc.) during educational process
Innovasion ta'lim Инновационное образование Innovative education	Talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalarni me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim	Education that allows to develop skills and qualities of a student
Innovasion faoliyat Инновационная деятельность Innovative activity	Yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni echishga qaratilgan faoliyat	An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards
Innovasiya Инновация Innovation	Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat	An activity aimed at changing the internal structure of a certain system
Interfaol ta'lim Интерактивное обучение Interactive Education	Talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim	The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knowledge
"Keys-stadi" Технология «Кейс-стади» "Case study" Technology	Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	A technology that forms skills in searching for proper variants by analyzing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems

Loyihalash Проектирование Projecting	Boshlang'ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat	An action aimed at developing the essence of an activity or process, activity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means
Loyiha Проект Project	Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli	A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness
Loyiha metodi Метод проекта A method of project	O'quv jarayonini individuallashtirish, talabaning o'zini mustaqil namoyon qilishini rejalashtirish, o'z faoliyatini oqilona tashkillashtirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta'lim metodlari majmui	A set of educational methods that allow individualization of educational process, independent planning of students' performance, control and proper organization of an activity
Loyiha ta'limi Проектное образование A study of project	Ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a plan and aim that have educational characteristics
Masofaviy ta'lim Дистанционное образование Distance learning	Muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va etkazib berishdai	Education aimed at using study resources based on innovational form, method and means in organizing study services, expanding and delivering study

	an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim	products with the help of certain information communication means (video, audio, computer, multimedia, radio, television, etc.)
Model Модель Model	Real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi	A simplified or lessened copy of a real and authentic object
Modul ta'limi Модульное обучение A study of module	O'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materiali mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi	A certain form of organization of educational process, according to which the logically completed units of study materials are mastered based on the certain stages and steps
Muammoli vaziyat Проблемная ситуация Dilemma	Talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and effective accomplishment
Muammoli ta'lim Проблемное обучение Problem education	Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
Mustaqil ta'lim Самостоятельное образование Independent	OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza,	education aimed at preparing the students of higher educational institutions for indepen-

learning	seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim	dent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogos
Pedagogik muammo Педагогическая проблема Pedagogical Problem	Hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala	A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution
Rivojlantiruvchi ta'lim Развивающая образование Developing education	Talabalarning ichki imkoniyatlarini rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at revealing and developing students' inner capacities
Ta'lim jarayonini loyihalashtirish Проектирование образовательного процесса Projecting the educational process	O'qituvchi tomonidan talabani muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyati	A targeted educational activity organized in order to develop students' skills in carrying out independent actions to plan and organize activities and its assessment
Ta'lim innovatsiyalari Образовательные инновации Educational innovations	Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar	Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to existing problems in learning process or educational sphere and that guarantee effective results

Texnologik xarita Технологическая карта Technological map	Ta'lim jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat	A document that comprises all necessary information that is represented to pedagogues that lead educational process or those who carry out technical services to a certain object
O'quv topshiriqlari Учебное задание Study assignments	O'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limiy vazifalar yig'indisi	A set of learning assignments that allows to identify the level of knowledge, skills and competence of students on a certain subject
Ta'lim dasturi Программа образование Yeducation program	O'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va etarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi ro'yxati	The fields of educational sciences, the bachelor and the master of qualification according to requirements of the list of proper and adequate training of personnel
Ta'lim maqsadi Цель обучения Education purpose	Ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan asos hisoblanadi	Education and the training ground for the problem resolution with outstanding performance
Ta'lim mazmuni Содержание образование Content of education	Insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va harakteri	The person has to accept in the course of training of knowledge, skills and mentality
Ta'lim metodi Методы обучения Education methods	Ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir	Teachers and students in educational process of the joint activity directed to achievement of a specific goal

Ta'lim monitoringi Мониторинг образование Education monitoring	Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun ma'lumotlar yig'ish texnologiyasi	Development of technology for management of the level of development of data collection
Ta'lim sifati Качество образование Quality of education	Ta'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv massasasi tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi	Participants of educational process, education level of satisfaction with services of formation of masses or education level of achievement of effective objectives and tasks.
Didaktik tamoyillar Дидактические принципы Didaktichesky principles	Ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir	Training process is determined by contents of laws and training methods to the principles.
Ta'lim vositalari Средство обучение Means of education	O'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib borishini ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jixozlari	After creation of educational process and to provide a wide range of the educational equipment.
Bilim Знание Knowledge	O'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir	Some information to protect minds of students of scientific theories, laws and concepts.
Nazariy bilim Теоретическое знание Theoretical knowledge	Narsa va hodisalar mohiyatini bilish, qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi	To know an essence of things and events, provides opening of laws
Ko'nikma Умение Skill	Insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati	On the basis of the person of the previous experience ability to perform a certain activity or operation.

Malaka Навык Skill	Avtomatlashgan, o'rganib qolingani harakatdir	Got used to automated the movements.
Shakl Форма form	O'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.	The essence of educational process is a method of his internal logic, the maintenance of a cover.
Uslub Метод Method	O'qitishning maqsad va vazifalariga erishish yo'li	Way to achievement of effective objectives and tasks of training
Uslubiyot Методика Technique	qat'iy ketma - ketlikka va tizimga rioya qilish	it is strict to observe the sequence and system
Metodologiya Методология Methodology	Kishining maqsadga erishishidagi qoidalar majmui	One set of rules for achievement of goals
Texnologiya Технология Technology	San'at va mahorat	Art and skill
Pedagogik texnologiya Педагогическая технология Pedagogical technology	Ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash	Use of modern pedagogical technologies in educational process and process of training
Baholash Оценка Otsenivaniye	Natijalar bilan maqsadni qiyoslash	To compare results
Rivojlanish Развитие Development Rivojlanish	Shaxsning fiziologik va intellektual o'sishidagi miqdor va sifat o'zgarishlar	Changes of quantity and quality of physical and intellectual human height

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 2020 й. 23 сентябрь.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.-173 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харажатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокчилари янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сонли қарори.
10. Доклад Шавката Мирзиёева с руководителями вузов, учеными и академиками, 6 апреля 2018 года в Ташкенте. Пресс-служба Президента
11. Абдукодиров А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Истеъдод, 2008. – 180 б.
12. Абдукодиров А.А., Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. –Т.: Фан, 2009.-145 б.
13. Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Модулли ўқитиш технологиялари. – Т.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2007. – 97 б.
14. Аноркулова Г.М. Парпиев О.Т. Касб-хунар таълимида педагогик ўйинлардан фойдаланиш. Услубий кўлланма. Т.ЎМКХТТКМО ва УҚТИ 2011 й. -44 б.
15. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари / Монография. – Т.: Фан, 2007.
16. Бондаревская Р.С. Педагогическое проектирование в контексте инновационной образовательной деятельности // Ж. Человек и образование. –М.: 2009. - № 4. – С. 94-96.
17. Джураев Р.Х., Тайлаков Н.Н. Создание электронных учебников: теория и практика. - Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. - 192 с.
18. Джураев Р.Х. Таълимда интерфаол технологиялар.–Тошкент, 2010.-87 б.
19. Blan W.E. Handbook for developing Competency-Based Training Programs I W.E. Blank. - New-Jersey: Prentice Hall, 2002.
20. Chambers W.H. Creative Scientist of Today I W.N. Chambers II Science. -L.: 1994. - Vol. 145.
21. David Watson. The Question of Conscience Higher education and personal responsibility. Oxford, Institute of Yedication Press, 2014.
22. Бондаревская Е.В. Личностно ориентированный подход как основной путь модернизации образования: Доклад на августовской конференции работников образования г.Ростова-на-Дону /Е.В.Бондаревская. - Ростов-на-Дону, 2002. - 48 с.
23. Бутырко Н.М. Диагностическая деятельность педагога: учебное пособие для студентов высш. учеб. заведений. [текст] / Н.М.Бутырко под ред В.А. Сластенина, И.А. Клесниковой. - М.: Издательский центр «Академия», 2006. -288 с.
24. Ганиева М.А., Файзуллаева Д.М. Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами / Мет.кўлл. “Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар” сериясидан. – Т.: ТДНУ, 2013. – 95 б.
25. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар / Таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсуалар. – Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008. – 180 б.
26. Ишмухаммедов Р. Таълимда инновация. – Т.: “Фан ва технологиялар”. 2010.
27. Зеер Э.Ф. Личностно ориентированное профессиональное образование /Е.Ф.Зеер, Г.М.Романцев //Педагогика. - 2002. - Н 3. - С. 16-21.
28. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. - Т.: Ўқитувчи, 2004. -102 б.
29. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: Фан, 2004. –128 б.
30. Олимов Қ.Т., Сайидахмедова М.С., Жалолова Д. Ф., Бозорова М. Қ., Болтаева М.Л., Алимов А. А. Педагогик технологиялар ўқув

- кўлланма. –Т.: «Фан ва технология», 2011, 300 бет.
31. Олимов Қ.Т., Алимов А.А., Узокова Л.П., Алимов А.Т., Жўраев Х., Жалолова Д.Ф., Мирзаева Ф.Т. Касб таълими методикаси. Дарслик // “Фан ва технологиялар” нашриёти. – Тошкент, 2016. – 328 бет.
 32. Сафин Р.С. и другие: Современные образовательные технологии в техническом вузе: монография., издательство: Изд-во Казанск. гос. архитектур.-строит. унив. г. Казан, Россия, 2014, – 217 с.
 33. Толипов О.К., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг назарий ва амалий асослари. – Т.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2006.
 34. Фокин Ю.В. Преподавание и воспитание в высшей школе: методология, цели и содержание, творчество / Учеб. пособие. – М.: Издательский центр “Академия”, 2002. – 224 с.
 35. Хуторской, А.В. Дидактическая эвристика: Теория и технология креативного обучения. – М.: Издательство МГУ, 2003. – 162 с.
 36. Уразова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш: Пед.фан.докт.... дисс. –Т., 2016. -260 б.
 37. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 4-том. –Тошкент.-2002. 179 б.
 38. Ellis A.K., Fouts, J.T. Research on educational innovations, [text] / A.K. Yellis, J.T. Fouts. - Princeton Junction, 1993.

Интернет сайтлари

1. <http://www.ziyounet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.lex.uz>;

- кўлини. –Т.: «Фан ва технология», 2011, 300 бет.
31. Олимов Қ.Т., Алимов А.А., Узоқова Л.П., Алимов А.Т., Жўраев Х., Жалолова Д.Ф., Мирзаева Ф.Т. Касб таълими методикаси. Дарслик // “Фан ва технологиялар” нашриёти. – Тошкент, 2016. – 328 бет.
 32. Сафин Р.С. и другие: Современные образовательные технологии в техническом вузе: монография., издательство: Изд-во Казанск. гос. архитектур.-строит. унив. г. Казан, Россия, 2014, – 217 с.
 33. Толипов О.К., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг назарий ва амалий асослари. – Т.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2006.
 34. Фокин Ю.В. Преподавание и воспитание в высшей школе: методология, цели и содержание, творчество / Учеб. пособие. – М.: Издательский центр “Академия”, 2002. – 224 с.
 35. Хуторской, А.В. Дидактическая эвристика: Теория и технология креативного обучения. – М.: Издательство МГУ, 2003. – 162 с.
 36. Уразова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойихалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш: Пед.фан.докт... дисс. –Т., 2016. –260 б.
 37. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 4-том. –Тошкент.-2002. 179 б.
 38. Ellis A.K., Fouts, J.T. Research on educational innovations, [text] / A.K. Yellis, J.T. Fouts. - Princeton Junction, 1993.

Интернет сайтлари

1. <http://www.ziyounet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.lex.uz>;

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu: “Ta’lim texnologiyalari” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	5
2-mavzu. Professional ta’limda ta’lim jarayonini tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari.....	17
3-mavzu. Professional ta’limda ta’limning interfaol strategiyalari va muammoli ta’lim.....	27
4-mavzu. O’quvchi faolligini jadallashtirish asosida ta’lim texnologiyalari.....	60
5-mavzu: Ta’limning fanga va shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalari.....	72
6-mavzu. O’quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosida texnologiyalar.....	81
7-mavzu: Ta’lim vositalari ta’lim -texnologiyasining tarkibi.....	88
8-mavzu: Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari.....	101
9-mavzu. Kasbiy ta’lim o’qituvchisiga qo’yiladigan talablar..	113
10- mavzu: Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish.....	118
11-mavzu. Professional ta’lim tizimi o’qituvchisining faoliyati va pedagogik mahorat.....	136
12-mavzu. Pedagog mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari.....	144
13-mavzu. Maxsus fanlarni o’qitishda ta’lim texnologiyalarini qo’llash. Loyihaviy ta’lim	157
14-mavzu. Keys - stadi ta’lim texnologiyasi.....	165
15-mavzu. Kasbiy fanlarni modulli o’qitish metodikasi.....	172
16-Mavzu. Test topshiriqlarini ishlab chiqish texnologiyasi...	178
17- mavzu. Grafikli organayzerlar texnikasi.....	186
18- mavzu: Kompyuterli o’qitish texnologiyasi.....	198
GLOSSARIY.....	207
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	222
MUNDARIJA.....	225

ANORQULOVA G. M.

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

5111000 - Kasb ta'limi (5150900 – Dizayn (Kostyum))
va boshqa kasbiy ta'lim yo'nalishlari uchun

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent - "INNOVATSIYA-ZIYO" – 2021

Muharrir Xolsaidov F.B.

Nashriyot litsenziyasi AI № 023, 27.10.2018.
Bosishga 05.09.2021 da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.
"Times New Roman" ganiturası.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 15. Nashr bosma tabog'i 14,25
Adadi 100 nusxa.





ISBN 978-9943-5899-9-5



9 789943 589995